

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

PENSIYA ISHI

YO'NALISHI

**“DAVLAT PENSIYALARI VA IJTIMOIY
NAFAQALAR”**

MODULI BO'YICHA

**O' Q U V – U S L U B I Y
M A J M U A**

Toshkent 2018

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining hisobot yil _____dagi ____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: TMI katta o'qituvchisi Hamdamov Sh.K.

Taqrizchilar:

- Vaxabov A.V. O'zbekiston Milliy universiteti “Makroiqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., prof.
- Abdullaev Z.A. Toshkent Moliya instituti “Pensiya ishi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

O'quv -uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2018 yil _____dagi ____-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur	4
II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lif metodlari.....	11
III. Nazariy materiallar.....	15
IV. Amaliy mashg'ulot materiallari.....	105
V. Keyslar banki	110
VI. Mustaqil ta'lif mavzulari.....	143
VII. Glossariy	145
VIII. Adabiyotlar ro'yxati.....	152

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrdagi Oliy Majlisga murojatnomasida keltirilgan ustuvor yo’nalishlar va vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo’lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg’or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o’quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo’yicha so’nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog’i, multimedia tizimlari va masofadan o’qitish usullarini o’zlashtirish bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “2017 – 2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI” to’g’risidagi PF-4947-sonli Farmoni hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori asosida Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko’rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minalash maqsadida “...ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o’quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o’qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish” asosiy vaziflardan biri qilib belgilangan.¹

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo’yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. Xalq so’zi gazetasi 2017 yil 21 aprel.

tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, bu orqali oliy ta'lim muassasalarini pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog'liq kompetentsiyalarga ega bo'lislari ta'minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar modulining maqsad va vazifalari:

- “Pensiya ishi” yo’nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini uzlucksiz yangilash va rivojlantirish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minalash uchun zarur bo’lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o’zlashtirilishini ta’minalash;
- maxsus fanlar sohasidagi o’qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish;
- “Pensiya ishi” yo’nalishida o’quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minalashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

“Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar” kursini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Maxsus fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga ega bo'lislari talab etiladi:

Tinglovchi:

- davlat pensiyalarining turlarini;
- davlat pensiya ta'moti tizimining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini;
- davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarni hisoblash, tayinlash va to'lash amaliyotini;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'moti tizimining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini;
- xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- pensiya miqdorini aniqlash;
- tinglovchilarning o'z kasbiy faoliyat sohalarida “Davlat pensiya ta'moti tizimining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari” bo'yicha ta'lim xizmati

ko'rsatish, sohaga taalluqli mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga doir keyslar tuzish, ularni amaliyotda qo'llash;

- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha daromadlarni shakllantirishnining amaldagi mexanizmi va mavjud moliyaviy resurslarni boshqarish;
- xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimining ilg'or tajribalarini solishtirish kabi **ko'nikmalariga ega bo'lishi** lozim.

Tinglovchi:

- ishlovchi fuqoralarga pensiya to'lash tartibini hisoblash;
- tinglovchilar davlat pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari hamda davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar bo'yicha bilimga ega bo'lishi, shu sohaga doir muammolarni aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini daromad va xarajatlarini boshqarishning amaldagi mexanizmi;
- xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi tajribalarini umumlashtirish va ulardan foydalanish **malakalariga ega bo'lishi** lozim.

Tinglovchi:

- nogironlik pensiyalari, ularni tainlash asoslarini tushuntirish;
- davlat pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari, davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar bo'yicha nazariy va amaliy sohalarda O'zbekistonda erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularni hal etish imkoniyatlarini shakllantirish;
- turli iqtisodiy maktab namoyondalarining pensiya tizimiga oid ilmiy qarashlari asosidagi tizimli tahlil va sintezni shakllantirish;
- davlat pensiya ta'minoti tizimida olib borilayotgan islohotlar, uning yaqin istiqboldagi vazifalari va strategik yo'nalishlarini retrospektiv va perspektiv baholay olishi hamda ularni keng jamoatchilikka tushuntirish;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatlari hamda takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- Respublikamizda pensiya tizimini isloh qilish va unda xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar bankini shakllantirish **kompetentsiyasiga ega bo'lishi** zarur.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar" kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan

foydalananish tavsiya etiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti", "Tizimli tahlil usullari" va "Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning umummutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'lindagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy ekonometrik modellarni tuzish va qo'llashdagi muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholash hamda optimal qarorlar qabul qilish va prognozlashga doir umummutaxassislik kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchingin o'quv yuklamasi, soat						Mustaqil ta'lim	
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			jumladan			
			jami	Nazaiy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot			
1.	Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati	4	4	2	2				
2.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi davlat pensiyalari va nafaqalarini to'lovchi jamg'arma sifatida	8	6	2	4			2	
3.	Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafalarni hisoblash va to'lash tartibi	20	18	6	8	4		2	
Jami:		32	28	10	14	4	4		

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati (2 soat)

Davlat ijtimoiy siyosatining mazmuni, yo'nalishlari, asosiy vazifalari. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda pensiya ta'minotining o'rni. Pensiya ta'minotining turlari va tashkiliy shakllari. O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minotining o'ziga hos xususiyatlari. Davlat pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari. Davlat pensiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari.

2-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi davlat pensiyalarini va nafaqalarini to'lovchi jamg'arma sifatida (2 soat)

Davlat pensiya ta'minotini boshqarish organlari, ularning asosiy vazifalari. Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, tashkil bo'lishi, asosiy vazifalari va tashkiliy tuzilishi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy bo'linmalarining funksiya va vazifalari, tarkibiy tuzilishi. Pensiya jamg'armasining daromadlari, ularning tarkibi va shakllanishi. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibi. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar, ularning turlari.

3-mavzu. Davlat pensiyalarini va ijtimoiy nafalarni hisoblash va to'lash tartibi (6 soat)

Davlat pensiyalarining turlari. Davlat pensiyalarini tayinlash uchun talab etiladigan umumi shartlar. Yoshga doir pensiyalarning tayinlanish shartlari. Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqi. Nogironlik pensiyalarini, ularni tayinlash asoslari. Fuqarolarning boquvchisini yo'qtganlik pensiya ta'minotiga oid huquqlari. Boquvchisini yo'qtganlik pensiyalarining tayinlanishi shartlari. Pensiya miqdorini aniqlash. Ish stoji to'liq bo'lmaganda pensiyalarini tayinlash. Pensiya hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqini aniqlashning umumiyyatini. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'gan mehnat faoliyati turlari. Pensiyani hisoblash uchun zarur bo'lgan ish stajini aniqlash tartibi. Pensiyani tayinlash muddatlari. Pensiyani qayta hisoblash shartlari. Pensiyani to'lash muddatlari. Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalarida ro'yxatda turuvchi ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi. O'zbekiston Respublikasi ayrim vazirlik va idoralarida hisobda turuvchi ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Davlat pensiyalarini va ijtimoiy nafaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati (2 soat)

Davlat ijtimoiy siyosatining mazmuni, yo'nalishlari, asosiy vazifalari. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda pensiya ta'minotining o'rni. Pensiya ta'minotining turlari va tashkiliy shakllari. O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minotining o'ziga hos xususiyatlari. Davlat pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari. Davlat pensiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari.

2-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi davlat pensiyalarini to'lovchi jamg'arma sifatida (4 soat)

Davlat pensiya ta'minotini boshqarish organlari, ularning asosiy vazifalari. Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, tashkil bo'lishi, asosiy vazifalari va tashkiliy tuzilishi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy bo'linmalarining funksiya va vazifalari, tarkibiy tuzilishi. Pensiya jamg'armasining daromadlari, ularning tarkibi va shakllanishi. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibi. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar, ularning turlari.

3-mavzu. Davlat pensiyalarini va ijtimoiy nafalarni hisoblash va to'lash tartibi (8 soat)

Davlat pensiyalarining turlari. Davlat pensiyalarini tayinlash uchun talab etiladigan umumiy shartlar. Yoshga doir pensiyalarning tayinlanish shartlari. Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqi. Nogironlik pensiyalarini, ularni tayinlash asoslari. Fuqarolarning boquvchisini yo'qotganlik pensiya ta'minotiga oid huquqlari. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarining tayinlanishi shartlari. Pensiya miqdorini aniqlash. Ish stoji to'liq bo'limganda pensiyalarini tayinlash. Pensiya hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqini aniqlashning umumiy tartibi. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'gan mehnat faoliyati turlari. Pensiyani hisoblash uchun zarur bo'lgan ish stajini aniqlash tartibi. Pensiyani tayinlash muddatlari. Pensiyani qayta hisoblash shartlari. Pensiyani to'lash muddatlari. Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalarida ro'yxatda turuvchi ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi. O'zbekiston Respublikasi ayrim vazirlik va idoralarida hisobda turuvchi ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalilanadi:

- ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- davra suhbatlari (ko'rيلотган loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish;
- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

Nº	Baholash turi	Eng yuqori ball 2,5	Izoh
1.	Ta'lrim oluvchilar modulli o'quv axborotini o'zlashtirishlari uchun, o'qitishning maqsad va natijalarini, modul mazmunini aniq tanlanganligi	1,0 ball	Masala va topshiriqlarni bajarish - 1,0 ball.
2.	Modulli o'quv axborot: grafik, rasm ko'rinishda etarli miqdorda, sifatli ma'lumotdan iborat bo'lishi		
3.	Vaziyat modelini yaratilishi	1,5 ball	Keys-stadi texnologiyasini ishlab chiqishi - 1,5 ball.
4.	Keys matni bayon etilishi		
5.	Keysning pedagogik pasportining tuzilishi		

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari

Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinuvি.

Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi



Bahs

Bahs – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning dalilagini, tushunchalarini va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so'zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsiyalarini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, babsning mojaroga aylanishiga yo’l qo’ymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyiligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo’shgan hissasi to’g’risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.


«Aqliy hujum»

Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo’roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.


Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o'qib-o'rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, fikrlash inertsiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini engish.

- **To'g'ridan-to'g'ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko'proq fikrlar yig'ilishini ta'minlaydi. Butun o'quv guruhi (20 kishidan ortiq bo'limgan) bitta muammoni hal etadi.
- **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlarga bo'lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.
- Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihatni hal etiladi.



Venn diagrammasi



SWOT-tahlil jadvali

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;


Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko’ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog’liq bo’lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog’liq bo’ladi. Uni qo’llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

“Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o’qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqt beruvchi to’siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo’ladi.

So’ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni engib o’tish vositalari strelka ko’rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o’ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo’lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo’laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so’z bo’lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o’rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o’z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When),

Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys.

Amaliy vaziyat. Ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarini belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtaida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rilash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'rilaysiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslahatimiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati (2 soat)


Reja

1. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda pensiya ta'minotining o'rni.
2. Davlat pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari.
3. Davlat pensiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy siyosat, passiv ijtimoiy siyosat, aktiv ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot, davlat pensiyalari, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy himoya, davlat moliyasi, pensiya qonunchiligi.

1. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda pensiya ta'minotining o'rni.

Inson hayoti davomida uning sog'ligiga ta'sir etuvchi va buning natijasida uning asosiy daromad manbai bo'l mish ish haqini yo'qotishiga olib keluvchi shart-sharoitlarning yuzaga kelish xavfi ostida turadi. Ushbu shart-sharoitlarga: kasallanish, qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish va boshqalar kiradi. Mustaqil ushbu sharoitlarga qarshi kurashish har doim ham mumkin emas. Ular shaxsning faol faoliyat bilan bezosita bog'liq bo'lib, alohida shaxslarning hoxish va irodasiga bog'liq bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda ular to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham davlat ushbu holatning yuzaga kelishidagi ma'lum bir javobgarlikni o'z zimmasiga olib, davlat pensiyalarini, ijtimoiy nafaqalarni va xizmatlarni tayinlash orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi.



1-rasm. Ijtimoiy xavf-xatarlar²

Inson hayot-faoliyati davomida ma'lum bir hodisalarni ijtimoiy xavf-xatar sifatida namoyon bo'lishining asosiy omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy tizim va umumjamiyat mehnat faoliyatini tashkil etishning shart-sharoitlari;

- mehnat faoliyati natijasida, shuningdek oila ichidagi uni ta'minoti uchun daromadning yo'qligi, oiladagi mehnatga qobiliyatsiz a'zolariga qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi;

- davlat va jamiyatning aytib o'tilgan shart sharoitlarning natijalarini bartaraf etishga yoki uni engillashtirishga bo'lган qiziqishining mavjudligi

Inson mehnat qobiliyatiga va tabiatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarni to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin (1-rasm):

1. Iqtisodiy tusdagi (ishsizlik);
2. Fiziologik tusdagi (vaqtinchalik yoki doimiy asosda mehnatga qobiliyatligini yo'qotish, homiladorlik yoki bola tug'ish, qarilik, o'lim);
3. Faoliyat yuritish tusdagi (mehnatdagi shikastlanish, kasbiy kasalliklar);
4. Demografik va ijtimoiy tusdagi (ko'p bolalilik, oilaning to'liq emasligi, etimllilik).

Iqtisodiy va demografik xavf-xatarlar shaxsning mehnatga qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. Lekin ish joyining uzoq vaqt davomida mavjud bo'lmasligi, ishsiz shaxsning va uning oilasining umumiyligi ko'rsatkichini pasayishiga, shuningdek, uning kasbiy mahoratini yo'qotishiga olib keladi. Ko'p bolalilik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar o'z navbatida oilaning o'rtacha daromadini yashash savatchasi xajmidan past bo'lishiga, oziqlanish, dam olish va boshqa xayotiy sharoitlar sifatining aksi.

Ijtimoiy siyosat deganda jamiyatdagi har bir shaxs hayoti va faoliyati uchun uning rivojlanishiga yordam beradigan va ijodiy imkoniyatlarining to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradigan zarur shart-sharoitlarni yaratish va saqlab turishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi³.

Bugungi kunda respublikada ijtimoiy siyosatning quyidagi yo'naliislari bo'yicha ish olib borilmoqda:

1. Ishlab chiqarish sohasida:

- bandlikni yuqori darajada ushlab turish;
- xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish amalga oshirilayotganda mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish.

2. Daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash sohasida:

- ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiyalarning minimal miqdorini belgilash;
- inflyatsiyaning o'sishiga mutanosib ravishda aholi daromadlarini indeksatsiyalash;

² Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez "A Young Person's Guide to Social security" Economic Policy Institute, 2011 y. p 26-27

³ Marc Whitehead "THE SOCIAL SECURITY DISABILITY PUZZLE" 2010 y. p.45

- daromadlarni kam ta'minlangan fuqarolar hisobiga qayta taqsimlash.

3. Iste'mol sohasida:

- ichki iste'mol bozorini himoyalash;
- iste'mol mollari ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- tovarlarning erkin almashinuviga sharoit yaratish;
- asosiy iste'mol mollari darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'ta muhim, yuqori kalloriyali oziq-ovqat iste'molining tarkibini takomillashtirish.

4. Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish sohasida:

- Davlat tomonidan kafolatlangan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot xizmatlarining miqdorini belgilash va sifatini ta'minlash;
- Bu xizmatlarni ko'rsatishning moddiy, mehnat va moliyaviy asosini mustahkamlash;
- Bu sohalarda band bo'lgan xodimlar malakasini oshirish va moddiy rag'batlantirish mexanizmini mustahkamlash;

5. Ijtimoiy himoya sohasida:

- kam ta'minlangan oilalarga qaratilgan nafaqalarni belgilash;
- aholini ijtimoiy himoya qilishda manzillilikni ta'minlash;
- shu maqsadlarda kam ta'minlangan oilalarga nafaqalarni mahallalar orqali etkazilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratish va takomillashtirib borish;
- aholining ijtimoiy muhofazasi uchun davlat moliyaviy manbalari bilan bir qatorda, homiylik, xayriya tashkilotlari, korxonalar mablag'larini jalg etish;
- davlat tomonidan yuqori tug'ilish sur'atlarini rag'batlantirishni qisqartirish.

Amalga oshirilish usuliga ko'ra ijtimoiy siyosatni aktiv va passiv turlarga ajratish mumkin. *Passiv ijtimoiy siyosat* narxlarni sun'iy ravishda tutib turish, shuning hisobiga aholi turmush darajasini ma'lum darajada tutib turish yoki barqarorlashtirish, ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ishlab chiqaruvchilarga narxlarni sun'iy ravishda tutib turish natijasida ko'rilegan zararlarni qoplash maqsadida dotatsiyalarni oshirishni ko'zda tutadi. *Aktiv ijtimoiy siyosat* esa tashabbus ko'rsatish va tadbirkorlik uchun sharoit yaratib berishda, aholi bandligini oshirishda, yangi ish o'rirlarni ochishda, aholining nozik qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishda, pensionerlar, qariyalar, nogironlar, bolalar, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy muhofazalashda va qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholi yoshining tarkibiy tuzilishi ham respublikamizdagi barcha ijtimoiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, bu sohadagi dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ijtimoiy masalalarning, jumladan, ijtimoiy himoya, pensiya ta'minoti, yoshlar masalasi, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalarini rivojlantirishning islohotlarimizning ustuvor yo'nalishlari ekanligini belgilab bermoqda.

Ijtimoiy siyosatda quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash.

Ijtimoiy himoya - o'ziga bog'liq bo'limgan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlarni ko'zda tutadi. Ijtimoiy himoya tadbirdari yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish jarayonida qanday qatnashishidan qat'i nazar, aholining ma'lum tabaqalari turmush darajasini birmuncha (vaqtinchalik yoki doimiy) yaxshilashga erishiladi. Bu maqsadlardagi xarajatlarning aksariyati davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda quyidagilar ijtimoiy yordam tizimini moliyaviy va moddiy jihatdan qo'shimcha tarzda qo'llab-quvvatlamoqda:

- o'z mablag'lari va Fondlari hisobidan o'z xodimlariga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlarida moliyaviy yordam to'layotgan va turli imtiyozlar berayotgan korxonalar;
- jamoat tashkilotlari;
- kasaba uyushmalari, nuroniylar, nogironlar jamiyatlari va boshqalar.

Ijtimoiy ta'minot - fuqarolarning qarilikda, kasallik ro'y berganda, mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo'qotganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimidir⁴. Ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti yotadi. Bizning respublikamizda ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishning quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi;
- davlat byudjeti.

Demak, davlat ijgimoiy taminoti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minoti;
- uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko'rsatish;
- nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash;
- bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash;
- nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish;
- aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish va imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash;
- uylarda ijgimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Bu xizmatlarning ayrimlari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalar, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar) hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

⁴ Ruud Kleynen "Asset Liability Management for Pension Funds" 2014y. p.32

Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, fuqorolarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga muxtoj tabaqalarini manzilli ijtimoiy himoya qilish taraqqiyotimizning muhim hususiyatlaridan biridir. Bugungi sharoitda pensiyalarga oid qonunchilikni takomillashtirish, inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni keng joriy etish, davlat peniyalarini tayinlash va to'lash chog'ida ijtimoiy adolat tamoyillarini to'la qaror toptirish, ana shu maqsadlarda ajratilayotgan moliyaviy resurslardan samarali hamda maqsadli foydalanishga erishish amalga oshirilib kelinayotgan yangilanish va modernizatsiya qilish jarayonlarimizning muhim jihatlaridan sanaladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan huquqiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri-inson manfaatlarini oliv qadriyat sifatida har tomonlama ta'minlash va muhofaza etishdan iboratdir. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarni samaradorligini oshirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishni taqazo qiladi.

Ma'lumki inson uchun bиринчи navbatda, uning ehtiyojlar yig'indisini tashkil etgan hayotiy muhim manfaatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ehtiyojlarning qondirilishi esa har bir fuqaro, jamiyat va davlatning munosib hayot kechirishi va taraqqiyotini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Inson ushbu ehtiyojlarini mehnat qilish orqali qondirib, bu bilan o'z turmush farovonligini oshirib boradi. Shuning uchun bosh qonunimiz sanalmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qtganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega"⁵ ekanligi belgilab qo'yilgan.

Davlat mehnatga layoqatsiz barcha fuqarolarni ijtimoiy jamg'armalar mablag'lari hisobidan, pensiya va ijtimoiy nafaqalar orqali Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan huquqlarini kafolatlaydi. Pensiya ta'minoti tizimi fuqorolarning turmush darajasi o'sishini ta'minlash manbai hisoblanadi, pensiyalarni olish huquqiga esa mehnat qilish orqali erishiladi.

Pensianing mohiyatini "pensiya" so'zi ochib beradi. Pensiya so'zi lotin tilidagi "pension" so'zidan olingan bo'lib, "to'lov" ma'nosini anglatadi.⁶

"Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomda pensiya so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "pensiya-uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yoqotganlik munosabati bilan beiladigan oylik pul to'lovi".⁷

Pensiya tizimi mamlakatimiz aholisini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi kam ta'minlangan fuqarolar va mehnatga layoqatsiz kishilar hayot darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy xarakterga ega kompleks dastur talablarini ijro etishdan iborat. Shu bois Prezidentimiz tashabbusi bilan istiqlol yillarda aholini ijtimoiy himoyalashni yanada kuchaytirish, pensiya ta'minoti sifatini oshirish bo'yicha

⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: "O'zbekiston". 2008,9-bet.

⁶ Saidov M.X. Ijtimoiy himoya. Atamalar izoxli lug'ati. -T.: "A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-dekabrdagi 252-son "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom

bosqichma-bosqich islohatlar olib borilmoqda. Natijada o‘tgan qisqa davr ichida respublikamizda aholini ijtimoiy muhofaza qilish va kafolatlashning kuchli hamda ta’sirchan mexanizmi yaratildi. Bugungi kunda iktisodiy xayotni pensiya tizimisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, har bir davlat o‘z pensiya tizimiga ega. Davlat o‘z yo‘nalishi, turini va to‘lov funktsiyalarini belgilab olib pensiya jamg‘armalari boshqariladi va tashkil etiladi. Pensiya tizimi kompleks tushuncha asosida tashkil topgan bo‘lib, pensiya jamg‘armalarining tashkiliy boshqaruvi munosabatlari orqali fuqarolarni moddiy tomondan pensiya bilan ta’minalash va to‘lash, boshqarma va tashkilotlarning pensiya ta’minoti munosabatlari orqali yuzaga keladi. Pensiya tizimi davlat tomonidan tashkil etilgan barcha huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy institutlar me’yorlari asosida fuqarolarni moddiy ta’minot ko‘rinishidagi nafaqalar bilan maqsadli ta’minalash xisoblanadi. Pensiya tizimi huquqiy tushuncha bulib, buning asosida me’yoriy boshqaruv yig‘indilari asosiy uch xil xarakterli jamoaviy munosabatlar guruxiga ajratiladi⁸:

- pensiya jamg‘armasining tashkilot va boshqarma munosabatlari;
- pensiya jamg‘armasining tashkiliy munosabatlari, bunda pensiya to‘lovlarning to‘lanishi va boshqa to‘lovlar hisobiga shakllanadi;
- jamiyat a’zolarini pensiya va boshqa pensiya to‘lovlari bilan moddiy ta’minalash munosabatlari.

Demak, davlat pensiya ta’minoti tizimi yuqorida aytib o‘tilgan hollarda davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta’minot olishni ro‘yobga chiqarish vositasidir. Bundan tashqari, har qanday davlatda shunday shaxslar toifasi doimo mavjudki, ular obyektiv sabablarga ko‘ra (pensiya yoshi, sog‘lig‘i, ishsizlik darajasi kabi), ishlab chiqarishda ishtirok eta olmaydilar. Shu bois ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o‘z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan Yalpi ichki mahsulotning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi.

Pensiya ta’minotining zaruriyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida aholi uchun ijtimoiy qiyinchiliklarni yengillashtirish bilan bog‘liq.

Pensiya tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi:

Birinchidan, fuqorolarni keksalik chog‘ida kambag‘allikdan himoyalash;

Ikkinchidan, mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta’minalash;

Uchinchidan, bu daromaddan kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalanish tarzida foydalanish.


2. Davlat pensiya ta’minotining qonuniy-huquqiy asoslari

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan pensiya ta’minoti tizimida xukuqiy islohotlarning maqsadlaridan biri - inson manfaatlarini oliy kadriyat sifatida har tomonlama ta’minalash va muhofaza etishdan iborat.

⁸ Marc Whitehead “THE SOCIAL SECURITY DISABILITY PUZZLE” 2010 y. p.36

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan pensiya konunchiligi, davlat pensiyalarini tayinlash va to'lashni amalga oshirish tizimi hamda qonunlarga rioya etish tizimi sohalaridagi keng ko'lamli chora-tadbirlardan ko'zlangan maqsad ham pensiya ta'minoti tizimining zamonaviy shakllari va usullariga moslashishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining tomonidan tasdiklangan «Davlat pensiya tizimi 2012-2016 yillarda yanada barkaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhit shakllantirish orkali fukarolarga kafolatlangan davlat pensiyalarini takdim etish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha» Kompleks dasturi ishlab chiqildi.



2-rasm. Davlat pensiya ta'minotining normativ-xuquqiy bazasini rivojlanishi va takomilashuvi⁹

O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotining normativ-xuquqiy bazasini rivojlanishi va takomilashuvini ikki bosqichdan iborat(2-rasm)

Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlar huquqlarini himoya qilish, ularning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoyi adolat tamoyillarini mustahkamlashda 1993 yilda 3 sentyabrda qabul kilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi hisoblanmish qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot olish huquqini amalga oshirish tartibi, davlat pensiyalari yagona tizimini tashkil etish (ularni tayinlash, hisoblash, qayta hisoblash va to'lash tartibi) "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunda bilan belgilangan.

⁹ Pensiya ta'minoti tizmini rivojlanirish istiibollari" mavzusidagi respublika ilmiy -amaliy konferentsiya materiallari asosida tayyorlangan

Ushbu qonun va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar amal qilayotgan pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Bu qonunning mohiyatini pensionerlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy himoyalash, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liqligini ta'minlash tashkil etadi. Yangi qabul qilingan qonunning muhim jihatlaridan yana biri, agar sobiq ittifoq davrida pensiyalarning besh turi mavjud bo'lган bo'lsa, endi pensiyalarning quyidagi uch turi saqlanib qolningan.

Qonunga muvofiq, umuman mehnat stajiga ega bo'lмаган fuqarolarga ijtimoiy pensiya o'rniga nafaqalar tayinlash ko'zda tutilgan.

Ish stajiga ega bo'lмаган qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi *"Pensiya tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lмаган qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom"*da belgilab qo'yildi. Bu Nizom Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi 319-son qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu Nizomga ko'ra, nafaqalar "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni bo'yicha pensiya olish huquqiga ega bo'lмаган hamda ularni boqishga majbur bo'lган qarindoshlari bo'lмаган fuqarolarga tayinlanadi hamda to'lanadi.

1999 yil 14 apreldaga "*Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida*"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ko'ra, "*Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida*"gi Qonuniga "*Umumiy belgilangan yoshni bir yilga qisqartirigan holda pensiya olish huquqi*"degan 12-1 modda qo'shilgan. Shu moddaga muvofiq kamida 20 yillik ish staji bo'lган ayollar 54 yoshga to'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Pensiya tayinlash uchun hujjatlarni taqdim etish va rasmiylashtirish tartibi O'zR Vazirlar Mahkamasining "*Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida*" O'zbekiston Respublikasining Qonuni ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lган normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida 1994 yil 11 maydag'i 249-son qarori bilan tasdiqlangan "*Pensiya tayinlash uchun zarur hujjatlarni taqdim etish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizom*"da batafsil bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimida vujudga kelayotgan muammolar pensiya tizimini takomillashtirib borishda yangi qonunchilik asoslarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Respublikamizda pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'plashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 444-sonli «*O'zbekiston Respublikasi Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga muvofiq, 2001 yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi. vudjetdan tashqari pensiya fondining daromadlari va xarajatlari har yili jamlangan budgetning tarkibiga kiritildi.

90-yillarda pensiyaga oid qabul qilingan qonunlar pensiyani belgilash va to'lash tartibiga katta o'zgarishlar kiritgan bo'lishiga qaramay, u asosiy muammo - pensiya tizimi moliyaviy ta'minotini barqarorlashtirish masalasini hal qila olmadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga, "Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga, Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi 444-sون "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrdagi 498-sон "vudjetdan tashqari pensiya fondining mablag'larini shakllantirish va ishlatalish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qaroriga asosan vudjetdan tashqari Pensiya fondiga davlat sug'urtasi badallarini, majburiy to'lovlarni va ajratmalarni hisoblash va to'lash bo'yicha me'yoriy hujjat ishlab chiqildi.

2000 yil 23 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 498-sонли "vudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va xarajat qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida"gi 2002 yil 25 yanvardagi Farmoniga muvofiq, "Fuqarolarni davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 27-moddasi 3-qismida belgilangan cheklashlar 2002 yil 1 yanvarda bekor qilindi. Mazkur moddaga muvofiq, yosh bo'yicha pensiya hamda I va II guruh nogironlari pensiyasi uni hisoblab chiqish uchun qabul qilinadigan ish haqining 75 foizidan, III guruh nogironlar va boquvchisini yo'qotganlik uchun oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga pensiya 40 foizdan oshmas edi. Mazkur cheklashning bekor qilinishi har bir fuqaro pensiya ta'minoti darajasini uning ish stoji davomiyligiga bog'liqligini kuchaytirib, pensiyalar miqdorining o'sishi va pensiya to'g'risidagi qonunlarimizdagи ijtimoiy adolatlilikning oshirilishini ta'minladi.

2005 moliya yili boshlangunga qadar budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi dastlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi, so'ngra vazirlikni Mexnat vazirligi bilan unifikatsiya qilganidan keyin, O'zbekiston Respublikasi Mexnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tasarufiga o'tkazildi.

2004 yil 21 oktyabrdada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 490-sонли "vudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi boshqaruvini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, Pensiya jamg'armasi 2005 yil 1 yanvardan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi maqomini oldi. Shuningdek, qaror bilan budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqaruv kengashi va ularning tarkibi ham belgilab qo'yildi

Mamlakat pensiya ta'minotini yanada takomillashtirish maqsadida va rivojlangan mamlakatlar pensiya ta'minotlari xususiyatlarini o'rganish asosida jamg'arib boriladigan pensiya tizimini shakllantirish, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2004 yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg'arilgan mablag'lari saqlanishi hamda to'lanishini kafolatlaydi. Ish beruvchilarining, shuningdek mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi majburiydir.

*“Davlat ijtimoiy sug’urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to’lash tartibi to’g’risidagi Nizom”*ga 2007 yil 25 iyunda o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi. Bunga ko’ra, 2007 yil 1yanvardan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to’lash bilan bog’liq xarajatlar:

➤ budjet tashkilotlari tomonidan – mehnat haqi jamg’armasiga ajlatilayotgan budjet mablag'lari doirasida; xo’jalik yurituvchi sub’eklar tomonidan-foyda solig’ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliq tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag’lar xisobiga amalga oshiriladi.

2009 yil 30 dekabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PF- 4161-sonli Farmoni hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2009 yil 30 dekabrdagi PQ- 1252-son qarori qabul qilindi.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, hamda pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budgetdan tashqari Pensiya jamg’armasidan o’z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to’liq hajmda to’lash, shuningdek respublika fuqarolarining pensiya ta’minotiga yo’naltiriladigan mablag’lardan maqsadli foydalanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining viloyatlar , shaharlar va tumanlarda O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqpari Pensiya jamg’armasi bo’limalarini tashkil etish boshlandi.

2010 yil 19 fevralda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30-son qaroriga ko’ra O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg’armasi to’g’risidagi yangi Nizom tasdiqlandi. Unga ko’ra jamg’arma tizimiga jamg’armaning tuman (shahar) bo’limlari; bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi 252-son qaroriga ko’ra” Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan amaldagi ish haqini ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo’llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to’g’risida”gi Nizom ishlab chiqildi. Ushbu Nizom «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo’llagan holda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqini qayta hisoblab chiqish tartibini belgilaydi.

Bugungi kunda Vazirlar Mahkamasining qarori asosida davlat pensiya va nafaqalarni tayinlanishi va ularning to’lovi monitoringini amalga oshirilishi

tartibga solish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnomaga muvofiq fuqorolarga pensiyalarini tayinlash va to'lovini amalga oshirish mexanizmi to'liq o'z ifodasini topdi.

Qonunga oxirgi marotaba O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-dekabrda qabul qilingan Qonuni- "Soliq va budget siyosatining 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'naliishlari qabul qilinganligi munosbati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda bo'lgan, lekin 10 yildan oshmagan davr ham endilikda ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

Mazkur norma 1994 yil 1 iyuldan 2011 yil 1 yanvargacha amalda bo'lgan, so'ng chiqarib tashlangan edi.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuning moddalariga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq endilikda 2015 yil 1 yanvardan boshlab pensionerga hisoblab chiqarib qo'yilgan, lekin uning tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan **12 oy (bir yil)** to'lanadi. Oldingi **uch yildan** oshmagan davr uchun to'lanar edi. 2015 yil 1 yanvardan boshlab bu davr 3 yildan 12 oyga qisqartirildi.

Shu paytgacha belgilangan qoidalarga ko'ra, pensioner vafot etgan taqdirda, uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga *ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining uch baravaridan oz bo'lмаган miqdorda dafn etish nafaqasi* to'lanar edi. Endilikda dafn etish nafaqasi aniq miqdorda, ya'ni **eng kam oylik ish haqining to'rt barvari miqdorida** to'lanadi

2014 yil 23 dekabrdagi 357-sonli Qaroriga asosan «Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiyalarini to'lashga harajatlarini qoplash tartibi to'g'risida Nizom ishlab chiqildi.

Respublikamizda 2014-yilning yakunlari natijalariga binoan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga eng muhim ustuvor vazifalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini jadal rivojlantirish va modernizatsiyalash kompleks dasturlari tizimli va izchil amalga oshirilishi tufayli O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlari qayd etildi hamda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilgi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida""gi farmonlari-Respublika aholisining daromadlari va turmush darasini yanada muttasil oshirib borish, fuqarolarga ijtimoiy madadni kuchaytirish maqsadida amalga oshirilib quyida 2014-yilda qabul qilingan hamda amaliyatga joriy qilingan pensiya tizimi uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lamic Shu qarorlarga binoan budget muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarining oshirilishi bilan bog'liq sarf-xarajatlar

respublika Davlat budgeti hamda O'zbekiston Republikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Pensiya ta'minoti tizimi amal qilishining tashkiliy-huquqiy asoslari to'g'risida gap borar ekan, dastlab aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti uchun majburiy badallarning to'liq kelib tushishi hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lashga xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy ta'minlash uchun ijtimoiy ta'minot organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida *Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabr 459-son qarori* bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi va ijtimoiy ta'minot mahalliy organlari qoshida tegishli hududiy bo'linmalari va bo'limlari bo'lgan Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan edi.

Pensiya jamg'armasining pul mablag'lari 1997 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga kiritildi, bunda bu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va sarflashning maqsadli yo'naltirilganligi saqlab qolindi.

Pensiya jamg'armasiga rahbarlik qilish Pensiya jamg'armasining 9 kishidan iborat boshqaruvi hamda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ijro etuvchi organi - Ijro etuvchi direktsiyasi tomonidan amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vaziri Pensiya jamg'armasi boshqaruvi raisi hisoblanar edi.

Pensiya ta'minoti tizimidagi ma'muriy va iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish doirasida *Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli Qarori* bilan "pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida" 2001 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi. Ushbu qaror bilan:

- budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' ajratish va badallar miqdori hamda ularni to'lash muddatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi;
- budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtirilishi;
- budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budgeti tarkibiga kiritilishi;
- Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga yuklatilishi belgilab qo'yildi.

Natijada Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining markaziy apparati (ijroiya direktsiya), hududiy bo'linmalari, tuman (shahar)

bo‘limlari 2001 yil 1 yanvardan boshlab tugatildi, tugatilgan Pensiya jamg‘armasi markaziy apparati va uning hududiy tuzilmalarining mol-mulki, asosiy va aylanma mablag‘lari vazirlik markaziy apparati va uning hududiy tuzilmalarining balansiga qabul qilindi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini boshqarish bo‘yicha funktsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining rahbarlari budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini boshqaruvchilar hisoblanishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari kelib tushishi va ulardan maqsadli foydalanish uchun jamoat nazorati funktsiyasi “Nuroniy” jamg‘armasi huzuridagi “Nazorat kengashi” jamoat komissiyasiga yuklatildi.

Keyinchalik, ijtimoiy ta’midot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to‘lashga yo‘naltiriladigan mablag‘larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida *Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 noyabrdagi “Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori* bilan 2005 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi.

Quyidagilar budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta’midot va ijtimoiy sug‘urtaga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish;
- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarini budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yagona yig‘ma hisobraqamida jamlash;
- 2005 yil 1 yanvardan boshlab pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to‘lash xarajatlarini moliyalashtirish;
- budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga mablag‘larning to‘liq tushishi va o‘z vaqtida sarflanishi ustidan nazoratni ta’minlash.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining yig‘ma budgeti tarkibiga kiritildi. Davlat soliq qo‘mitasi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar, badallar va to‘lovlarini yig‘ish va ularning to‘liq tushishini nazorat qilish funktsiyalarini amalga oshiradigan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarning o‘z vaqtida tayinlanishi va to‘lanishi, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha xarajatlarning belgilangan tartibda moliyalashtirilishi ustidan nazoratini ta’minlaydigan bo‘ldi.

Pensiya jamg‘armasining barcha darajalardagi hisobraqamlaridagi 2004 yil 31 dekabr holatiga ko‘ra qoldiq mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobraqamiga o‘tkazildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilgan ma’muriy va iqtisodiy islohotlar doirasida Pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to‘liq hajmda to‘lash, shuningdek respublika fuqarolarining pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida *2009 yil 30 dekabrda “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4161-soni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni* qabul qilindi. Ushbu farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi va uning viloyatlar, shaharlar va tumanlarda bo‘linmalari tashkil etildi. Natijada 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarini tayinlash, moliyalashtirish, ularning to‘lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg‘armasining tegishli hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘linmalari fuqarolarning pensiya ta’minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi masalalarining butun kompleksi uchun mas’ul bo‘lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funktsiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etildi. Natijada Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi zimmasiga qo‘srimcha ravishda quyidagi asosiy vazifalar va funktsiyalar yuklatildi:

- fuqarolarning davlat pensiya ta’minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarini tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to‘lovlarining miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta’minlash;
- pensiyalar hamda boshqa to‘lovlarini to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil qilish, ular bo‘yicha hisob va hisobotni yuritish;
- pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan qat’iyan maqsadli foydalanilishini ta’minlash;
- mehnat mayibligi yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo‘yicha tayinlangan pensiyalarini to‘lashga mablag‘larni da’volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;
- tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish.

Shuningdek, Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalarida

tegishli bo‘limlar tashkil qilindi. Ularning zimmalariga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- yangi tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo‘llanilishi to‘g‘riligini, shu jumladan, fuqarolarning pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildida birlamchi hujjatlarning to‘liqligi va ishonarliligin tekshirish yo‘li bilan yoppasiga tekshiruvlarni amalga oshirish;
- mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan ishlovchi pensionerlarga pensiyalar hamda nafaqalarning hisoblab yozilishi va to‘lanishi to‘g‘riligini reja asosida tekshirib turish;
- fuqarolarga pensiya va nafaqalar, shu jumladan, bank va pochta muassasalari tomonidan o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishining tizimli monitoringini olib borish, qoidabuzarliklar aniqlanganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarни ko‘rish;
- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan berilgan tekshiruv hujjatlari va xulosalarni, zarurat tug‘ilganda, mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda takroriy ekspertizalarni o‘tkazish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1252-sonli Qarori bilan pensiya ta‘minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ijtimoiy ta‘minot organlarining huquqiy vorislari (fuqarolarning pensiya ta‘minotini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqlar va majburiyatlar qismida) bo‘lib hisoblanishlari belgilandi.

Yuqoridagi qarorga muvofiq, Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi direktori Pensiya jamg‘armasi Kuzatuvchilar kengashining taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi, Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparati hamda uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlarining xodimlariga moliya organlari xodimlari uchun belgilangan mehnat haqi shartlari tatbiq etiladi.

Nihoyat, Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagagi 30-sun qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi va Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjat sifatida amalga kiritildi. Ushbu nizom Jamg‘armaning asosiy vazifalari va funktsiyalarini, Jamg‘arma daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibini, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni moliyalashtirish tartibini, Jamg‘arma daromadlari va xarajatlari prognozini shakllantirish tartiblarini, Jamg‘armani boshqarish va faoliyatini faoliyatini tashkil etish masalalarini belgilab berdi.

Nizomga muvofiq, Jamg‘arma idoraviy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston

Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari - Moliya vaziriga, Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Jamg‘arma tizimiga quyidagi tarkibiy tuzilmalar kiradi:

- Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari;
- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspektsiyasi;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari.

Jamg‘arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspektsiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta’minoti respublika budgeti mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Jamg‘arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisobraqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, shuningdek tegishli muhr va shtamplarga ega bo‘ladi.

Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi Jamg‘armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jamg‘arma Kuzatuv kengashining majlislari yil choragida kamida bir marta o‘tkaziladi. Jamg‘armaning ijro etuvchi apparati Kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanadi.

Majlisni Kuzatuv kengashi raisi, u bo‘lmaganda esa - raisning o‘rinbosari o‘tkazadi. Kuzatuv kengashi majlisi, agar unda kengash a’zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa huquqiy vakolatli bo‘ladi (kvorumga ega bo‘ladi).

Kuzatuv kengashining qarori uning majlisda qatnashgan a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan tasdiqlanadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi apparatiga Jamg‘arma Kuzatuv kengashining taqdimnomasi bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadigan ijro etuvchi direktor boshchilik qiladi. Ijro etuvchi direktor Jamg‘armaga yuklangan vazifalarning bajarilishi va o‘z funktsiyalarining amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi.

Jamg‘arma ijro etuvchi direktorining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosari Jamg‘arma Kuzatuvchi kengashining taqdimnomasi bo‘yicha, belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadi.

Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari boshliqlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspektsiyasi boshlig‘i va uning o‘rinbosarlari, bosh tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari rahbarlari Jamg‘armaning ijro etuvchi direktori taqdimnomasi

bo'yicha Jamg'armaning Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari boshliqlarining o‘rinbosarlari, Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari Jamg‘armaning tegishli hududiy boshqarmalari boshliqlarining taqdimnomasi bo‘yicha Jamg‘armaning ijro etuvchi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Tumanlararo, tuman (shahar) va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari rahbarlari Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi boshlig‘ining taqdimnomasi bo‘yicha Jamg‘arma ijro etuvchi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi apparati, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil etadi hamda quiy boshliqlarning yuqori boshliqlarga hamda Jamg'arma Kuzatuv kengashining raisiga bo'y sunishi va hisob berishi asosida ishlaydi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan barcha qonuniy-huquqiy va me’yoriy hujjatlar davlat pensiya ta’minotini boshqarish va samarali tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlarining faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Bundan tashqari, pensiya ta’minotini tashkil etish, barcha turdagи pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblash va to‘lash, Pensiya jamg‘armasi daromadlarini prognozlashtirish va xarajatlarini amalga oshirish, pensiya ta’minoti bo‘yicha moliyaviy nazoratni tashkil etish va o‘tkazish kabi faoliyatlarni tartibga soluvchi bir qator me’yoriy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular pensiya ta’minoti borasidagi davlat siyosatining olib borilishiga monand ravishda o‘zgarib va takomillashib bormoqda.

Pensiya ta'minoti tizimi amal qilishining tashkiliy-huquqiy asoslari to'g'risida gap borar ekan, dastlab aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti uchun majburiy badallarning to'liq kelib tushishi hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lashga xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy ta'minlash uchun ijtimoiy ta'minot organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabr 459-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi va ijtimoiy ta'minot mahalliy organlari qoshida tegishli hududiy bo'linmalari va bo'limlari bo'lgan Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan edi. Pensiya jamg'armasining pul mablag'lari 1997 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga kiritildi, bunda bu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va sarflashning maqsadli yo'naltirilganligi saqlab qolindi. Pensiya jamg'armasiga rahbarlik qilish Pensiya jamg'armasining 9 kishidan iborat boshqaruvi hamda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ijro etuvchi organi - Ijro etuvchi direktsiyasi tomonidan amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vaziri Pensiya jamg'armasi boshqaruvi raisi hisoblanar edi. Pensiya ta'minoti tizimidagi ma'muriy va iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish doirasida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g“risida”gi 444-sonli Qarori bilan “pensiya ta’minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha majburiy badallar to‘liq yig‘ilishini ko‘paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to‘lashga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida” 2001 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasining budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi. Ushbu qaror bilan:

- budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga mablag‘ ajratish va badallar miqdori hamda ularni to‘lash muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi;
- budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar davlat soliqlari va yig‘imlariga tenglashtirilishi;
- budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari har yili O‘zbekiston Respublikasining yig‘ma budgeti tarkibiga kiritilishi;
- Pensiya jamg‘armasiga mablag‘ to‘plash va mablag‘ to‘liq tushishi ustidan nazorat qilish funktsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga yuklatilishi belgilab qo‘yildi.

Natijada Ijtimoiy ta’minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasining markaziy apparati (ijroiya direktsiya), hududiy bo‘linmalari, tuman (shahar) bo‘limlari 2001 yil 1 yanvardan boshlab tugatildi, tugatilgan Pensiya jamg‘armasi markaziy apparati va uning hududiy tuzilmalarining mol-mulki, asosiy va aylanma mablag‘lari vazirlik markaziy apparati va uning hududiy tuzilmalarining balansiga qabul qilindi. Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini boshqarish bo‘yicha funktsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining rahbarlari budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini boshqaruvchilar hisoblanishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari kelib tushishi va ulardan maqsadli foydalanish uchun jamoat nazorati funktsiyasi “Nuroniy” jamg‘armasi huzuridagi “Nazorat kengashi” jamoat komissiyasiga yuklatildi.

Keyinchalik, ijtimoiy ta’minot tizimida davlat kafolatlarini amalgalash oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to‘lashga yo‘naltiriladigan mablag‘larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 noyabrdagi “Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g“risida”gi Qarori bilan 2005 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi.

Quyidagilar budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish;
- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlarni budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining yagona yig'ma hisobraqamida jamlash;
- 2005 yil 1 yanvardan boshlab pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarini to'lash xarajatlarini moliyalashtirish;
- budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag'larning to'liq tushishi va o'z vaqtida sarflanishi ustidan nazoratni ta'minlash.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari O'zbekiston Respublikasining yig'ma budgeti tarkibiga kiritildi. Davlat soliq qo'mitasi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar, badallar va to'lovlarni yig'ish va ularning to'liq tushishini nazorat qilish funktsiyalarini amalga oshiradigan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarining o'z vaqtida tayinlanishi va to'lanishi, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha xarajatlarning belgilangan tartibda moliyalashtirilishi ustidan nazoratini ta'minlaydigan bo'ldi.

Pensiya jamg'armasining barcha darajalardagi hisobraqamlaridagi 2004 yil 31 dekabr holatiga ko'ra qoldiq mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobraqamiga o'tkazildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilgan ma'muriy va iqtisodiy islohotlar doirasida Pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanimishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 2009 yil 30 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va uning viloyatlar, shaharlar va tumanlarda bo'linmalari tashkil etildi. Natijada 2010 yilning 1 yanvardan boshlab pensiyalar, shuningdek ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1252-sonli Qarori bilan pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida budgetdan

tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ijtimoiy ta’minot organlarining huquqiy vorislari (fuqarolarning pensiya ta’minotini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqlar va majburiyatlar qismida) bo‘lib hisoblanishlari belgilandi.

Yuqoridagi qarorga muvofiq, Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi direktori Pensiya jamg‘armasi Kuzatuvchilar kengashining taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi, Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparati hamda uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlarining xodimlariga moliya organlari xodimlari uchun belgilangan mehnat haqi shartlari tatbiq etiladi.

Nihoyat, Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagagi 30-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi va Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjat sifatida amalga kiritildi. Ushbu nizom Jamg‘armaning asosiy vazifalari va funksiyalarini, Jamg‘arma daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibini, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni moliyalashtirish tartibini, Jamg‘arma daromadlari va xarajatlari prognozini shakllantirish tartiblarini, Jamg‘armani boshqarish va faoliyatini faoliyatini tashkil etish masalalarini belgilab berdi.

Nizomga muvofiq, Jamg‘arma idoraviy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rribosari - Moliya vaziriga, Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Jamg‘arma tizimiga quyidagi tarkibiy tuzilmalar kiradi:

- Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari.

Jamg‘arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta’minoti respublika budgeti mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Jamg‘arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisobraqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, shuningdek tegishli muhr va shtamplarga ega bo‘ladi.

1-jadval

Pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil qiluvchi asosiy hujjatlar¹⁰

№	Xujjat nomi
1	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2	O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni (1993 yil 3 sentyabr №938-XII), bir qator o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan
3	«Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonun O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyuldagagi 162-sonti Qonuni.
4	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (1994 yil 10 yanvar 6-sonli)
5	O'zbekiston Respublikasining "Budget kodeksi" T. 2013 yil 26-dekabr
6	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori (2004 yil 21 oktyabr 490-sonli)
7	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (2009 yil 30 dekabr, PF-4161-sonli)
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (2009 yil 30 dekabr, PQ-1252-sonli)
9	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (2010 yil 19 fevral, 30-sonli)
10	"O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 4.12.2014.
11	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (2011 yil 8 sentyabr, 252-sonli)
12	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2011 yil 14 ktyabr, 63-sont "Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi hamda pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to'ldirish qoidalari to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida" gi buyrug'i
13	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 21 noyabr, PF-4672-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni
14	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 24 dekabrdagi 361-

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. 1992-2016 yy. //http://www.lex.uz

	son “1941 — 1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriyalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
15	O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015 yil 30 yanvar,6-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlarni to‘lashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” gi buyrug‘i
16	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 oktyabrdagi 297-son “2015 — 2017 yillarda pensiya ta‘minotining yagona idoralalararo integratsiyashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
17	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 fevraldagagi 46-son “Chet elda ishlayotgan o‘zbekiston respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan o‘zbekiston respublikasi moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash tartibini, shuningdek ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida ”gi Qarori va boshqalar

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta‘minoti bilan bog‘liq asosiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar keltirilgan.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan barcha qonuniy-huquqiy va me‘yoriy hujjatlar davlat pensiya ta‘minotini boshqarish va samarali tashkil etish uchun mas‘ul bo‘lgan davlat organlarining faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Bundan tashqari, pensiya ta‘minotini tashkil etish, barcha turdagи pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblash va to‘lash, Pensiya jamg‘armasi daromadlarini prognozlashtirish va xarajatlarini amalga oshirish, pensiya ta‘minoti bo‘yicha moliyaviy nazoratni tashkil etish va o‘tkazish kabi faoliyatlarni tartibga soluvchi bir qator me‘yoriy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular pensiya ta‘minoti borasidagi davlat siyosatining olib borilishiga monand ravishda o‘zgarib va takomillashib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, pensiya ta‘minotining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish pirovardida aholining pensiya ta‘minoti xizmatlarining takomillashuvi, pensiyaga ajratilgan mablag‘lar maqsadli ishlatilishining ta‘minlanishi, fuqarolarning pensiya ta‘minotidan qoniqish darajasining oshishi, aholining turmush farovonligi ko‘rsatkichlarininig ko‘tarilishi bilan birga olib borilishi kerak.

3. Davlat pensiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari

Agar yuz yil oldingi tarixga nazar tashlasak, xatto sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham mehnatkashlarning kamdan-kam qismi mehnat faoliyatini to‘xtatgandan keyin ishonchli daromadga ega bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligi kambag‘allikka duchor bo‘lishdan qo‘rqib, imkonli boricha uzoqroq ishlab qolishga harakat qilgan. Nogiron bo‘lib qolish yoki boquvchisini yo‘qotish kabi hayotiy hodisalar esa ularning kambag‘allik yoki birovga qaramlikka mahkum bo‘lish

ehtimolini yanada kuchaytirgan. Shu sababli eng ommaviy va moliyaviy oqibatlariga ko‘ra eng og‘ir ijtimoiy havf-xatarining - qarilik, nogironlik, boquvchisini yo‘qotish havf-xatarining mavjudligi pensiya dasturlarining shakllanishiga olib keldi.

Natijada XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida ko‘pchilik sanoati rivojlangan mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining shakllanish jarayoni kishilik taraqqiyoti tarixiga muhim bosqich bo‘lib kirdi. Shu davrdan boshlab “qarilik – bu kambag‘allik, nochorlik” degan tushunchalar birmuncha eskirdi. Bundan tashqari, ko‘pchilik mamlakatlarda fuqarolar mehnat faoliyatini tugatgandan keyin ham normal hayot faoliyatini kechirish uchun etarlicha moddiy ta’minlanish imkonini beradigan pensiyalarga ega bo‘ldilar. Ularning moddiy ta’minot darajasi xatto ayrim ishlovchi, lekin ko‘p bolali yosh mehnatkashlardan ham ko‘ra yuqoriqoq bo‘la boshladi.

“Pensiya” so‘zining o‘zi lotincha “pension” so‘zidan olingan bo‘lib, mehnat qobiliyatini, va demak, ish haqi ko‘rinishidagi daromad manbaini yo‘qotganda, qarilikda, nogironlikda yoki boquvchisini yo‘qotganda moddiy ta’minlash uchun muntazam to‘lanishi mo‘ljallangan pullik to‘lov ma’nosini anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda, *pensiya tizimi deganda* mamlakat fuqarolarini ma’lum yoshga etganda, nogironlikda, boquvchisini yo‘qotganda moddiy jihatdan ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy, moliyaviy, tashkiliy munosabatlar, shuningdek, maxsus ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalar yig‘indisi tushuniladi.

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondoshuv asos bo‘lib xizmat qilgan: birinchi yondoshuvga ko‘ra, pensiya tizimiga tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlansa, ikkinchi yondoshuv bo‘yicha pensiya - ish haqining zaxiralanuvchi qismi bo‘lib, sug‘urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta’minotga ega bo‘lishni kafolatlaydi.

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondoshuv asos bo‘lib xizmat qilgan: birinchi yondoshuvga ko‘ra, pensiya tizimiga tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlansa, ikkinchi yondoshuv bo‘yicha pensiya - ish haqining zaxiralanuvchi qismi bo‘lib, sug‘urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta’minotga ega bo‘lishni kafolatlaydi.

Pnsiya ta’minotining rivojlanishi jarayonida har ikkala maqsad uyg‘unlashib ketdi, universal pensiya tizimlari sug‘urtaviy tizimlar bilan to‘ldirildi, sug‘urtaviy tizimlar esa minimal kafolatlarni o‘z ichiga ola boshladi. Shunday qilib, pensiyalarning ikkiyoqlama tabiatini nafaqat umumqabul qilindi, balki deyarli barcha rivojlangan pensiya tizimlarining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Pensiyalarning ikkiyoqlama xarakteri shunda namoyon bo‘ladiki, birinchidan, pensiya kambag‘allikdan himoyalab, pensiya daromadining minimal darajasini kafolatlasa, ikkinchi tomondan, ma’lum belgilangan sug‘urta holatlari yuzaga kelganda ish haqining o‘rnini bosadi, ya’ni yo‘qotilgan daromadni yoki uning ko‘p qismini kompensatsiyalaydi.

Aksariyat pensiya tizimlarining asosini, ularning institutsional tuzilishi yoki qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlaridan qat'iy nazar, ijtimoiy pensiya sug'urtasi tamoyillariga qurilgan pensiya dasturlari tashkil qiladi.

O'zining ijtimoiy mazmun-mohiyatiga ko'ra, *pensiya sug'urtasi* mehnatkashlar tomonidan yakka va jamoaviy tarzda o'z joriy daromadlarining bir qismini boshqarish va nazoratning sug'urtaviy va davlat mexanizmlari (qonuniy, tashkiliy va moliyaviy) yordamida zaxiralashdan iborat.

Kelgusidagi sug'urtaviy pensiyaning miqdori qator omillarga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash lozim, bular:

- sug'urta stajining davomiyligi;
- sug'urtalanadigan ish haqining miqdori;
- sug'urta tarifining katta-kichikligi;
- kelgusidagi to'lovlar davrining davomiyligi.

Shuning uchun pensiya sug'urtasining moliyaviy mexanizmini ishlab chiqishda shunday hisob-kitoblar tizimi qo'llaniladiki, ular sug'urtalangan va pensiyaga chiqayotgan fuqaro guruhlari oldida yuzaga kelgan majburiyatlarni kelgusidagi to'lovlar davri mobaynida muntazam ravishda bajarish (pensiyalarni to'lab borish) uchun etarli bo'lishini ta'minlashi kerak. Bu vazifani bajarish ancha qiyin ekanligini e'tirof etish lozim, chunki u oldindan aniqlash qiyin bo'lgan qator omillarga bog'liq: sug'urta badallarini to'lab borish (30-50 yil) va pensiya olish (20-30 yil) davrlarining davomiyligi, bu davrda mehnat haqi va inflyatsiya darajasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi, pensionerlar va ishlovchilarining ham absolyut miqdori, ham bir-biriga nisbatlari sezilarli o'zgarishi mumkin.

Pensiya to'lovlarini taqdim etish shartlari va me'yorlarining, mamlakatdagi demografik va iqtisodiy ahvolning pensiya tizimlarining moliyaviy holatiga ta'sirini o'lchash va baholash maqsadida bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi, ular o'z navbatida pensiya tizimi moliyaviy mexanizmlarini tushunish va tizimning kelgusidagi daromad va xarajatlarini baholashga yordam beradi.

Qamrov koeffitsienti (K1) sug'urtalangan aholi ulushini hamda sug'urtaga tortilgan mehnat haqi daromadlari darajasini ko'rsatadigan ko'rsatkich bo'lib, pensiya tizimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoyaning samaradorligini belgilash imkonini beradi. Bu ko'rsatkichni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$K1 = \frac{\text{sug'urtalanganaholi soni}}{\text{ish bilan band aholi soni}} \quad \text{yoki} \quad K1 = \frac{\text{sug'urtalangandaromadlar}}{\text{aholining barcha daromadlari}} \quad (1.1)$$

Formuladan ko'rinish turganidek, sug'urta bilan qamrab olingan aholi soni (yoki aholi daromadlari) qancha ko'p bo'lsa, K1 koeffitsient 1 ga shuncha yaqin bo'ladi va pensiya tizimining ijtimoiy himoya qilish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Bosim koeffitsienti (K2) pensiya va nafaqalar oluvchilar sonining sug'urtalangan (real sektorda ishlovchi) aholining umumiyligi sonidagi ulushi kabi aniqlanadi. Uning sondagi ifodasi pensiya yoki nafaqalarni olish huquqini beruvchi

shartlarga, shuningdek, mehnat staji hamda aholining yosh tarkibiga (yoshga doir pensiyalar bo'yicha) bog'liq bo'ladi:

$$K2 = \frac{\text{sug'urtalanganaholi soni}}{\text{pensiya va nafaqa oluvchilar soni}} \quad (1.2)$$

Masalan, O'zbekistonda bosim koeffitsienti quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi: 1992 yilda 1 pensionerga - 3,7 ishlovchi, 2001 yilda - 3,4 ishlovchi to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 3,9 ni tashkil qilmokda¹¹. Pensionerlar ulushining ko'payishi bilan pensiya jamg'armalariga mablag' to'lab boradigan mehnatga qobiliyatli aholi salmog'i qisqaradi, buning natijasida esa pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiyalar to'lash xarajatlarining benihoya og'ir yuki tushadi.

Pensyaning absolyut miqdori – pensyaning pul birligida ifodalangan miqdori bo'lib, odatda bu miqdor pensiya oluvchining yashash minimumi bilan solishtiriladi va pensionerning moddiy ahvolini belgilab beradi. Bu ko'rsatkich pensyaning xarid qobiliyatini ko'rsatadi hamda pensionerning muhtojlik darajasini belgilab beradi, uning miqdoriga qarab mahalliy va markaziy boshqaruv darajasida pensionerlarga yordam berish uchun zarur resurslar hajmi aniqlanadi, yordamning miqdori va ko'lamlari belgilanadi. Qoplash koeffitsienti – individual sug'urta to'lovlari o'rtacha darajasining o'rtacha mehnat haqi darajasiga nisbatini ifodalaydi.

2- jadval Pensiya tizimlarini tavsiflovchi mezonlar tarkibi¹²

Tartibga solish sohasi	Mezonlar turlari
Pensiyalarni tayinlash va to'lash shartlari	<ul style="list-style-type: none"> - pensiya yoshi, sh.j. ayollar va erkaklar uchun. - sug'urta stoji, sh.j. ayollar va erkaklar uchun. - ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'lash tartibi - muddatidan oldin pensiyaga chiqish tartibi
Pensiya miqdorini hisoblash tartibi	<ul style="list-style-type: none"> - pensiya ta'minotining kafolatlangan me'yorlari (pensiyalarning eng kam miqdori, sh.j. sug'urtaviy va ijtimoiy pensiyalar bo'yicha) - o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha ish haqi miqdoriga nisbati - ish haqi miqdorini hozirgi kun darajasiga renlashtirish tartiblari - pensiyani hisoblash va sug'urta badallarini undirishda qabul qilinadigan ish haqining yuqori darjası
Moliyaviy jihatdan	<ul style="list-style-type: none"> - asosiy ijtimoiy subyektlarning (ish beruvchilar, ishlovchilar, davlat) pensiya tizimini moliyaviy jihatdan

¹¹ "Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – T.:Universitet. 2014.

¹² Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. М.: Дашков и К*. 2009. 32-betdan tarjima.

ta'minlanishi	<p>ta'minlash bo'yicha majburiyatlar</p> <ul style="list-style-type: none"> - ijtimoiy pensiyalarga xarajatlar miqyosi - taqsimlanadigan, jamg'arib boriladigan va aralash pensiya tizimlarida moliyaviy ta'minot manbalarining tarkibi va tuzilishi - o'rta va uzoq istiqbolda pensiya tizimi xarajatlarining YaIMdagi ulushi
Pensiya tizimlarini shakllantirish uchun sharoitlar va uning qiymati	<ul style="list-style-type: none"> - mamlakatning iqtisodiy va demografik rivojlanish istiqbollariga bog'liq ravishda pensiya tizimlarini shakllantirish bosqichlari - pensiya sug'urtasi to'lovchilar bilan pensionerlar sonining nisbati - moliyaviy institutlarni yaratish bosqichlari - sug'urta rezervlarini shakllantirish darajasi
Boshqaruv organlari	<ul style="list-style-type: none"> - boshqaruv organlarining tuzilishi - ijroiya organlarining tarkibi - nazorat qiluvchi organlarning tarkibi va vakolatlari

Bu ko'rsatkichning iqtisodiy ma'nosi shundaki, pensiya miqdori xodimning oldin olib yurgan ish haqisining qancha qismini qoplay olish darajasini ifodalaydi.


Har bir mamlakatda u yoki bu *pensiya modeli* asosida milliy pensiya tizimlari shakllangan bo'ladi. *Pensiya tizimining modeli* uning moliyaviy jihatdan tashkil etilishini hamda mamlakat fuqarolarini qarilikda moddiy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Turli pensiya tizimlarini tahlil qilish ularning elementlari va xususiyatlarini muhim belgilariga ko'ra guruhash imkonini beradi (2 - jadval). Turli pensiya tizimlari ana shu belgilariga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Umuman olganda, mamlakatda aholining pensiya ta'minoti darajasi ustuvor ravishda ikkita omilga bog'liq: ijtimoiy himoya tizimining qay darajada rivojlanganligi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi. Har ikkala omil, shuningdek, pensiya ta'minoti darajasi mamlakatdagi tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

Pensiya tizimlarini tashkil etishning *asosiy tamoyillari* quyidagilardan iborat:

- aholini maksimal darajada pensiya tizimiga qamrab olish;



4-rasm. Pensiya tizimlarining mazmuni va tashkil etishning asosiy tamoyillari¹³

- pensiya yukini (og'irligini) pensiya tizimi subyektlari – ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash;
- barcha sug'urtalanuvchilarni qarilikda yoki nogironlikda o'z xohishi bilan yoki majburan pensiyaga chiqishi natijasida yo'qtayotgan daromadining katta qismini qoplash orqali mablag' bilan ta'minlash;
- talab qilingan etarli mehnat stajiga ega bo'lмаган fuqaro toifalarini, shuningdek boquvchisini yo'qtgan fuqarolarni kambag'allikdan ijtimoiy himoya qilish;
- inflyatsiya, ish haqlarining oshishi va hayot sifatining ko'tarilishi kabi omillarni hisobga olgan holda pensiyalarini indeksatsiya qilish.

Yuqoridagi tamoyillarning bajarilishi uchun pensiya tizimlari iqtisodiy maqbullikni, individual adolatni va ijtimoiy samarani ta'minlashi kerak.

Iqtisodiy maqbullik va samaradorlik sug'urta yukini sug'urta badallarini (yoki yagona ijtimoiy to'lovni) to'lovchilar bilan pensiya oluvchilar o'rtasida oqilona va adolatli taqsimlashni nazarda tutadi.

¹³ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzildi.

Individual adolat pensiya sug‘urtasi bilan sug‘urtalangan shaxsning pensiya tizimini moliyalashtirishda ishtirok etish ko‘lamlari bilan uning pensiya olishga bo‘lgan huquqlarining ekvivalentligi yoki aniq bog‘liq bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Ijtimoiy samaraga erishish uchun pensiya tizimi nafaqat undagi ishtirokchiga minimal kafolatlarni ta’minlab berishi (minimal pensiyalar), balki barcha pensionerlarga munosib yashash darajasini ta’minlashi zarur.

Ko‘pchilik pensiya tizimlaridagi islohotlar aynan iqtisodiy samaradorlikka erishishga qaratilmoqda va bundan ko‘p hollarda ijtimoiy samaraga putur etmoqda. Iqtisodiy samaradorlik sug‘urta to‘lovlarini to‘lovchi faol aholi bilan pensiya oluvchi aholi o‘rtasida shunday qayta taqsimlashni nazarda tutadiki, mablag‘larning bunday qayta taqsimoti ishlovchi aholiga og‘ir yuk bo‘lib yotmasin, shu bilan birga, pensiya to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan joriy va kelgusidagi majburiyatlarni bajarish uchun etarli mablag‘larni ta’minlay olsin. Boshqacha aytganda, pensiyalar bo‘yicha sug‘urta tarifining miqdori yoki ijtimoiy soliq bo‘yicha soliqqa tortish stavkasi pensiya tizimi moliyaviy majburiyatlarini qoplash uchun etarli darajada belgilanishi, ammo iqtisodiy o‘sishga va mehnat unumdorligining oshishiga halaqit beradigan hamda milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini pasaytiradigan darajada yuqori bo‘lmasligi zarur.

Pensiya ta’minoti milliy g‘oyani aks ettiradi hamda milliy iqtisodiy siyosat markazida turadi. Oxirgi o‘n yilliklar mobaynida ko‘p mamlakatlar o‘zlarining amaldagi pensiya tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan isloh qilish zarurati bilan to‘qnash kelmoqdalar.

Hozirgi paytda dunyoda pensiya tizimi tarixi XVIII-XIX asrlardan, davlat xizmatchilarining alohida kamsonli guruhalining davlat pensiya ta’minotidan, mamlakatning barcha fuqarolarini qamrab oluvchi pensiya mexanizmiga o‘tish davridan boshlab o‘rganiladi. Bunda ayniqsa Yevropa mamlakatlari – Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniyalar ilg‘or sanaladi. Birinchi pensiya ta’minoti Fransyaning harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673-yilda joriy etilgan. Buyuk fransuz revolyutsiyasi davrida, 1790-yilda davlat xizmatchilari bo‘lgan, 30 yillik stajga ega bo‘lib, 50 yoshdan oshgan fuqarolarning pensiyalari to‘g‘risida qonun qabul qilingan. Ilk keng ko‘lamli pensiya tizimi kansler Otto Fon Bismark islohotlari tufayli paydo bo‘lgan U sekin asta amaliyotga tadbiq etilib, avvaliga bemorlar va nogironlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni (1884 y), keyinchalik esa umumiy pensiya ta’minotini ko‘zda tutgan. Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSH)da esa bunday tizim ancha kechroq, ya’ni 1935-yilda Ruzvelt tomonidan “Ijtimoiy himoya akti” imzolanganidan keyin, Buyuk Britaniyada 1908-yilda, Fransiyada esa 1910-yilda tashkil etilgan.¹⁴

Birinchi, xususiy sektorda band bo‘lganlarni davlat tomonidan yoshga doir pensiya bilan ta’minlash tizimi 1889-yilda Germaniyada tashkil etilgan. Bu ishga Germaniyaliklar ijtimoiy sug‘urtalashni majburiy badallarga asoslagan holda yondoshganlar. Ish beruvchilar va ishchilar uni moliyalashirish uchun mablag‘lar ajratishi ya’ni badallar to‘lashi lozim bo‘lgan. Germaniyada amalga kiritilgan tizim faoliyati, gildiyalar va ishchilar birlashmalari tashkil etgan ixtiyoriy o‘zaro yordam

¹⁴ Федотов А.И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах. 2007 г.

fondlarining amaliyotiga tayangan edi. Yangi tizimdagi pensiya huquqi avval to‘langan badallarga asoslangan. 1891-yilda Daniya va 1898-yilda Yangi Zelandiya muhtoj aholi qatlamiga maqsadli yordam berishga yo‘naltirilgan pensiya tizimini amalga kiritdi. Bu tizim umumiy soliq daromadlari hisobiga moliyalashtirilib, ehtiyojlarni aniqlashni mo‘ljallangan va to‘lovlarning qat’iy miqdorini kafolatlagan. Bu tizimlar ko‘proq muhtoj aholi qatlamiga oid an’anaviy qonunchilikdan kelib chiqqan. Keyingi yillarda ko‘pchilik g‘arbiy Yevropa mamlakatlari german modeli bo‘yicha pensiya sug‘urtasi tizimini shakllantirdi, anglisakson mamlakatlar (AQSHdan tashqari) va shimoliy Yevropa davlatlari esa ko‘proq Daniya va Yangi Zenlandiya yo‘lini tanladi. Bu tizimlar turli masalalarini hal qilgan. Germaniya modeli ishlovchilarning pensiyaga chiqqanidan so‘ng mavjud ijtimoiy holatini saqlashga moslashtirilgan. Daniya modeli esa (Angliyada tadbiq etilgan) – muhtojlikni cheklashga qaratilgan.

XX asrda jahon davlatlari pensiya tizimlarining asta sekin yaqinlashuvi ro‘y beradi. Sug‘urta badallariga asoslangan tizimlarda avvalgi to‘lovlardan qat’iy nazar, minimal pensiya kafolatlandi. Budget daromadidan moliyalashtiriladigan, barchaga teng bo‘lgan pensiya miqdoriga asoslangan mamlakatlarda ehtiyojlarni aniqlash nazorati bekor qilindi. Buyuk Britaniyada qat’iy minimal pensiyalarga qo‘shimcha ravishda majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimi kiritildi.

1920-yillarda AQSHda shtatlar hukumati muhtojlilik belgilariga asoslangan pensiya tizimlarini qo‘llashni boshlashdi. 1934-yilga kelib bu tizim 28ta shtatda mavjud edi. 1935-yilda AQSHda pensiya sug‘urtasining federal tizimi joriy etildi.¹⁵ Unga ko‘ra Federal pensiya fondi Social Security tashkil etildi.

Shu yili Xalqaro Mehnat tashkiloti migrantlarning huquqlarini mustahkamlash maqsadida, qarilik, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalariga oid qonunlarning koordinatsion, ya’ni, o‘zaro muvofiqlashtirilgan tizimini yaratish tashabbusi bilan chiqadi.

Pensiya dasturlarining o‘ziga xos belgilaridan biri – ularning vujudga kelishi bosqichida siyosiy ommabopligi edi. Bu tushunarli: pensiyaga chiquvchi ishchilar o‘tgan mehnat staji davomida, ularning pensiya to‘lovlari ta’minlovchi badallarni to‘liq miqdorda to‘lashmagan. ularning pensiya to‘lovlari og‘irligi kelgusi ishchilar avlodi zimmasiga tushgan. Biroq qariyalar ulushi kam bo‘lgan yosh industrial jamiyat uchun bu jiddiy muammoga sabab bo‘lmasligi.

Ikkinci jahon urushi boshlanishi arafasida deyarli barcha industrial davlatlar o‘z pensiya ta’moti tizimiga ega bo‘lsada, ularning ko‘pchiligidagi pensiya tizimi va pensiya to‘lovlari bilan ta’milangan aholi ulushi chegaralangan edi. Ikkinci jahon urushidan keyingi o‘n yillik, ko‘plab rivojlangan davlatlarda qoplanish darajasining oshishi va pensiya to‘lovlaring ommalashuvi davri bo‘ldi. Shuningdek bu davrda pensiya ta’motiga oid qonunchilik bazasi takomillashib bordi. 1962-yilda Xalqaro Mehnat tashkiloti tomonidan №118-sonli “Mamlakat fuqarosi, chet elliklar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning teng huquqliligi to‘g‘risida”gi Konvensiya qabul qilindi. Unda ijtimoiy ta’mot sohasidagi teng huquqlilik tamoyili o‘rnatildi. Bu konvensiyani ratifikatsiya qilgan Xalqaro

¹⁵ Сорокина Е.Г.. Зарубежный опыт моделирования пенсионной системы. М. 2009 г.

Mehnat tashkiloti a'zolari o'z hududlarida Xalqaro Mehnat tashkilotiga a'zo boshqa davlat fuqarolarini, shuningdek qochoq va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni 1952-yilda №102-sonli konvensiya bilan kafolatlangan ijtimoiy ta'minlanish huquqlarini, o'z fuqarolari bilan bir qatorda ta'minlash majburiyatini olganlar. 1965-yilda №48-sonli konvensiya qabul qilindi. Unga ko'ra aniq bir shaxsning mehnat faoliyati bir necha mamlakatlarda amalga oshirilgan bo'lsa, bu holda har uch turdag'i pensiyadan birini olayotganda aniqlanadigan mehnat stoji davrlari yig'indisi qanday hisoblanishi masalalarini tartibga solish imkoniyati vujudga keldi. Bu masalalar yanada batafsil qilib 1982-yilda imzolangan №157-sonli konvensiyada ishlab chiqilgan.

Jahon tajribasini tahlil qilsak, XIX–XX asrlarda turli pensiya ta'minoti modellari aks etgan ikkita bazaviy nazariy-uslubiy yondoshuvlar shakllangan.¹⁶

Birinchisi, davlat pensiya tizimi ishtirokchilarining daromadini minimal darajada ta'minlashni kafolatlash zaruratiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi, sug'urtalangan ishchining daromadini, uning ish haqining ma'lum bir qismini rezervlab qo'yish xisobiga, pensiyadan oldingi daromadi bilan solishtirib, o'sha darajada saqlab qolishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Ular turli yillarda shakllangan O.Bismark va U.Beveridj tamoyillari asosida qurilgan.

Bismark modeli, "avlodlar birdamligi" tamoyili asosida qurilgan bo'lib, birinchi marta 1889-yilda Germaniyada joriy qilingan. Uning negizi – taqsimlovchi mexanizmga asoslangan: ishlovchi fuqoro (bo'lajak pensioner)lardan kelib tushuvchi barcha joriy to'lovlar ya'ni badallar, "bugungi" pensionerlarning pensiya ta'minoti to'lovlar uchun sarflanadi.

Bismark konsepsiysi ko'plab dunyo mamlakatlari tomonidan amaliyotda qo'llab quvatlangan. Unga ko'ra pensiya badallari ko'rinishida fondga to'lanuvchi pul mablag'lari, fond mulki sifatida, tasdiqlangan "Fond mulkini joylashtirish yo'nalishlari normativlari"ga muvofiq investitsion loyihalarga joylashtiriladi. Investitsiyasdan kelgan foyda, fondning pensiya ko'rinishidagi to'lovlarini to'lash manbasi bo'lib hisoblanadi. Bu model haligacha ko'plab davlatlarda amal qiladi (1.2-rasm). Bismark modeli doirasida qo'shimcha pensiya ta'minoti rejimlari mavjud bo'lib, ular jamg'arish tamoyillariga asoslangan, biroq ular unchalik ham rivojlanmagan. Pensiya yig'indisi o'rtacha ish haqining 70 foizini tashkil qiladi.

Bismark modeli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Maqsadi – majburiy pensiya sug'urtasi yordamida ishlovchining hayot darajasi va sifatini saqlash (qoplash koeffitsienti 60-70%);
- Tizimni moliylashtirishda ishlovchi ishtirokining yuqori darajadaligi;
- Ixtiyoriy pensiya rejalarining mavjudligi (qoplash koeffitsienti 10-20%);
- Umumiy qoplash koeffitsienti 90%;
- YaIM dagi ish haqi hajmi 45-50% atrofida;
- Majburiy pensiya sug'urtasiga rezervlanadigan mablag'lar ulushining yuqoriligi (YaIM 10-15 foiz);
- Qo'shimcha (nodavlat) korporativ pensiya sug'urtasi (YaIM 2-3 foiz).
- Pensiya tizimida davlatning roli minimallashtirilgan.

¹⁶ Аранжереев ММ., Орлова Ю. "Негосударственные пенсионные фонды". – М.:2012.

Beveridj modeli davlat tomonidan barcha aholi uchun oldindan belgilangan va minimal pensiya bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu tizim doirasida davlatlar orasidagi farq asosan minimal pensiya miqdori summasida bo'lishi mumkin. Tizimni moliyalashtirish manbasi maxsus "ijtimoiy" soliq hisoblanadi. Biroq, bazaviy pensiya miqdori mehnat faoliyati davri mobaynida erishilgan hayot darajasiga umuman mos kelmasligi sababli, qo'shimcha pensiya ta'minoti turlari keng tarqalgan. Beveridj "Qo'shimcha pensiya dasturlari doimo jamg'arish tamoyili asosida quriladi, biroq barcha mamlakatlar uchun yagona "xususiy pensiya fondlari" modeli mavjud emas" deb hisoblagan.

Beveridj modeli 1942-yilda Angliyada ijtimoiy himoya tizimi ko'rinishida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniya pensiya tizimi davlat sug'urtasi, professional (korporativ) va shaxsiy pensiyalarini o'z ichiga oladi. Davlat sug'urtasi ish beruvchilar (5-10,45 foiz ish haqi fondidan) va ishchilar (5-9 foiz oylik ish haqidan) badallari hisobiga shakllanuvchi minimal bazaviy pensiyani kafolatlaydi. Bu badallar davlatning joriy pensiya majburiyatlarini bajarish uchun ishlatiladi. Professional va shaxsiy pensiyalar majburiy emas. Ular jamg'arish tamoyiliga asoslangan, qo'shimcha pensiya ta'minoti dasturlari hisobiga shakllanadi. Professional pensiyalar ish beruvchilar tomonidan tayinlanadi, tashkilotlar pullarni pensiya fondlariga o'tqazishadi, yig'ilgan pullar qo'shimcha pensiya sifatida to'lanadi. Shaxsiy pensiyalar ishchilar tomonidan sug'urta kompaniyalari yordamida shakllantiriladi. Beveridj modeli amal qiluvchi davlatlarda o'rtacha pensiya miqdori o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 50 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari o'rta sinf vakillarining "pensiya yoshida" shaxsiy jamg'armalari yetarlicha yuqoridir.

Beveridj modeli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Barcha pensiya yoshidagi aholini qamrab olib, bir xil pensiya miqdoridagi ta'minoti kafolatlaydi;
- Kafolatlangan qoplash miqdori ish haqidan 18-20%;
- Qo'shimcha korporativ pensiya sug'urtasining kafolatlangan qoplash miqdori 35-45%;
- Umumiy qoplash koeffitsienti 50-60%;
- Ish haqining YaIM dagi yuqori hajmi (60-65% atrofida);
- Majburiy pensiya sug'urtasiga rezervlanadigan mablag'lar qismining o'rtachaligi (ish haqi miqdoridan qariyb 12-14%, yoki YaIMdan 6-7%);
- Qo'shimcha (nodavlat) korporativ pensiya sug'urtasi (YaIM 3-4%).
- Pensiya tizimida davlatning roli maksimallashtirilgan.

Quyidagi davlatlar pensiya tizimida Beveridj modeli ishlatiladi:

Davlat pensiyalari 3 guruhdan iborat: Mehnat pensiyasi, ijtimoiy pensiya va nafaqalar, davlat xizmatchilari uchun pensiyalar.

Davlat pensiya ta'minoti mamlakatning har bir fuqarosini yoki alohida guruhlari (masalan, davlat xizmatchilari)ni qamrab oladi. Davlat pensiya ta'minoti fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat huquqlarini ro'yobga chiqarishni ko'zda tutadi. Barcha ijtimoiy sug'urta dasturlari kabi, qariganda pensiya bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya va stimullarga ta'sir ortasidagi balansni

topishni taqazo etadi. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar qariyalar guruhini muhtojlikdan va yashash darajasining keskin pasayishidan himoya qiladi.

Har qanday mamlakatning pensiya ta‘minoti tizimi o‘ziga xos tashkiliy, moliyaviy va boshqa qator xususiyatlarga ega. Deyarli barcha mamlakatlar pensiya ta‘minotini “uch pog‘onali” tizim orqali amalga oshirishadi.

Mehnat pensiyasi - pensionerning ish stajidan va o‘rtacha oylik ish haqidan, shuningdek to‘lagan sug‘urta badallari miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi va tayinlanadi. Mehnat pensiyasini olish huquqi fuqaro ma’lum bir yoshga to‘lganida paydo bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich turli davlatlarda turlicha bo‘lib, ko‘pchilik xorijiy davlatlarda Xalqaro Mehnat Tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra u ayollar va erkaklar uchun 65 yosh qilib belgilangan. Bizda bu ko‘rsatkich ayollarda 55 yosh, erkaklarda 60 yoshni tashkil qiladi.

Ijtimoiy pensiya va nafaqalar esa ish stajiga bog‘liq bo‘lmay, aholining ijtimoiy muhtoj qatlami uchun tayinlanadi va to‘lanadi. Ijtimoiy pensiyalar turli davlatlarda turli shartlarda tayinlanadi. Masalan, AQSHda ijtimoiy pensiya kam ta‘minlangan fuqarolar uchun minimal pensiya miqdorida to‘lanadi, agarda u fuqaro boshqa daromad manbaiga ega bo‘lsa, ijtimoiy pensiya miqdori kamaytiriladi.

Davlat xizmatchilari uchun pensiyalar esa harbiy xizmatchilar, mansabdar shaxslar uchun tayinlanadi. Bu pensiya to‘lovlari bevosita davlat budgeti hisobidan amalga oshiriladi. Masalan yaqin yillargacha Xitoy Xalq Respublikasida davlat pensiyasi faqatgina davlat xizmatchilari, amaldorlar uchun berilar edi.

Davlat pensiya ta‘minoti tizimi ijtimoiy soliqlar va to‘lovlar hisobiga moliyalashtirilib, unda ishtirok etish barcha ishlovchilar va ish beruvchilar uchun majburiy hisoblanadi. Demak, davlat pensiya tizimining asosiy moliyaviy manbai ijtimoiy sug‘urta tizimiga kiritiladigan to‘lovlar hisoblanadi. U umumiy oylik ish haqining hajmiga bog‘liq bo‘lib, turli mamlakatlarda turlicha ko‘rsatkichga (Kanadada 5 foiz, Italiyada 30 foizgacha) ega. Ayrim mamlakatlar (AQSH, Kanada, Yaponiya)da to‘lovlar ish beruvchi va ishchilar tomonidan teng miqdorda to‘lanadi, boshqa mamlakatlar (Ispaniya, Italiya)da esa ish beruvchi zimmasiga yuk ko‘proq tushadi. Ijtimoiy to‘lovlar yoki soliqlar stavkalari har bir davlatning qonunchiligi bilan belgilab qo‘yiladi (3-jadval).

3 – jadval
Xorijiy davlatlar pensiya tizimini moliyalashtirish manbalari¹⁷

Davlat	Ishlovchilardan ushlanmalar (oylik ish haqidan, %)	Ish beruvchilardan ushlanmalar (oylik ish haqi fondidan, %)
Shvetsiya	1	19,03
Belgiya	7,5	8,86
Fransiya	6,6	8,2
Gretsiya	6,67	13,33

¹⁷ Internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Norvegiya	7,8	14,2
Italiya	8,7	21,3
Buyuk Britaniya	5-9	5-10,45
Yaponiya	8,25	8,25
Irlandiya	7,75	12,25
Turkiya	9	11
Ispaniya	4,7	23,6
Rossiya	1	29
O‘zbekiston	7	24,8

Davlat pensiya ta’minoti odatda solidar (taqsimlovchi) tizimga asoslanadi. Solidar tizimda pensioner o‘z pullarini emas, balki ayni paytda soliq va badallar to‘lovchilari bo‘lmish ishlovchilarining pullarini oladilar. Shu tariqa, taqsimlovchi tizim o‘zida avlodlar birdamligini ifodalaydi.

“Avlodlar birdamligi” ijtimoiy tamoyil bo‘lib, u majburiy tartibda amalga oshirilganda va davlat darajasida hamda demografik holat ijobiy bo‘lgandagina to‘laqonli ishlashi mumkin.

Bu tizimning mohiyati shundaki, pensiya fondiga kelib tushuvchi pensiya sug‘urtasi badallari ko‘rinishidagi mablag‘lar, pensiya fondlari hisob raqamida deyarli ushlanib qolmay, oylik pensiya to‘lovleri ko‘rinishida pensionerlar ixtiyoriga o‘tadi. Shu tariqa pensiya to‘lovleri o‘rnatilgan miqdorlarda ta’minlanishi kafolatlanadi.

Xorijiy davlatlar davlat pensiya ta’minotini fuqarolarning pensiyaga chiqqanida ega bo‘ladigan daromadiga ko‘ra uchga bo‘lish mumkin:

1. Yuqori darajadagi qoplash, qoplanish darajasi 50% dan yuqori;
2. O‘rta darajada qoplash, qoplanish darajasi 50%;
3. Past darajada qoplash, qoplanish darajasi 50% dan past.

Qoplanish koeffitsienti – o‘rtacha pensiya miqdorining o‘rtacha oylik ish haqi nisbatiga teng bo‘lib, Xalqaro Mehnat Tashkiloti standartlariga ko‘ra qoplanish koeffitsienti darajasi fuqaroning mehnatga layoqatli davridagi oylik ish haqi (daromadi)ning 40 foizidan kam bo‘lmasligi kerak¹⁸.

Shaxsiy pensiya hisob raqamda jamg‘ariluvchi pensiyalarni fuqaro pensiya yoshiga yetgandagi olishi mumkin bo‘ladi. Shaxsiy pensiya hisob raqamga o‘tkazib turiluvchi sug‘urta badallari oylik yoki yillik summasi ko‘p mamlakatlarda chegaralangandir. Odatda shaxsiy pensiya hisob raqami tijorat va omonat banklarida, sug‘urta tashkilotlarida ochiladi.

Jamg‘ariluvchi tizim asosida, pul fondlarini tashkil qilish sxemasi yotadi. Unda barcha moliyaviy mablag‘lar jamlanadi va uning ma’lum qismigina joriy pensiya to‘lovleri xarajatlarini qoplashga sarflanadi. Qolgan, rezerv qismi esa daromad olish manbasi sifatida investitsiyalarga yo‘naltiriladi.

¹⁸ “Ijtimoiy ta’minotning minimal normalari to‘g‘risida”gi №102 Konvensiya. XMT 1952-yil.

Rezerv qism fond faoliyatining birinchi bosqichida, ishlovchi ishtirokchilar badallari umumiyligi summasi pensiya to‘lovlar uchun zarur summadan ko‘proq bo‘lishi hisobiga shakllanadi. Fondning rivojlanishi va faoliyati darajasiga ko‘ra ishlovchilarning sug‘urta badallari joriy pensiya xarajatlaridan kamayadi, tafovut esa investitsion foyda hisobiga qoplanib boriladi.

Xorijiy davlatlarda jamg‘arib borish usuli asosan nodavlat pensiya fondlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT)ga tegishli fondlar orasida keng tarqalgan. Lekin, ayrim xorijiy mamlakatlaridagi davlat pensiya tizimi yuqoridagi ikki tizimni ham, ya’ni, qayta taqsimlash (solidar) tamoyiliga tayangan davlat pensiya ta’mnoti tizimini (u asosiy tizim hisoblanadi) hamda jamg‘arma mexanizmiga tayanadigan fuqarolarning shaxsiy pensiya tizimini (qo’shimcha, to‘ldiruvchi tizim) o‘z ichiga oladi. Masalan, AQSH, Shvetsiya va O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi davlat pensiya tizimida ham qo’llaniladi.

Biroq dunyodagi har xil mamlakatlar tarixiy an’analar, joriy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy imkoniyatlar va bir qator boshqa omillarga ko‘ra ushbu ikki tizimning har xil qorishmasidan foydalanadi. Butkul o‘xhash ikki pensiya tizimiga ega davlatni topish qiyin.

Xorijiy davlatlarda davlat pensiyasidan tashqari xususiy pensiya sug‘urtasi tizimi ham joriy qilingan bo‘lib, u korporativ (professional) yoki individual jamg‘arma asosida qurilishi mumkin. Xususiy (nodavlat) pensiya ta’mnoti tizimi biror bir sohaga oid kishilar majmuini qamrab oladi. Odatta bu rolda kasaba uyushmalari birlashgan yirik korxonalar, kompaniyalar va korporatsiyalarning mehnat jamoalari ishtirok etadi.

Ko‘plab davlatlarning pensiya ta’mnoti tizimida, xususiy pensiya tizimi salmoqli o‘rinni egallaydi. Korporativ pensiya tizimlari davlat va individual sxemalaridan farqli o‘larоq ish beruvchilar tomonidan moliyalashtirilib, firmaning ixtiyoriy ajratmalari yoki jamoa shartnomalaridagi mavjud shartlarga tayanadi. Korporativ pensiya tizimlari davlatning minimal aralashuvi ostida va nisbatan kam ma’muriy xarajatlarga ega bo‘ladi. Biroq ayrim davlatlarda fuqarolarning huquqlarini himoyalash maqsadida xususiy pensiya tizimlarini nazorat qilish va tartibga solishga oid qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Masalan, fuqarolarning pensiya ta’mnotida korporativ pensiya tizimlari salmog‘i juda yuqori bo‘lgan AQSHda, bu tizim uchun “o‘yin qoidalari” davlat tomonidan o‘rnatilgan va nazorat qilinadi. Shu sababli ham korporativ pensiya tizimi AQSHda ikkinchi milliy pensiya tizimi darajasigacha ko‘tarilgan. Buyuk Britaniyada esa xususiy pensiya tizimlarini rolini oshirish maqsadida uning ishtirokchilari uchun bir qator imtiyozlar yaratilgan. Masalan, korporativ pensiya to‘lovlaridan soliqlar ushlanmaydi.

Korporativ pensiya tizimda ishchiga kelajakda to‘laniladigan pensiya uning staji va oylik ish haqisining hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Ishchi stajining davomiyligini korxona belgilaydi. Masalan, Germaniyaning Airbus, Mercedes, Siemens kabi yirik korxonalarini hodimlari, ushbu korxonalarda minimum 10-yil stajga ega bo‘lgan taqdirda korporativ pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Ish beruvchilar uchun korporativ pensiya tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad – raqobatbardoshlilikni ta'minlash uchun, eng yaxshi, malakali kadrlarni jalg qilish, kadrlar siyosati va intizomini mustahkamlashdan iborat hisoblanadi.

Demak, davlat yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi tizimlarda, ularning tashkil qilinish shartlari, pensiya ta'minoti hajmini belgilashda ishtirok etsa, uchinchi tizimda davlat to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etmaydi, biroq shartnoma va huquqiy majburiyatlar bajarilishida kuzatuvchi vazifasini o'taydi.

Braziliyada eng kamida uzluksiz 15 yil ishlagan oddiy ishchilarga, erkaklar uchun 65 yosh, ayollar uchun 60 yosh pensiya yoshi hisoblanadi. Jamiat xavfsizligi uchun xizmat qilgan fuqarolar - erkaklar uchun 35 yosh, ayollar uchun 30 yosh pensiya yoshi qilib belgilangan. Mamlakatda ijtimoiy ta'minot tizimi yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- katta yoshlilar uchun pensiya;
- pensionerlarga keng miqyosdagi davlat ko'magi;
- jamiatning katta yoshlilari uchun turli ijtimoiy dasturlar.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari va uning ahamiyatini izohlab bering.
2. Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarning ahamiyati va ularning turlarini izohlang.
3. Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarini tayinlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini ta'riflang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M.Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
6. Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. Darslik. T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.
7. Qosimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 448 b.

8. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
9. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник- М.: «Dashkov i K», 2009. – 576 стр.
10. Федотов Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник.- 2е изд.— М.: «Dashkov i K», 2010. – 396 стр.
11. Карчевский В.В. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды— М.: «Вузовский учебник», 2011. – 224 стр.

2-mavzu. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi davlat pensiyalari va nafaqalarini to’lovchi jamg’arma sifatida (2 soat)

Reja

1. Davlat pensiya ta’minotini boshqaruv organlari, ularning vazifalari va vakolatlari
- 2.O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi faoliyati, uning huquqlari va vazifalari
3. O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimini moliyalashtirish manbalari
4. Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi mablag’larining shakllanish va ishlatalish amaliyoti tahlili

Kalit so’zlar: byudjetdan ajratiladigan mablag’lar, byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi, davlat pensiya ta’minoti tizimi, fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug‘urta, nogironlik pensiyalari, nogironlik guruhlari, pensiya, pensiya miqdori.


1. Davlat pensiya ta’minotini boshqaruv organlari, ularning vazifalari va vakolatlari

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to’lash, kompensatsiya to’lovlari va boshqa to’lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to’lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag’larni jamlaydi.O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining yuqori boshqaruv organi Jamg’armaning Kuzatuv kengashidir.

Davlat pensiya ta’minoti tizimi doirasida moliyaviy resurslarning taqsimlanish va qayta taqsimlanish jarayoni har doim ma'lum maqsadlarga erishishga qaratilgan, bo'lib u o'ziga xos tarzda tartibga solish va rag'batlantirish tamoyillari asosida boshqarib boriladi.


Ma'lumki, har qanday tizimida boshqaruv bo'lgani kabi, pensiya ta'minotini boshqarishda ham boshqarish obyektlari va subyektlari mavjud bo'ladi.

Davlat pensiya ta'minotini boshqarish obyektlari bo'lib turli moliyaviy munosabatlar hisoblanadi¹⁹. Masalan, budgetdan tashqari maqsadli jamg'armalar va boshqa pul jamg'armalarini tashkil qilish va ishlatish bilan bog'liq munosabatlar boshqarish obyektlaridir. Bu moliyaviy munosabatlarni boshqarishga xizmat qiluvchi tashkiliy tuzilmalar (moliya organlari, soliq idoralari, korxonalardagi moliyaviy xizmatlar va bo'limlar) esa moliyani boshqarish subyektlaridir.



1-rasm. Davlat pensiya ta'minotini boshqarish²⁰

Davlat pensiya ta'minotini boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi (1-rasm). Moliyaviy munosabatlarning har bir sohasi va har bir bo'g'inida boshqarish subyektlari bu munosabatlarga ta'sir etishning o'ziga xos maxsus usullaridan foydalananadilar. Shu bilan birga, bu usullar ma'lum umumiylilikka ega bo'lgan funksional elementlardan iborat, bular: rejorashtirish, operativ boshqarish va nazorat (2-rasm).



2-rasm. Davlat pensiya ta'minotini boshqarish elementlari

Mazkur jamg'arma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi

¹⁹ Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez "A Young Person's Guide to Social security" Economic Policy Institute, 2011 y. p 98

²⁰ Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez "A Young Person's Guide to Social security" Economic Policy Institute, 2011 y. p 112

Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi PF-4161-son Farmoniga muvofiq, 2010 yil 1 yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlarini va boshqa to‘lovlar ni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to‘lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo‘yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Shuningdek budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi o‘z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Ushbu jamg‘arma quyi tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;

Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari.

2.O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyati, uning huquqlari va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi PF-4161-son Farmoniga muvofiq, 2010 yil 1 yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tashkil etildi.

Tashkil etilgan vaqtdan boshlab normativ huquqiy bazani takomillashdi, moddiy texnika bazasini mustaxkamlandi, kadrlar salohiyatini oshirildi, zamonaviy axborot texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlarini va boshqa to‘lovlar ni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to‘lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo‘yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Mazkur jamg‘arma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

Shuningdek budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi o‘z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Ushbu jamg‘arma quyi tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari;
- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta’minoti respublika budgeti mablag“lari hisobiga amalga oshiriladi. Jamg‘arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi

Pensiya ta’minotining ijtimoiy nuqtai nazardan muhimligi uning xozirgi kunda respublikamiz fuqarolarining iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog‘liqligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagagi 30-son qarorida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida nizomda²¹ jamg‘armaning asosiy vazifalari va funktsiyalari quyidagi tartibda belgilab berilgan:

- Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta’minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovleri va boshqa to‘lovlnarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta’minlash;
- pensiyalar va boshqa to‘lovlnarni to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil etish, ular bo‘yicha hisob va hisobotni yuritish;
- tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o‘tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag“lardan qat’iy maqsadli foydalaniishini ta’minlash;
- mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to‘langan mablag“larni da‘volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;
- tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Jamg‘arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, hamda tegishli muhr va shtamplarga ega. Shuningdek, qaror bilan budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini boshqaruv kengashi va ularning tarkibi ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi «Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4161-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda pensiya ta’minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagagi 30-son qaroriga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida nizomini, 1-bo‘limi umumiyl qoidalari “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2010 yil, 8-son, 62-modda.

samaradorligini oshirish maqsadida 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasi (4-rasm), Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi, Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmalarining va tuman (shahar) bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari o‘zgartirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan jamg‘arlarni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-sod qarorida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida nizomda²² jamg‘armaning asosiy vazifalari va funktsiyalari quyidagi tartibda belgilab berilgan:

- Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta’minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarini tayinlash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta’minlash;
- pensiyalar va boshqa to‘lovlarini to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil etish, ular bo‘yicha hisob va hisobotni yuritish;
- tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o‘tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag“lardan qat’iy maqsadli foydalanilishini ta’minlash;
- mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to‘langan mablag“larni da’volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;
- tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi *funktsiyalarni* amalga oshiradi (3-rasm):

²² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-sod qaroriga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida nizomini, 1-bo‘limi umumiyl qoidalari "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2010 yil, 8-sod, 62-modda.

BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASI FUNKTSIYALARI

Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlariga xarajatlarni amalga oshirish

Pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqarish bo'yicha

Jamg'armaning daromad bo'yicha

Jamg'armaning vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo'yicha

Fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalar

3-rasm. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy funktsiyalari.²³

- davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi;

- «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag“larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

- «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi «b» — «j»-bandlariga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lashga sarflangan mablag“larni yuridik shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

- badallar va boshqa to'lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning hamda dehqon xo'jaliklari a'zolarining mehnat daftarchalarini belgilangan tartibda yuritadi va saqlaydi;

b) *pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo'yicha:*

- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi;

- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko'rib chiqadi va tekshiradi;

²³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagagi 30-sod qaroriga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida nizomini, 1-bo'limi umumiyoq qoidalari "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2010 yil, 8-sod, 62-modda.

• Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlarida pensiyalar tayinlash bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;

• zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo‘yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;

• pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi;

• pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

• tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo‘jaliklari a’zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatarning ishonchliligini tekshiradi;

v) *pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlaraga xarajatlarni amalga oshirish bo‘yicha:*

• pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblab chiqish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradi, ishlaydigani pensionerlarga aloqa tashkilotlari va banklar orqali, ishlaydigani pensionerlarga esa — tashkilotlar orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to‘lash yuzasidan topshiriqlarni rasmiylashtiradi va beradi;

• aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri etkazib berilishi hamda to‘lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

• yuridik shaxs bo‘lmadan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga, shuningdek dehqon xo‘jaliklari a’zolariga — ular tomonidan ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha badallar to‘langan taqdirda, chaqaloq tug‘ilganda beriladigan nafaqalar hamda dafn marosimi nafaqalarini hisoblaydi va to‘laydi;

• tashkilotlarning ishlaydigani pensionerlarga pensiyalar, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo‘srimcha dam olish kuni uchun to‘lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko‘rgan fuqarolarga kompensatsiya to‘lovlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlaraga xarajatlarini moliyalashtiradi;


g) *fuqarolarning pensiya ta’mnoti bilan bog‘liq boshqa masalalar bo‘yicha:*

• ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta’mnoti masalalari bo‘yicha xabardor qiladi;

• belgilangan tartibda tayinlangan shaxsiy pensiyalar to‘lanishini tashkil etadi;

• imtiyozli pensiya ta’mnoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi;

- «O‘zbekiston pochtasi» ochiq aktsiyadorlik jamiyati va O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankining bo‘linmalarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlarini hamda boshqa to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi monitoringini olib boradi va tekshiradi;



4-rasm. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi huquqlari²⁴

- normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqishda qatnashadi, fuqarolarning pensiya ta’minati masalalari bo‘yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o‘rganadi;
 - Jamg‘armaning mablag‘larini oluvchilar, pensiyalar hamda Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash to‘g‘risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi;
 - pensiya ta’minati masalalari bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;
 - Jamg‘arma vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyotini umumlashtiradi;
 - pensiya ta’minati masalalari va Jamg‘armaning vakolatiga tegishli bo‘lgan boshqa masalalar bo‘yicha xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi;
- d) Jamg‘armaning vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo‘yicha:*

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagisi, 30-soni Qarori “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizom” ilovasiga muvofiq talaba tomonidan tayyorlandi

- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi, bosh, tumanlararo, tuman, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

- Jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lган masalalar bo'yicha e'tiroz-da'vo ishlari olib borilishini tashkil etadi va amalga oshiradi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega (6-rasm):

Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha Pensiya jamg'armasining 14 ta hududiy boshqarmalari, 196 ta tuman (shahar) bo'limlari, 108 ta hududiy va ixtisoslashtirilgan TMEK lar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Jamg'arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, hamda tegishli muhr va shtamplarga ega. Shuningdek, qaror bilan budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqaruв kengashi va ularning tarkibi ham belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4161-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi, Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi, Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalarining va tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalari o'zgartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridahi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi vakolatlariga quyidagilar tegishli bo'ladi:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari prognoz parametrlarini, shuningdek Jamg'arma xarajatlarining har yilgi smetasini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

- Jamg'arma ijro etuvchi apparati, hududiy boshqarmalarining amalga oshiriladigan ishlari to'g'risidagi hisobotlarini eshitish va tasdiqlash;

- vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari va boshqa tashkilotlar mas'ul xodimlarining Jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lган masalalar bo'yicha hisobotlarini eshitish;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Jamg'armaga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlarining to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash to'g'risidagi axborotini eshitish;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Jamg'armaning ijro etuvchi direktorini, uning o'rinnbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish to'g'risida taqdimnomasi kiritish;

• Jamg‘armaning hududiy boshqarmalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash;

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Pensiyalar tayinlash bo‘yicha tuman (shahar) bo‘limi komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash;

• Jamg‘armaning ijro etuvchi apparati faoliyatini, ayniqsa Jamg‘arma daromadlarini shakllantirish, uni o‘z vaqtida moliyalashtirish va undan maqsadli foydalanish yuzasidan nazorat qilish;

• topshiriqlar, vedomostlar va pochta o‘tkazmalari bo‘yicha to‘lanadigan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlar jo‘natilishi va etkazib berilishi bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash miqdorlarini tasdiqlash;

• Jamg‘arma faoliyati hamda fuqarolarning ijtimoiy ta‘minotga va davlat ijtimoiy sug‘urtasiga bo‘lgan davlat tomonidan kafolatlangan huquqlari amalga oshirilishi bilan bog‘liq boshqa funktsiyalarni amalga oshirish.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan tasdiqlanadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi apparatiga Jamg‘arma Kuzatuv kengashining taqdimnomasi bo‘yicha, belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadigan ijro etuvchi direktor boshchilik qiladi. Ijro etuvchi direktor Jamg‘arma yuksilgan vazifalarning bajarilishi va o‘z funktsiyalarining amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi.

Jamg‘arma ijro etuvchi direktorining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosari Jamg‘arma Kuzatuvchi kengashining taqdimnomasi bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadi.

Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlari Jamg‘arma ijro etuvchi direktorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining qaroriga muvofiq lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi moliya vaziri qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi boshlig‘ining o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari raislari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi direktori taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri qarori bilan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.


Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari boshliqlarining o‘rinbosarlari, Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari Jamg‘armaning tegishli hududiy boshqarmalari boshliqlarining taqdimnomasi bo‘yicha Jamg‘armaning ijro etuvchi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

3. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimini moliyalashtirish manbalari

Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini mablag‘ bilan ta’minlashning bir necha manbalari mavjud²⁵:

1. *Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari*. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi (5-rasm):



5-rasm. Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari²⁶

- yagona ijtimoiy to‘lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;
- fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
 - budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
 - boshqa daromadlar. Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to‘lash xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da‘volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o‘rni qoplanadigan mablag‘lar tushumining bir qismi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarini to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarini to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to‘lanadigan sug‘urta badallari, majburiy to‘lovlar, badallar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud

²⁵ Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez “A Young Person’s Guide to Social security” Economic Policy Institute, 2011 y. p 46-50

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. 10-bob, 53-modda asosida tuzildi.

sog‘lig‘iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi), fermer va dehqon xo‘jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararning o‘rnini qoplash uchun to‘lanadigan nazarda tutilgan mablag‘lar, vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

2. *Davlat budgeti mablag‘lari*. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi Qonunining 5-modda bilan belgilangan harbiy xizmatchilarning, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarining, sudyalarining va prokuratura organlari darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo‘lgan xodimlarining pensiya ta’mnoti shartlari, normalari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bu xaratatlar “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi pensionerlariga pensiyalar to‘lash bo‘yicha vaqtincha tartib (Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 22 dekabrda 857-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan)ga ko‘ra, bu toifadagi fuqarolarga pensiyalar va bir martalik nafaqalarni to‘lash Ichki ishlar organlari tomonidan davlat budgetining respublika budgeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

3. *Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti orqali jamlanadigan mablag‘lar*. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasiga asosan, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari Xalq bankida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag‘larni jamlash yo‘li bilan shakllantiriladi.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag‘larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari;
- jamg‘arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari;
- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag‘lariga hisoblab chiqarilgan foizlar;
- qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa mablag‘lar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovleri to‘lash uchun foydalaniladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog‘liq bo‘lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish mumkin emas.

Xalq banki jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining alohida hisobini yuritadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini ko‘paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag‘lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanishi mumkin. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

Hozirgi kunda respublika ijtimoiy hayotidagi asosiy moliyaviy institut - budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi iqtisodiyotning tayanch bo‘g‘inidir. Aholining kam ta’minlangan, iqtisodiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilishdek mas’uliyatni o‘zining asosiy maqsadi qilib olgan bu jamg‘armaning bugungi kundagi ahamiyati yuksakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

Hozirgi kunda respublika ijtimoiy hayotidagi asosiy moliyaviy institut - budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi iqtisodiyotning tayanch bo‘g‘inidir. Aholining kam ta’minlangan, iqtisodiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilishdek mas’uliyatni o‘zining asosiy maqsadi qilib olgan bu jamg‘armaning bugungi kundagi ahamiyati yuksakdir.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning sug‘urta badallari;
- fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari;
- dehqon xo‘jaliklari a’zolarining ixtiyoriy ravishda to‘laydigan sug‘urta badallari;
- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning belgilangan tartibda ajratiladigan majburiy ajratmalari;
- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo‘lganlarga pensiya to‘lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da’volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag‘lar;
- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun Aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasidan o‘tkaziladigan mablag‘lar;
- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun o‘tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag‘lari;

– hisoblangan jarimalar summalarini (qonun hujjaligiga muvofiq soliq organlarini rivojlantirish Jamg‘armasiga undiriladigan summalaridan tashqari), sug‘urta badallari va ajratmalarining o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun penyalar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari va qonunchilik bilan ta’qilangan boshqa daromadlar.

Yuqorida nomi keltirilgan Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarining miqdori to‘lovchilarga soliq organlari tomonidan etkaziladi va Pensiya fondiga to‘lanadigan majburiy to‘lovlari soliqlar va yig‘imlarga tenglashtiriladi. Ish haqi fondidan ajratmalar va sug‘urta badallari bo‘yicha hisobotlar har chorakda soliq inspeksiyasiga topshiriladi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, ya’ni budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga kelib tushadigan ish beruvchilardan majburiy ajratmalar ularning soliq yukini kamaytirish bilan bog‘liq siyosati jarayonida, hamda ortirilgan mablag‘larni oborotiga qushib, shu yul bilan daromadlarini oshirishi va ish urinlarini shakllantirishi bilan bog‘lanadi. Ishlovchilar va yuridik shahslar tovar oborotidan olinadigan majburiy me’yorlar ulushi usish sur’atiga egadir.

Pensiya jamg‘armasi daromad manbalarining shakllanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagagi 30-sodan qaroriga asosan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizom asosida olib boriladi. Pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllanishi nazorati Davlat Soliq Qo‘mitasiga yuklangan.

Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi maxsus me’yoriy hujjat bilan belgilangan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat²⁷:

a) majburiy to‘lovlari va badallar:

- belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari (Yagona ijtimoiy to‘loving 24,8 (14,8) % li to‘lovi) (2-jadval);

1- jadval

O‘zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy to‘lov tariflari dinamikasi (%)²⁸

Yillar	Pensiya jamg‘armasiga ish beruvchilarning yagona ijtimoiy to‘lovi	Fuqarolarning majburiy sugurta badali	Tovar (ish, xizmatlar) qiymatidan majburiy ajratmalar
2001	40	2,5	0,7
2002	40	2,5	0,7
2003	37,2	2,5	0,7
2004	33	2,5	0,7
2005	31	2,5	0,7
2006	25	2,5	0,7
2007	24	2,5	0,7

²⁷ “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1993 yil 3 sentyabr, 938-XII-sodn. (keyingi yillardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda)

²⁸ Ilmiy va me’yoriy qonunchilikni o‘rgangan holda muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi

2008	24	2,5	1
2009	24	3,5	1
2010	25	4	1,5
2011	25	4,5	1,6
2012	25	5,5	1,6
2013	25	6	1,6
2014	25	6,5	1,6
2015	25 (15 ²⁹)	7,0	1,6
2016	25 (15 ³⁰)	7,5	1,6
2017	25 (15 ³¹)	8,0	1,6

- alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari;
- fuqarolarning sug‘urta badallari;
- jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug‘urta badallari;
- majburiy ajratmalar;

b) boshqa to‘lovlar:

- mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo‘lganlarga pensiyalar to‘lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da‘volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag‘larning 85 foizi;
 - texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdaggi o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslarga muddatidan oldin tayinlanganyoshga doir pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun o‘tkaziladigan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko‘maklashish Fondi mablag‘lari;
 - dehqon xo‘jaliklari a’zolarining ixtiyoriy tartibda to‘lanadigan sug‘urta badallari;
 - “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan pensiya olish huquqiga ega bo‘lgan kamida yigirma

²⁹ Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrdagi PQ-2270-sonli “2015 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognози va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risidagi” Qarori)

³⁰ Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrdagi PQ-2455-sonli “2016 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognози va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risidagi” Qarori)

³¹ Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdagi PQ-2699-sonli “2017 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognози va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risidagi” Qarori)

**2017-yilda ish beruvchilarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov
STAVKASI³²**

Ko‘rsatkichlar	Ajratmalar miqdori, %da
Yuridik shaxslar mehnatga haq tulash fondidan yagona ijtimoiy tulov stavkasi	25*
Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi	15**

*) Yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov summasi davlat maqsadli Fondlari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o‘rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

Budgetdan tashqari Pensiya Fondi 24,8

Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish davlat Fondsi 0,1

Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi 0,1

***Budgetdan tashqari Pensiya Fondi* 14,8

Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish davlat Fondsi 0,1

Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi 0,1

³² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdagi PQ-2699-soni “2017 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to‘g‘risidagi” Qarori.

- yillik ish staji bo‘lgan ayollar ellik to‘rt yoshga to‘lganda tayinlangan imtiyozli pensiyalarini to‘lash xarajatlarini qoplash hisobiga o‘tkaziladigan yuridik shaxslar mablag‘lari;

hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to‘lovlardan badallar va boshqa to‘lovlardan o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta‘minlash maxsus Fondsga hamda Fond xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag‘batlantirish Fondsga undiriladigan summalaridan tashqari);

- yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo‘jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog‘lig‘iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to‘lanadigan summalar;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan Davlat budjeti mablag‘lari va ixtiyoriy badallar.

Majburiy to‘lovlardan badallar va boshqa to‘lovlarni o‘tkazish Fond daromadlarining belgilangan tasniflariga muvofiq tushumlarning har bir turi bo‘yicha Fondning banklardagi tegishli hisob raqamlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

- manbalar turlari bo‘yicha Fondga majburiy to‘lovlardan badallar va boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liqligi va o‘z vaqtida to‘lanishi nazorat qilinishini;
- manbalar turlari va to‘lovchilar bo‘yicha Fondga majburiy to‘lovlardan badallar va boshqa to‘lovlardan hisobi yuritilishini;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Fondga majburiy to‘lovlardan badallar va boshqa to‘lovlardan to‘g‘ri hisoblanishini, shuningdek Fond bilan o‘zaro hisob-kitoblarning holati tekshirilishini;
- qonun hujjatlariga muvofiq majburiy to‘lovlardan badallar va boshqa to‘lovlarni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va ma’muriy javobgarlik choralarini qo‘llanilishini;
- badallarning shaxslar bo‘yicha hisobini amalga oshirish va mehnat daftarchalarini yuritish uchun har chorakda Fondga yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan shaxslar va dehqon xo‘jaliklari a’zolari tomonidan to‘langan badallarning miqdorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo‘mitasi Fondning ijro etuvchi apparatiga:

- tushgan majburiy to‘lovlardan badallar va to‘lovlardan to‘g‘risidagi Fondga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlardan turlari bo‘yicha qarzlar to‘g‘risidagi tezkor hisobotni har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha;

- majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarni hisoblash va to‘lash to‘g‘risidagi hisobotni yuridik shaxslar tomonidan choraklik va yillik hisobot taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari³³:

- yagona ijtimoiy to‘loving belgilangan miqdordagi tushumlari;
- fuqarolarning budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
- budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
- boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to‘lash xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da‘volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o‘rni qoplanadigan mablag‘lar tushumining bir qismi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to‘lanadigan sug‘urta badallari, majburiy to‘lovlar, badallar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog‘lig‘iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi), fermer va dehqonxo‘jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararning o‘rnini qoplash uchun to‘lanadigan nazarda tutilgan mablag‘lar, vaqtinchalik bo‘s sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Pensiya jamg‘armasining daromadlari shakllantirishda muhim o‘rinni yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar egallaydi. Yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar 2013 yilga nazar soladigan bo‘lsak jami daromadlarga nisbatan 57,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2017 yilga kelib 52,4 foiz bo‘lishi kutilmoqda. Bunda pasayish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin. Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug‘urta badallari esa o’sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Ya’ni, 2013 yilda jami daromadlarga nisbatan ushbu daromad turining ulushi 1482,7 mlrd.so‘mni ulushi 14,4 foizga teng bo‘lsa, 2017 yilga kelib 3993,9 mlrd.so‘mga ya’ni 20,5 foizga o’sishi ko‘tilmoqda. Boshqa daromadlar ulushiga ham e’tibor beradigan bo‘lsak yildan-yilga o’sayotganligini tahlil qilishimiz mumkin.

³³ O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-I-son) 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan

3-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi
daromadlari tarkibi va tuzilishi³⁴**

Ko‘rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	mlrd. so‘m	%								
Daromadlar	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0
Yil boshiga qoldiq	602,2	8,8	1067,3	8,2	2592,0	15,7	2568,3	14,2	2282,0	11,7
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lovdan tushumlar	5907,4	51,7	7299,5	56,1	8324,2	50,3	9474,0	52,3	10226,0	52,4
Fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari	1482,7	14,4	1877,2	14,4	2463,8	14,9	3235,0	17,9	3993,9	20,5
Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1591,3	15,4	1933,0	14,9	2063,8	12,5	1527,0	8,4	1429,7	7,3
Boshqa daromadlar	718,5	9,7	836,7	6,4	1113,1	6,7	1291,0	7,2	1555,0	8,0
Soliqsiz tushumlar	-	-	-	-	-	-	18,0	0,1	18,0	0,09

³⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699-sonli Qarorlari asosida mualif tomonidan tuzildi.

– Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida pensiya tizimi sohasida ham bir muncha ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Qonunchiligidan bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirildi va pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllanish manbalari aniq va ravshan qilib qo‘yildi. Natijada, 2011 yildan boshlab Pensiya jamg‘armasi profitsit bilan ijro qilina boshlandi. Daromad manbalari tarkibida korxona va tashkilotlarning ish haqi jamg‘armasidan to‘laydigan ajratmasi eng yuqori ulushga ega bo‘lishi pensiya jamg‘armasi daromad manbalarining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bu ko‘rsatkich, yuqoridagi tahlil ma’lumotlariga asosan yildan-yilga jami daromad tarkibidagi ulushi kamayib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni, ya’ni kasanachilikni, duradgorchilikni va boshqa kichik biznesga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Daromad manbalarini tarkibida ishchilar ish haqisidan ajratmaning foiz stavkasi yildan-yilga o‘smoqda, ya’ni bu ko‘rsatkich 2008 yilda 2,5 foizni, 2015 yilda esa bu ko‘rsatkich 7,0 foizni, 2016 yilda 7,5 foizni, 2017 yilda 8,0 foizni tashkil qilmoqda. O’rtacha oylik ish haqining ham yildan-yilga oshishi ham daromad manbalarining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirishda yuz berayotgan muammolarni bartaraf etish hamda daromadlarining o‘z vaqtida korxona va tashkilotlar tomonidan o‘z vaqtida to‘lanmayotganligini bartaraf etish yo‘nalishlarini aniqlash kerak. Bunga bir necha omillar sabab bo‘ldi va yanada pensiya tizimi faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2010 yildan Pensiya jamg‘armasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi o‘tkazildi va ijrosi G‘aznachilik organlar orqali amalga oshirila boshlandi.


4. Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining shakllanish va ishlatalish amaliyoti tahlili

O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovleri va boshqa to‘lovlarini moliyalashtirish budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi toifadagi fuqarolarga ko‘rsatilgan turdagи pensiya va nafaqalarni to‘lash uchun sarflanadi (6-rasm):

- a) ishlamaydigan fuqarolarga:
 - davlat pensiyalarining barcha turlari;
 - dafn marosimi uchun nafaqalar;
 - davlat pensiya ta’minotiga huquqi bo‘lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;
 - qonun hujjatlariga muvofiq Jamg‘arma mablag‘laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to‘lovleri va boshqa to‘lovlar;
- b) ishlaydigan fuqarolarga:
 - davlat pensiyalarining barcha turlari;
 - dafn marosimi uchun nafaqalar;

- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovleri va boshqa to'lovlar.



6-rasm. Jamg'arma mablag'larining sarflanishi³⁵

Ishlaydigan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarining barcha turlari, ya'ni yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari to'lanadi.

Yoshga doir pensiyalar. Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar - 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar - 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar. Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lмаган shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 7 yil ish stoji (2016 yil 1-iyuldan boshlab ungacha bo'lgan davrda 5 yil) mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari. Nogironlik pensiyalari belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizom asosida muallif tomonidan tuzildi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar (fuqaroning necha yoshda bo'lganida necha yillik zarur ish stajiga ega bo'lishi kerakligi Qonunda belgilangan) mavjud ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadigan boshqa a'zolariga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar, ularni tayinlash va to'lash tartiblari haqida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunosti hujjatlarda bat afsil berilgan.

Dafn marosimi uchun nafaqalar O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi 2010 yil 27 dekabrdagi O'RQ-276-sod Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 iyunda qabul qilingan 174-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tayinlanadi va to'lanadi. Ushbu hujjatga muvofiq, nafaqa marhumning eriga (xotiniga), ota-onasiga, farzandlariga va boshqa qarindoshlariga yoki marhumning qonuniy vakiliga, bunday shaxs bo'lмаган taqdirda esa – dafnni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa shaxsga tayinlanadi va to'lanadi. Nafaqa O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga beriladi.

Ushbu nafaqa:

- davlat pensiyasi oluvchi pensioner;
- davlat ijtimoiy nafaqasi oluvchi fuqaro;
- xodim yoki uning qaramog'idiagi oila a'zosi;
- bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etganda yoki o'lik bola tug'ilganda (perinatal o'lim);
- ish bilan band bo'lgan yoki band bo'lмаган shaxs, fuqarolarning ayrim toifalariga tegishli bo'lgan shaxs yoki bola vafot etgan taqdirda tayinlanadi.

Ushbu ko'rsatilgan shaxslar vafot etganda nafaqa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi. Faqatgina xodim yoki uning qaramog'idiagi oila a'zosi vafot etganda nafaqa korxona, muassasa yoki tashkilot tomonidan Nizomda belgilangan tartibda tayinlanadi.

Ilgari pensioner vafot etgan taqdirda, uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik

ish haqining uch baravaridan oz bo‘lman miqdorda dafn etish nafaqasi to‘lanardi. 2014 yil 4 dekabrdagi “Soliq va budget siyosatining 2015 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan kiritilgan o‘zgartirishga muvofiq, 2015 yil 1 yanvardan e’tiboran dafn etish nafaqasi aniq miqdorda — eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida beriladi. Mazkur nafaqa pensioner vafot etganidan keyin 6 oy ichida murojaat etilgan taqdirda olinadi.

Dafn etishga nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 26-moddasiga asosan, mazkur nafaqa pochtaning tarkibiy bo‘linmasi tomonidan Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan taqdim etilgan vedomost va ariza beruvchining pasporti asosida naqd pul mablag‘lari bilan to‘lanadi.

Davlat pensiya ta’midotiga huquqi bo‘lman keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqlar Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lman qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqlar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” asosida tayinlanadi va to‘lanadi.

Bunday toifadagi fuqarolarga:

- yoshga doir nafaqa;
- nogironlik nafaqasi (bolalikdan nogironlardan tashqari);
- boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqlarini tayinlash va to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshga doir nafaqlar ish stajiga ega bo‘lman, shuningdek, 7 yildan kam ish staji mavjud bo‘lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo‘lman shaxslarga: erkaklarga - 65 yoshga etganlarida, ayollarga — 60 yoshga etganlarida mehnatga layoqatli voyaga etgan farzandlari, qarindoshlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta’minalashga majbur bo‘lgan boshqa shaxslar bo‘lman taqdirda tayinlanadi.

Nogironlik nafaqlari nogironlik sodir bo‘lgan hollarda, yoshidan qat’i nazar, ish stajiga ega bo‘lman I va II guruh nogironlarga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganda tayinlanadi va to‘lanadi. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo‘qotilganda) Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari yo‘llanmalari bo‘yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi ‘Fuqarolarning davlat pensiya ta’moti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bo‘yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lman shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan oilaning mehnatga layoqatli bo‘lman a’zolari boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a’zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo‘lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:


- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga — nafaqaning 100 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga — nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga — nafaqaning 50 foizi.

Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga belgilangan miqdorda bitta umumi nafaqa tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning nafaqadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi. Bunda tayinlangan nafaqaning umumi miqdori oluvchilarning umumi soniga bo'linadi. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lman, nafaqalarning har xil turlarini olish huquqiga ega bo'lgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga ularning tanlovi bo'yicha nafaqalarning bir turi tayinlanadi.

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish uchun Jamg'armaning hududiy bo'linmalari tomonidan G'aznachilikning bo'linmalarida hisobraqamlari ochiladi. Jamg'armaning hududiy boshqarmalari to'lov to'lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlari to'lash uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi apparati Jamg'arma xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda:

- joriy to'lov oyining 15-kunigacha - o'tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz miqdoridagi summani;



7-rasm. Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiyalar va nafaqalarni to'lash tartibi³⁶

– joriy to'lov oyining 27-kunigacha - amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan qolgan summani moliyalashtiradi.


Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlar uchun mablag'larni aloqa tashkilotlari va banklarning hisob raqamlariga o'tkazadi. Jamg'armaning tuman (shahar)

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizom asosida tuzildi.

bo‘limlari tashkilotlarning buyurtmanomalari bo‘yicha ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, dafn marosimi uchun nafaqalar, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalarining ota-onalaridan biriga qo‘sishimcha dam olish kunlari uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarini to‘lashga mablag‘larni moliyalashtiradi. Jamg‘armaning hisob raqamlaridan mablag‘larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o’tkazish va vaqtincha olib qo‘yish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiyalar va nafaqalarni to‘lash tartibi quyidagi rasmdagi chizmada aks ettirilgan (7-rasm).

Bugungi kunda respublikamizda jami 3 mln dan ortiq pensiya oluvchilar mavjud bo‘lib, Respublikamiz aholisining 10% ni tashkil etmoqda va pensiya oluvchilarning asosiy qismi yoshga doir pensiya oluvchilar qisminni tashkil etmoqda (8-rasm).



8-rasm.O‘zbekiston Respublikasida 2017 yil 1 yanvar holatida to‘lanayotgan pensiyalarning ulushi³⁷

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

4-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari
Pensiya jamg‘armasining xarajatlari tarkibi va tuzilishi³⁸**

Ko‘rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	Mlrd. so‘mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda								
Xarajatlar jami	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0
Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovleri	9097,9	88,3	11191,9	86,0	12838,1	77,5	14779,6	81,6	16629,9	85,2
Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovleri	317,4	3,1	426,6	3,3	474,8	2,8	484,3	2,7	534,5	2,7
Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to‘lovlar	20,5	0,2	29,1	0,2	105,2	0,6	152,1	0,8	204,3	1,0
Boshqa xarajatlar	2,1	0,02	2,4	0,02	2,8	0,02	3,0	0,02	10,0	0,05
Yil oxirida qoldiq mablag‘lar	864,2	8,4	1363,7	10,5	3136,1	18,9	2694,3	14,9	2126,4	11,0

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699-sonli Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

4-jadvalda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining xarajatlari tizimining 2013-2017 yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo‘lib, undan ko‘rinadiki, ya’ni Davlat Pensiya jamg‘armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlari hissasiga to‘g‘ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida dinamik o‘zgarish xususiyatiga egadir. Aksincha Pensiya jamg‘armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo‘lib, uning ulushi o‘sish xususiyatiga egadir. Davlat Pensiya jamg‘armasining xarajatlari tizimining 2013-2017 yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo‘lib, undan ko‘rinadiki, ya’ni davlat Pensiya jamg‘armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlari hissasiga to‘g‘ri kelib, 95 foiz Pensiya jamg‘armasining xarajatlari ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovlari shaklida yo‘naltiriladi. 2014 yilda jami xarajatlarini tarkibida ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovlari xarajatlari 88.3%, 2015 yilda 86%, 2016 yilda 81.6 %, 2017 yilda esa bu xarajat turi bo‘yicha 85.2% da rejalashtirilmoqda. Pensiya jamg‘armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo‘lib, uning ulushi o‘sish xususiyatiga egadir. Agar 2013 yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 8,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa 2016 yilga kelib 14,6% ni tashkil etgan. Bu esa oxirgi yillarda xukumatimiz tomonidan Davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag‘laridan samarali foydalanish tizimidagi say xarakatlari natijasidir. 2017 yilgi byudjet prognoziga nazar soladigan bo’lsak, bu ko’rsatkich anchagina kamligini ko‘rshimiz mumkin.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Pensiya ta’minoti modellari va ularning o’ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini izohlab bering.
3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari manbalari v ularning tutgan ulushini izohlang.
4. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi xarajatlari tizimini izohlang

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M.Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
6. Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G‘aznachilik. Darslik. T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.
7. Qosimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 448 b.
8. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
9. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник- М.: «Dashkov i K», 2009. – 576 стр.
10. Федотов Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник.-2е изд.– М.: «Dashkov i K», 2010. – 396 стр.
11. Карчевский В.В. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды– М.: «Вузовский учебник», 2011. – 224 стр.

3-mavzu. Davlat pensiyalarini va ijtimoiy nafalarni hisoblash va to’lash tartibi (6 soat)

Reja

1. Yoshga doir pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibi
2. Nogironlik pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibi
3. Boquvchisini yo’qotganlik pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibi

Kalit so’zlar: byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, davlat pensiya ta’minti tizimi, pensiya, pensiya miqdori, nogironlik pensiyalarini, boquvchisini yo’qotganlik pensiyalarini, yoshga doir pensiyalar, ijtimoiy nafaqlar.

1. Yoshga doir pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibi

Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy munosabatlardan yuzaga kelishi ko‘pchilik hollarda qonun hujjalarda nazarda tutilgan asos mavjud bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Qonunchilik normasida muayyan toifadagi fuqaroga u yoki bu shakldagi ijtimoiy yordamning ko‘rsatilishi nazarda tutilganligi bir tomonidan yordam ko‘rsatilishini talab qilish huquqini, ikkinchi tomonda esa (davlat organi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va boshqalar) bunday ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi yuzasidan majburiyatni paydo qiladi. Sub’ektiv huquqlardan foydalanishga qaratilgan hatti-harakatlar ikkinchi tomonning faol majburiyatiga mos keladi³⁹.

³⁹ Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez “A Young Person’s Guide to Social security” Economic Policy Institute, 2011 y. p 40

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid huquqiy munosabatlarni yuz berishi ijtimoiy yordam olish huquqi paydo bo'lishiga olib keladigan yuridik faktlarga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy yordam olish huquqi paydo bo'lishi uchun talab etiladigan yuridik faktlar turli-tumandir va ularning xususiyati ijtimoiy yordamning qaysi turidan foydalanish haqida, yordam kimga ko'rsatilayotganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Masalan, Muruvvat uyiga joylashtirish va davlat ta'minotiga olish tarzida ijtimoiy yordam ko'rsatilishi uchun bir nechta yuridik faktlar majmui mavjud bo'lishi (pensiya yoshiga etganlik, moddiy jihatdan ta'minlashga majbur yaqin qarindoshlarning yo'qligi yoki ular moddiy yordam ko'rsatish imkoniyatga ega emasligi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi yo'llanmasi mavjudligi) talab qilinadi⁴⁰.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid huquqiy munosabatlarda plyuralistik nazariya to'laroq o'z ifodasini topadi, zeroki bunday yordam ko'rsatish ob'ekti, ya'ni huquqiy munosabat mavzusi turli-tumandir va bir holatda muayyan ashyolarni yordam tariqasida topshirishlikni nazarda tutsa, (masalan, yolg'iz nogironlarga eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarni bepul berish), boshqa holda muayyan imtiyozlar berishlikni (masalan, kommunal xizmat, transport xizmati, tibbiy xizmat ko'rsatish va hokazo) belgilaydi.

Pensiya tayinlash va to'lash, shuningdek fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Tashkilot ma'muriyati har yili dekabr oyida shaxsiy varaqchalar va mehnat daftarchalari asosida keyingi yilda ham umumiylar, ham imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladigan xodimlar ro'yxatini tuzadi. Ro'yxatda xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi; tug'ilgan yili, oyi, kuni, shuningdek xodim yashaydigan joy; tarkibiy bo'linmaning nomi; lavozimi (kasbi); pensiya tayinlash uchun murojaat qilish uchun asoslar; hujjatlar bilan tasdiqlangan umumiylar ish stoji; imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash huquqini beruvchi maxsus ish stoji ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Ko'rsatib o'tilgan ro'yxatga kiritilgan xodimlarga nisbatan tashkilot ma'muriyati pensiya tayinlash uchun hujjatlarni oldindan tayyorlashga kirishadi. Zarur bo'lganda tashkilot ma'muriyati etishmayotgan hujjatlarni so'rab olish choralarini ko'rishi kerak.

Tashkilot ma'muriyati to'plangan barcha hujjatlar asosida pensiya tayinlash uchun taqdimnomani rasmiylashtiradi.

Tashkilot ma'muriyati xodim pensiya yoshiga etgan kundan kechiktirmay uning pensiya olish huquqiga ega bo'lganligini bildirishga majbur. Xodim pensiya tayinlash to'g'risida ariza bergen taqdirda tashkilot ma'muriyati mazkur ariza ro'yxatga olingan vaqtidan boshlab 10 kun mobaynida zarur hujjatlarni va taqdimnomani to'liq rasmiylashtiradi va ariza beruvchini ular bilan (taqdimnomaga imzo qo'ydirgan holda) tanishtiradi.

⁴⁰ Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez "A Young Person's Guide to Social security" Economic Policy Institute, 2011 y. p 42

Hujjatlar va taqdimnomalar xodimning arizasi bilan birga ariza beruvchining yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi. Tashkilot ma'muriyati pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni to'play olmagan hollarda Pensiya jamg'armasi bo'limiga bor hujjatlar topshiriladi, etishmagan hujjatlar esa belgilangan muddatlarda qo'shimcha ravishda taqdim etiladi.

Agar xodimga pensiya tayinlash rad etilgan bo'lsa, bu haqda unga rad etish sabablari ko'rsatilib, yozma ravishda xabar beriladi. Pensiya so'rab murojaat qilgan kishi ma'muriyat qaroridan norozi bo'lsa, u pensiya tayinlash to'g'risidagi arizani yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limiga bevosita berishi mumkin.

Pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza qonun hujjatlariga muvofiq pensiya olish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan uning yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limiga beriladi. Xodimga va uning oila a'zolariga pensiya (boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi) tayinlangan taqdirda pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza xodimning yoki vafot etgan boquvchining (uning oila a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangan taqdirda) oxirgi ish joyi bo'yicha tashkilotning ma'muriyati orqali ariza beruvchining yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limiga berilishi mumkin. Pensiya tayinlanadigan shaxs balog'atga etmagan yoki huquqiy muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda, ariza uning ota-onasi yoki vasiysi tomonidan ularning yashash joyi orqali beriladi.

Pensiya tayinlashni so'rab pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab istalgan vaqtida, biror muddat bilan cheklanmagan holda murojaat etish mumkin. Barcha zarur hujjatlar bilan birga ariza qabul qilingan kun pensiya so'rab murojaat etilgan kun hisoblanadi. Agar ariza pochta orqali yuborilsa va bunda barcha zarur hujjatlar ham ilova qilingan bo'lsa, ushbu arizani jo'natishning pochta shtempelida ko'rsatilgan sanasi pensiya so'rab murojaat etilgan kun hisoblanadi. Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda Pensiya jamg'armasi bo'limi qo'shimcha yana qanday hujjatlar taqdim etilishi lozimligini tashkilot ma'muriyatiga yoki ariza beruvchiga ma'lum qiladi. Agar ular qo'shimcha hujjatlar taqdim etilishi lozimligi to'g'risida xabarnoma olingan kundan boshlab uch oydan kechikmay taqdim etilsa, pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza qabul qilingan kun pensiya tayinlash uchun murojaat qilingan kun hisoblanadi.

Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning asoslanganligi va ishonchliligi uchun shubha paydo bo'lgan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya tayinlash uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish to'g'risida qaror chiqarishi mumkin. Tekshirish tasdiqlovchi hujjatlarni bergen tashkilotda yoki arxivda amalga oshiriladi. Tekshirish natijalari bo'yicha ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, u tekshiruvchining va tashkilot yoki arxiv mansabdor shaxsining imzosi, shuningdek tashkilot yoki arxivning muhri bilan tasdiqlanadi. Dalolatnomaning bir nusxasi tashkilot yoki arxivda, ikkinchi nusxasi Pensiya jamg'armasi bo'limida qoladi. Dalolatnomada tasdiqlovchi hujjatlarning kim tomonidan berilganligi va tekshirish vaqtida hujjatlarning joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumot majburiy tartibda ko'rsatiladi.

Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya tayinlash uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish to'g'risida qaror chiqargan hollarda, tekshirish tamom bo'lish muddatidan

qat'i nazar, pensiya tayinlash uchun dastlab murojaat qilingan sana pensiya tayinlash uchun murojaat qilingan sana hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
- ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- ariza beruvchining jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005 yil 1 yanvardan keyin).

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

a) tegishli organ tomonidan berilgan harbiy xizmatni, partizan otryadlari va qo'shilmalarda bo'lganlikni, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilganlikni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

b) tegishli organ tomonidan berilgan, idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va kon-qutqaruv qismlaridagi xizmatni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

v) band bo'lgan shaxsga O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan berilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langanligini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

g) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasasi tibbiy-maslahat komissiyasi (keyingi o'rnlarda TMK deb yuritiladi) tomonidan berilgan ariza beruvchining bolasi 16 yoshgacha nogiron bola deb e'tirof etilishini tasdiqlaydigan tibbiyat xulosasi yoki Tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (keyingi o'rnlarda TMEK deb yuritiladi) tomonidan berilgan parvarish ostidagi shaxs I guruh nogironi deb tan olinishini tasdiqlaydigan nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomaning tegishli qismi;

d) davolash-profilaktika muassasasining xulosasi asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan keksalarga qarab turilgan vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

e) oliv ta'lim muassasalarida (shu jumladan o'qish harbiy xizmatga tenglashtiriladigan harbiy ta'lim muassasalarida, shuningdek partiya maktablarida), aspiranturada (stajyorlar-tadqiqotchilar-izlanuvchilar institutida), doktoranturada (katta ilmiy xodimlar — izlanuvchilar institutida) va klinik ordinaturada kunduzgi o'qishni, shu jumladan chet elda o'qishni tasdiqlaydigan diplom yoki ma'lumotnoma;

j) bolani parvarish qilish bo'yicha ta'til berilganligi va ta'tildan qaytilganligi to'g'risidagi buyruqlarning nusxalari ilova qilingan holda ayol kishi bola tug'ilgandan boshlab u uch yoshga to'lgungacha bo'lgan davrda mehnat munosabatlarda bo'lgan tashkilot (tashkilotlar) tomonidan berilgan bola uch yoshga to'lgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

z) ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslar, praporshchiklar, michmanlar va muddatdan tashqari xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo'limgan joylarda erlari bilan yashagan vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

^{z¹} O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini xodimlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda bo'lган vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnomasi;

i) ariza beruvchi urush qatnashchisi yoki unga tenglashtirilgan shaxs hisoblanishini tasdiqlaydigan hujjat;

k) davolash-profilaktika muassasasining ariza beruvchi gipofizar nanizm bemori (liliput) yoxud disproportsional pakana ekanligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

l) familiya, ism, ota ismi o'zgartirilganligi to'g'risidagi hujjat;

m) TMEKning nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomasining tegishli qismi — mehnatda yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida I va II guruhlar nogironi bo'lgan vaqt stajga hisoblanadigan hollarda;

n) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan nogiron bola 8 yoshga to'lgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnomasi, shuningdek bola 8 yoshgacha nogiron bola deb e'tirof etilishini tasdiqlaydigan TMK tomonidan berilgan tibbiyot xulosasi, yoki TMK tomonidan berilgan nogironlikni belgilash uchun asos hisoblanadigan kasallik bo'yicha davolash-profilaktika muassasasida hisobda turganlik to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

o) oqlov hukmi yoki ish to'xtatilganligi to'g'risida sudning ajrimi (qarori) yoki prokuror (tergovchi)ning ish to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori, shuningdek oldini olish chorasi sifatida shaxsni tergov izolyatoriyada (turmada) qamoqda saqlash, qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish shaklida jazoni o'tash davri to'g'risida tergov organlari yoki ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi, shuningdek reabilitatsiya to'g'risidagi hujjatlar (sud organlari, prokuratura organlari, surishtiruv va tergov organlarining oqlov hukmi chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi yoki reabilitatsiya qiluvchi asoslar bo'yicha jinoyat ishi to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori (ajrimi);

p) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuman (shahar) Bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazining shaxsni ishsiz deb e'tirof etish to'g'risidagi taqdimnomasi.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi to'g'risidagi" Qonunga asosan, fuqarolar ma'lum belgilangan yoshga etib ish stajiga ega bo'lganlarida pensiya tayinlanishi belgilab qo'yilgan. Yoshga doir pensiya Respublikamizdagи keksa fuqarolarni ijtimoiy ta'minlashning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Insonni keksaygan chog'ida moddiy ta'minlash imkonini yaratib beruvchi moddiy mexanizm barpo qilish bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan biri hisoblanadi. Yoshga doir pensiya olish huquqi fuqarolar belgilangan pensiya yoshiga yetgan paytdan va ularda muayyan ish staji bo'lganda yuzaga keladi.

Yoshga doir pensiya deganda, asosan, fuqarolarning o'tgan davrdagi ish stajini, jamiyat rivojlanishiga qo'shgan hissasini hisobga olgan holda umrbod tayinlanadigan

davlat pensiya ta'minotining turlaridan biri tushuniladi. Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar (1-jadval).

Xarbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ularga qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda xarbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlari va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan pul ta'minotining barcha turlari fuqarolarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

1-jadval

Yoshga doir pensiya olish huquqiga umumiy talablari⁴¹

Jinsi	Yoshi	Ish staji
erkaklar	60 yoshga to'lganda	kamida 25 yil
ayollar	55 yoshga to'lganda	kamida 20 yil

Pensiya miqdori ish stajining muddatiga muvofiq bo'lib, quyidagilardan tashkil topadi:

- pensiyaning tayanch miqdori;
- ish staji uchun pensiyaning oshirilishi;
- pensiyaga qo'shiladigan ustama haq.

Pensiya tayinlashda talab etiladigan ortiqacha ish stajining har bir to'liq yili uchun yoshga doir pensiyaning tayanch miqdorlari - pensiya tayinlash uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida oshiriladi.

Yoshga doir pensiya agar pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab uch oy muddat ichida pensiya so'rab murojaat etilgan bo'lsa, pensiya yoshiga to'lgan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya umrbod tayinlanadi.⁴² Yoshga doir pensiyalarning tayanch miqdorlari to'liq pensiya uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi tanaffuslar mavjudligidan qat'i nazar, butun mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketmaket besh yil uchun (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) amaldagi o'rtacha oylik ish haqi olinadi. O'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmishe kalender oydagisi ish haqining umumiy miqdorini oltmishe bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga qarab, ishga kirish yoki ishdan bo'shash munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lмаган ойлар ishlangan to'liq kalender ойлар sifatida hisobga

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'moti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son. 03.09.1993.

⁴²O'sha erda, 47-modda, 1-band

olinadi. Pensiya so‘rab murojaat etgan kishi etti yildan oz vaqt ishlagan hollarda o‘rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylaridagi ish haqining umumiyligi miqdorini shu oylar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Mavsumiy ishlarda band bo‘lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda amaldagi o‘rtacha oylik ish haqi istalgan ketmaket besh mavso‘mdagi ish haqini oltmishtga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam ish haqining sakkiz hissasidan ortiq bo‘lmanan ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan oz bo‘lgan yoki ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlar umuman bo‘lmanan hollarda ish stoji uchun pensiya eng kam oylik ish haqiga qarab hisoblab chiqariladi. Ta’midot badallari hisoblanadigan ish haqining barcha turlari pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun ish haqiga qo‘shiladi. Davlat tomonidan ijtimoiy ta’midotlanmaydigan shaxslarning pensiyasini hisoblab chiqarish uchun ish haqiga ta’midot badallari olinadigan mehnat haqi turlariga o‘xshash pul ta’midotining barcha turlari qo‘shiladi⁴³.

Pensiya so‘rab murojaat etgan kishining xohishiga binoan o‘quv davrida to‘langan stipendiya ish haqiga tenglashtiriladi. Ish vaqtini hisob-kitob qilish mumkin bo‘lmanan xodimlarning (fermerlar, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, ayrim fuqarolarning yumushlarini bajaruvchilar va hokazo) pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun ish haqi miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘langan ta’midot badallari miqdoriga qarab aniqlanadi.

Ish haqining natural qismi ijtimoiy ta’midotga o‘tkazilgan badallar miqdoriga qarab baholanadi. Ishlovchilarning ish haqiga mintaqaviy koeffitsient belgilangan hududlarda yashovchi shaxslar va oilalarga pensiya tayinlashda mintaqaviy koeffitsient e’tiborga olingan holda hisoblab chiqilgan amaldagi ish haqi hisobga olinadi. Boshqa davlatlardan ko‘chib kelgan, O‘zbekiston Respublikasida ishlamagan fuqarolarga pensiyalar O‘zbekiston dagi tegishli kasb hamda malakadagi xodimlarning pensiya tayinlanayotgan vaqtdagi o‘rtacha oylik ish haqiga asoslangan holda hisoblab chiqariladi.

Basharti, bunday kasb hamda malakalar respublikada bo‘lmasa, o‘rtacha oylik ish haqini aniqlash tartibini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab beradi. Chet elda ishlashga yuborilgan xodimlarning o‘rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarishda ular chet elga yuborilishidan oldin olgan ish haqi hisobga olinadi.

Quyidagilar ish stajiga qo‘sib hisoblanadi⁴⁴:

- faoliyat turi, mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan qat’i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy ta’motlangan holda bajargan har qanday ish, agar u O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ta’midot badallari to‘lagan bo‘lsa. 1965 yildan keyingi davr uchun jamoa xo‘jaligidagi ish stajini hisoblab chiqarishda, agar jamoa xo‘jaligi a’zosi uzrsiz

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

sabablarga ko‘ra jamoa xo‘jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo‘lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi. Ijodiy faoliyat bilan mashg‘ul xodimlarning ish stajini, basharti ular O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ta’minot badallari to‘lagan bo‘lsalar, ijodiy uyushmalarning boshqaruvlari ana shu muallifning asari e‘lon qilingan yoki birinchi marta jamoat oldida ijro yoki namoyish etilgan kundan e’tiboran belgilaydilar.

- harbiy xizmat va partizan otryadlari hamda qo‘shilmalarida bo‘lish, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;

- idoraviy bo‘ysunuvidan qat‘i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va tog‘konqutqaruv qismlaridagi xizmat;

- yakka tartibdagi mehnat faoliyati, shu jumladan yakka (guruqli) ijara sharoitidagi yoki shaxsiy yordamchi, dehqon (fermer) xo‘jaligidagi faoliyat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ta’minot badallari to‘langan taqdirda⁴⁵.

- I guruhi nogironiga yoki 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaga, shuningdek o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan (davolash muassasasining xulosasiga ko‘ra) 80 yoshga to‘lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt;

- oliv va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlarida, bilim yurtlarida, kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va yangi ixtisosni o‘rganish maktablari va kurslarida, doktoranturada va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qish, shu jumladan chet elda o‘qish;

- onaning (o‘gay onaning) bolalarini (o‘gay o‘g‘illarini, o‘gay qizlarini) go‘daklik yoshida parvarishlagan vaqt, lekin ko‘pi bilan har bir bola 3 yoshga to‘lguncha, hammasini jamlaganda 6 yil doirasida;

- ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarning, praporshchiklarning, michmanlarning va muddatdan tashqari harbiy xizmatchilarining xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;

- O‘zbekiston Respublikasi muassasalari va halqaro tashkilotlar xodimlari xotinlarining chet elda bo‘lgan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;

- cho‘ponlarning xotinlarining ishga joylashish imkoniyati bo‘lmagan yaylovlarda eri bilan birga yashagan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr.

Chet elda ishlangan davrlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga belgilangan ta’minot badallari to‘langan taqdirda, agar davlatlararo bitimlarda o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, mehnat stajiga qo‘shib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanma (bitim) asosda chet elda ishlaganligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergen organlar mehnat daftarchasiga kiritgan qaydnomalarga qarab aniqlanadi. Chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga chet eldagisi ishi O‘zbekiston Respublikasida ishlanganiga to‘g‘ri keladigan stajning 1-3

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

hissasidan oshmagan miqdorda⁴⁶, agar davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, stajga qo‘shiladi.

Mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mehnat daftarchasi yoki unda tegishli yozuvlar bo‘lmaidan taqdirda ish stajini tasdiqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalarini ular istiqomat qilib turgan joydagi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘limlari to‘laydi. Ishlab turgan pensionerlarga pensiyalar ularning ish joyida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lanadi.

Pensionerga hisoblab chiqarib qo‘yilgan, lekin uning tomonidan o‘z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi uch yildan oshmagan davr uchun to‘lanadi. Pensiyani tayinlovchi yoki to‘lovchi organning aybi bilan o‘z vaqtida olinmay qolgan pensiya puli o‘tgan davr uchun muddati cheklanmagan holda to‘lanadi. Pensioner ozodlikdan mahrum qilingan taqdirda tayinlangan pensiyani to‘lash ozodlikdan mahrum qilingan davr uchun to‘xtatib qo‘yiladi. Pensioner olishi lozim bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta‘minlanadigan shaxslar doirasiga kiruvchi oila a’zolariga to‘lanadi. Otaonasi, eri (xotini), shuningdek pensioner bilan u vafot etgan kunigacha birgalikda yashab turgan oila a’zolari bu pulni, ular boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta‘minlanadiganlar doirasiga kirmaganlari taqdirida ham olish huquqiga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar, chunonchi:

- yoshidan qat’i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning belgilangan tartibdagi ro‘yxati;
 - umumiyligi beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning belgilangan tartibdagi ro‘yxati;
 - umumiyligi beradigan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning belgilangan tartibdagi ro‘yxati.
- Shuningdeq yoshidan qat’i nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar:
- kon sanoatidagi etakchi kasb egalari bo‘lgan xodimlar basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo‘lsalar ;

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g’risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g’risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

- bevosita er osti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, konqutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko‘mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo‘lsalar;

- uchuvchilar va uchuvchi sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko‘ra uchish ishlaridan bo‘shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo‘lsalar;

- teatrlar va boshqa teatrmosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari;
- sportchilarning ayrim toifalari ish stoji kamida 20 yil bo‘lganda.

Qonunchilikda belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik bo‘zilgan pakanalar – erkaklar ish stoji kamida 20 yil bo‘lganda, ayollar ish stoji kamida 15 yil bo‘lganda ega bo‘ladilar.

To‘liq pensiya tayinlash uchun etaricha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar bor stajga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi. Ish stoji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi pensiyalar bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ish stoji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi pensiyalar yoshga doir pensiyalar uchun eng kam oylik ish haqining 50 foizidan kam bo‘lmasligi lozim.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo‘llagan holda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqini qayta hisoblab chiqish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8sentyabrdagi 252-sonli “Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan amaldagi ish haqini ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo‘llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq tartibda belgilanadi.

2. Nogironlik pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini kafolatli himoya qilish eng muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifadir. Har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining sifat va miqdor ko‘rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining darajasidan dalolat beradi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida “Har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun jamg‘ar bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta’milanish huquqiga ega”⁴⁸ ekanligi ko‘rsatilgan. Bu aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi tomonidan ta’milanadi.

⁴⁸ Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004. – B.35.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2006 yil 13 dekabrdagi 61/106-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi Konventsya” hamda “Nogironlarning huquqlari to’g’risidagi Konventsiyaga Fakultativ protokol” ana shu xalqaro hujjatlarning asosiyлari hisoblanadi. Ularda nogironlarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatlarini rag’batlantirish va himoya qilish, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini va bu huquqlardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlash tamoyillari belgilab qo’ylgan. Ushbu Konventsiyada nogironlarning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalanish, ta’lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotda, bo’sh vaqtini o’tkazish, dam olish va sport bilan shug’ullanishda ishtirok etish, o’zlari va oilasi uchun etarlicha turmush sharoitiga ega bo’lish va ijtimoiy yordam huquqlari e’ti.rof etilgan va ularni amalga oshirishning huquqiy kafolatlari belgilangan. Bunda, ayniqsa, nogiron ayollar, bolalar va keksalar huquqlari va erkinliklarini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan. O’zbekiston Respublikasi hukumati Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi Konventsya”sini imzolagan. Mamlakatda nogironlarning barcha huquq va erkinliklarini ta’minalashning mustahkam huquqiy asoslari ham yaratilgan. 2008 yilda mamlakat parlamenti yangi tahrirdagi “O’zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi Qonunni qabul qilganligi, 2011 yilda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011–2015 yillarda yolg’iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi va ular ijrosi sobitqadamlik bilan ta’minalayotganligi — buning yaqqol dalolatidir. Mazkur amaldagi qonunchilikka muvofiq, davlat nogironlar turmush faoliyatining cheklanganligini baholash asosida, ularning ijtimoiy yordam hamda himoyaga bo’lgan ehtiyojlari hisobga olinishi ta’minalishini, nogironlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy himoya qilish dasturlari amalga oshirilishini, ularning jamiyat bilan uyg’unlashishi uchun sharoitlar yaratilishini ta’minalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko’rilishini kafolatlaydi.

Nogironligi bor shaxs bu jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxsdir. **Nogironligi bo’lgan bolalar** — jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj o’n sakkiz yoshgacha bo’lgan shaxslardir⁴⁹.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish — nogironlarga turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi, kompensatsiya qilishi uchun shart-sharoitlarni ta’milovchi hamda ularga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy,

⁴⁹ O’zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyul,o’rq-162-son “O’zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi Qonunidan 3-modda

ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir. Shaxsni, shu jumladan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan, o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish esa, tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari va tibbiy-maslahat komissiyalarini tuzish, shuningdek ular tomonidan xulosalar berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Davlat nogironlar turmush faoliyatining cheklanganligini baholash asosida ularning ijtimoiy yordam hamda himoya chora-tadbirlariga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olinishi ta'minlanishini, nogironlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turlaridagi dasturlar amalga oshirilishini, nogironlarning jamiyat bilan uyg'unlashishi uchun sharoitlar yaratilishini, nogironlarni kamsitishning barcha shakllaridan himoya qilishni ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rinishini kafolatlaydi.

Nogironligi bor shaxs bu jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxsdir. **Nogironligi bor bolalar** — jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslardir⁵⁰.

Nogironlarga tegishli asoslar mavjud bo'lganida nogironlik pensiyalari, boshqa hollarda esa nogironlik nafaqalari tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni 15- moddasiga ko'ra nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II- guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Nogironlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:

- ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
- ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomasi;
- ariza beruvchining jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005 yil 1 yanvardan keyin);
- baxtsiz hodisa va sog'liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to'g'risidagi hujjat yoki agar nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa — boshqa rasmiy hujjat.

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyul, O'RQ-162-soni "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonunidan 3-modda

• fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan ariza beruvchi yashash joyi bo‘yicha bir o‘zi yashashi (ro‘yxatdan o‘tkazilganligi) to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;

• tegishli organ tomonidan berilgan harbiy xizmatni, partizan otryadlari va qo‘shilmalarda bo‘lganlikni, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilganlikni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

• tegishli organ tomonidan berilgan, idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va kon-qutqaruv qismlaridagi xizmatni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

• band bo‘lgan shaxsga O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan berilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

• O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasasi tibbiy-maslahat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda TMK deb yuritiladi) tomonidan berilgan ariza beruvchining bolasi 16 yoshgacha nogiron bola deb e’tirof etilishini tasdiqlaydigan tibbiyot xulosasi yoki Tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (keyingi o‘rinlarda TMEK deb yuritiladi) tomonidan berilgan parvarish ostidagi shaxs I guruh nogironi deb tan olinishini tasdiqlaydigan nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomaning tegishli qismi;

• davolash-profilaktika muassasasining xulosasi asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan 80 yoshga to‘lgan keksalarga qarab turilgan vaqtini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;


• oliv ta’lim muassasalarida (shu jumladan o‘qish harbiy xizmatga tenglashtiriladigan harbiy ta’lim muassasalarida, shuningdek partiya maktablarida), aspiranturada (stajyorlar-tadqiqotchilar-izlanuvchilar institutida), doktoranturada (katta ilmiy xodimlar — izlanuvchilar institutida) va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qishni, shu jumladan chet elda o‘qishni tasdiqlaydigan diplom yoki ma’lumotnoma;

• bolani parvarish qilish bo‘yicha ta’til berilganligi va ta’tildan qaytilganligi to‘g‘risidagi buyruqlarning nussxalari ilova qilingan holda ayol kishi bola tug‘ilgandan boshlab u uch yoshga to‘lgungacha bo‘lgan davrda mehnat munosabatlarda bo‘lgan tashkilot (tashkilotlar) tomonidan berilgan bola uch yoshga to‘lgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

• ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar, praporshchiklar, michmanlar va muddatdan tashqari xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo‘limgan joylarda erlari bilan yashagan vaqtini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

• O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda bo‘lgan vaqtini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- ariza beruvchi urush qatnashchisi yoki unga tenglashtirilgan shaxs hisoblanishini tasdiqlaydigan hujjat;
 - davolash-profilaktika muassasasining ariza beruvchi gipofizar namizm bemori (liliput) yoxud disproportsional pakana ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;
 - familiya, ism, ota ismi o‘zgartirilganligi to‘g‘risidagi hujjat;
 - TMEKning nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomasining tegishli qismi — mehnatda yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida I va II guruhlar nogironi bo‘lgan vaqt stajga hisoblanadigan hollarda;
 - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan nogiron bola 8 yoshga to‘lgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma’lumotnomasi, shuningdek bola 8 yoshgacha nogiron bola deb e’tirof etilishini tasdiqlaydigan TMK tomonidan berilgan tibbiyot xulosasi, yoki TMK tomonidan berilgan nogironlikni belgilash uchun asos hisoblanadigan kasallik bo‘yicha davolash-profilaktika muassasasida hisobda turganlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;



6-rasm. Nogironlikning kelib chiqish sabablariga ko‘ra guruhanishi⁵¹

- oqlov hukmi yoki ish to‘xtatilganligi to‘g‘risida sudning ajrimi (qarori) yoki prokuror (tergovchi)ning ish to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi qarori, shuningdek oldini olish chorasi sifatida shaxsni tergov izolyatoriyada (turmada) qamoqda saqlash, qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish shaklida jazoni o‘tash davri to‘g‘risida tergov organlari yoki ichki ishlar organlarining ma’lumotnomasi,shuningdek reabilitatsiya to‘g‘risidagi hujjatlar (sud organlari, prokuratura organlari, surishtiruv va tergov organlarining oqlov hukmi chiqarilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi yoki reabilitatsiya qiluvchi asoslar bo‘yicha jinoyat ishi to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi qarori.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyaları nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi (1-jadvalga qaralsin). 20 yoshga to‘lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishslash to‘xtatilganidan keyin nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish

⁵¹ Mayjud me‘yoriy-huquqiy baza asosida muallif tomonidan tayyorlandi

stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

1-jadval

Nogironlik pensiyasini olish huquqini beruvchi ish staji⁵²

Yosh	Ish staji
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan (umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

I yoki II guruh nogironi bo'lib qolgan shaxsning, shuningdek vafot etgan, nogironlik boshlangan yoki vafot etgan vaqtida bir oydan kam ish stajiga ega bo'lgan boquvchining ish haqi ishlangan kunlar uchun ish haqi summasini ishlangan kunlar soniga bo'lish va olingan natijani ushbu oyning ish kunlari soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiyanı hisoblab chiqish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmis kalendar oydag'i ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqilgan umumiy miqdorini oltmisiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Agar nogironlik pensiyasini tayinlashda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish staji besh yildan kam bo'lsa pensiyani hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqi kalendar ish oylari uchun qayta hisoblangan ish haqi umumiy summasini ushbu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientini qo'llagan holda pensiyalarni hisoblab chiqish uchun ish haqini qayta hisoblab chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanganadi.

Pensiyanı hisoblash uchun qonun hujjatlarida pensiya tayinlanadigan sanaga belgilangan eng kam oylik ish haqining sakkiz baravari miqdoridan ortiq bo'lmagan summadagi o'rtacha oylik ish haqi qabul qilinadi. Pensiya tayinlash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lgan yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq mavjud bo'lmagan hollarda pensiya miqdori qonun hujjatlarida pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilingan kunda

⁵² O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarni pensiya ta'minoti to'g'risida" gi Qonuning 17 moddasiga asosan. 1993 yil 3 sentyabr (keyingi yillardagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda).

belgilangan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqib mintaqaviy koeffitsient hisobga olinmasdan hisoblab chiqiladi.

Pensiya miqdori ish staji davriga bog 'liq bo 'ladi va:

- pensiyaning bazaviy miqdoridan;
- ish staji uchun pensiya oshirilishidan;
- pensiyaga ustama haqlardan shakllanadi.

*Pensiyani hisoblash uchun bazaviy miqdorlari belgilanadi*⁵³: I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas.

Pensiya tayinlash uchun talab qilinadigandan ortiq ish stajining har bir to 'liq yili uchun pensiyalarning bazaviy miqdorlari: I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyalari — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foiziga teng. Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyasining bazaviy miqdori nogironlik bo‘yicha pensiya tayinlangan kunda nazarda tutilgan ish staji mavjud bo‘lganda oshiriladi.

*Pensiyaga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi*⁵⁴:

- I guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 150 foizi;
- II guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 125 foizi;
- ko‘rish bo‘yicha I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- II guruh yolg‘iz nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- urush qatnashchilariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- 1941 — 1945 yillardagi urush davrida front orqasida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 30 foizi.

Boshqa davlatdan kelgan shaxsning, shu jumladan ilgari O‘zbekiston Respublikasidan ketgan shaxsning pensiya hujjatlari yig‘majildini hisobga qabul qilib olishda, uning boshqa davlatda pensiya olganligidan qat’i nazar, pensiya miqdori hisobga qabul qilish to‘g‘risida murojaat qilingan vaqtida amalda bo‘lgan qonun hujjatlari talablariga muvofiq hisoblanadi.

Pensiya Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qilingan kundan boshlab hisoblab chiqiladi va to‘lanadi. Pensiya tayinlash masalalarini ko‘rib chiqish uchun pensiya jamg‘armasi bo‘limida pensiya tayinlash bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda komissiya deb ataladi) tuziladi. Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi. Komissiya boshqa zarur hujjatlar bilan birgalikda pensiya tayinlash to‘g‘risidagi ariza tushgandan keyin o‘n kun muddatda tegishli

⁵³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-sodn Qarori asosida

⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-sodn Qarori asosida

qaror qabul qiladi (pensiya tayinlash to‘g‘risida, pensiya tayinlashni rad etish haqida, taqdim etilgan hujjatlarning asoslanganligini tekshirish to‘g‘risida va shu kabilar). Agar ariza beruvchi pensiya olish huquqiga ega bo‘lgani holda pensiya tayinlash uchun murojaat qilishda nazarda tutilgan zarur hujjatlarni taqdim etmasa yoki taqdim etilgan hujjatlar ularning asoslanganligi va ishonchliligi yuzasidan qo‘srimcha tekshirishni talab qilsa, komissiya tomonidan ariza beruvchining yozma roziligiga ko‘ra shubha tug‘dirmaydigan mavjud hujjatlar bo‘yicha pensiya tayinlanishi mumkin. Agar ariza beruvchi shubha tug‘dirmaydigan mavjud hujjatlar bo‘yicha pensiya tayinlashga rozi bo‘lmasa, komissiya ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish tamom bo‘lgandan keyin pensiya tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Pensiya ishi komissiya tomonidan pensiya tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan kun mobaynida rasmiylashtirilishi kerak.

Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi, shuningdek pensiya hujjatlari shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Pensiya tayinlash rad etilgan taqdirda Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tegishli qaror chiqarilgandan keyin besh kundan kechikmay tashkilot yoki ariza beruvchiga rad etish sabablarini, qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi ko‘rsatilgan bildirishnomani berishi yoki yuborishi hamda barcha taqdim etilgan hujjatlarning asl nusxalarini hujjatlar olinganligi to‘g‘risidagi tilxat bilan pensionerning (ota-onaning, qonuniy vakilning) qo‘liga qaytarishi shart. Komissyaning qarori yuzasidan ariza beruvchi tomonidan Pensiya jamg‘armasi bo‘limining bevosita yuqori organiga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

To‘liq bo‘lmanish staj sharoitida pensiya nogironlik pensiyasi⁵⁵ — pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo‘lmanish umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruhlari nogironlariga (shu jumladan bolalikdan nogironlarga) tayinlanadi. Staj to‘liq bo‘lmanishdagi pensiya miqdori Qonunda belgilangan miqdorlardan past bo‘lishi mumkin emas. To‘liq bo‘lmanish staj holatida pensiya quyidagi tarzda mavjud stajga mutanosib ravishda hisoblab chiqiladi: dastlab tegishli to‘liq pensiya aniqlanadi; ushbu pensiya talab etiladigan ish staji oylari soniga bo‘linadi, olingan summa amaldagi ish staji oylari soniga ko‘paytiriladi. To‘liq bo‘lmanish staj holatida nogironlik pensiyasi — agar nogironlik belgilangan kundan boshlab uch oy ichida pensiya so‘rab murojaat etilgan bo‘lsa, TMEK nogironlikni belgilagan kundan e’tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya butun nogironlik davri uchun tayinlanadi. 60 yoshdan oshgan erkak va 55 yoshdan oshgan ayol nogironlarga — nogironlik pensiyalarini umrbod tayinlanadi. Ana shu nogironlarni qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi va nazarda tutilgan muddatlarga muvofiq tayinlanadi. Pensionerga rasmiy hujjat hisoblanadigan pensiya guvohnomasi beriladi.

Nogironlikning III guruhi belgilangan shaxslarga, shu jumladan 2011 yil 1 yanvardan keyin takroriy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgandan so‘ng nogironlikning III guruhi belgilangan shaxslarga nogironlik pensiyasi to‘lanmaydi. Qariyalar va

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

nogironlarning internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg‘iz pensionerlarga pensiya bilan ular ta’minoti uchun sarf-xarajat o‘rtasidagi farq, biroq tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi va urush nogironlariga esa — kamida 20 foizi to‘lanadi. Ruhiy bemorlar internat uylarida yashovchi pensionerlarga pensiya to‘lanmaydi.

Pensioner ruhiy bemorlar uchun davolash muassasalarida bo‘lgan vaqt uchun pensiya qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘yicha to‘lanadi. Pensioner tomonidan o‘z vaqtida talab qilib olinmagan pensiyaning hisoblangan summasi o‘tgan vaqt uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq pensiyalar miqdorlari oshirilishi hisobga olingan holda bir yo‘la to‘lanadi, biroq pensiya olish uchun murojaat qilishdan oldingi o‘n ikki oydan ortiq vaqt uchun emas. Pensiya jamg‘armasi bo‘limining aybi bilan o‘z vaqtida olinmagan pensiya summasi o‘tgan vaqt uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq pensiyalar miqdorlari oshirilishi hisobga olingan holda, muddat cheklanmasdan bir yo‘la to‘lanadi.

Tayinlangan pensiyani to‘lash pensioner vafot etganda, tayinlangan pensiyaga huquqlar yo‘qolganda, doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga chiqib ketilganda to‘xtatiladi. Tayinlangan pensiyani to‘lash pensiya to‘lash muddati tamom bo‘lganda, ketma-ket uch oydan ortiq vaqt mobaynida pochta aloqasi tashkiloti orqali pensiya olinmaganda, pensioner ozodlikdan mahrum etilganda, pensioner ruhiy bemorlar internat uylarida yashaganda, pensiyani to‘lashni to‘xtatib turish to‘g‘risida pensioner tomonidan ariza berilganda to‘xtatib turiladi. Tayinlangan pensiyani to‘lash qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham to‘xtatib turilishi mumkin. Pensiyani to‘lash pensioner yoki uning vasiysi Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga kelgandan so‘ng va u ariza taqdim etgandan, shuningdek shaxsini tasdiqllovchi hujjatni ko‘rsatgandan so‘ng tiklanadi.

Jabrlanganda kasbiy mehnat layoqati yo‘qotilishi darajasi TMEK tomonidan⁵⁶:

- mehnatda mayib bo‘lganda – Nogironlikning sabablari ro‘yxati asosida belgilanadi, bunda nogironlik mehnatda mayib bo‘lganlik oqibatida yuzaga kelgan deb hisoblanadi;

- kasb kasalligida –kasb kasalliklari ro‘yxati asosida belgilanadi. Bunda qonun hujjatlariga muvofiq maxsus vakolatli sog‘lijni saqlash muassasasining xulosasidan ko‘chirma ham taqdim etiladi.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasi quyidagi hujjatlar asosida qayta hisoblab chiqiladi:

- pensiyani o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza;
- shaxsning O‘zbekiston Respublikasi tashqarisida doimiy yashash joyini tasdiqlaydigan hujjat;
- O‘zbekiston Respublikasidan doimiy yashash joyiga ketish (bir davlatdan boshqa davlatga ko‘chib o‘tish) sanasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi.

Shaxsning O‘zbekiston Respublikasi tashqarisidagi doimiy yashash joyini tasdiqlaydigan hujjat O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi yoki

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-sont Qarori asosida

konsullik muassasasi yoxud xorijiy davlatning vakolatli organi (mansabdar shaxsi) tomonidan beriladi. Bunda xorijiy davlatning vakolatli organi (mansabdar shaxsi) tomonidan berilgan hujjat pensionerning doimiy yashash joyidagi davlatda O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan belgilangan tartibda legalizatsiya qilinishi kerak, bunday muassasa bo‘limgan taqdirda esa, pensionerning doimiy yashash joyi davlatining Tashqi ishlar vazirligi, ushbu mamlakatning O‘zbekiston Respublikasidagi konsullik muassasasi yoki diplomatik vakolatxonasi tomonidan legalizatsiya qilinishi, keyinchalik, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik boshqarmasida tasdiqlanishi kerak.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasini O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga o‘tkazish fuqaroning har bir yilning 31 dekabrida tirik ekanligini tasdiqlaydigan hujjat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparatiga taqdim etilishi sharti bilan amalga oshiriladi. Mehnatga layoqatsiz fuqarolarga (18 yoshga to‘limgan bolalarga, aka-ukalarga, opa-singillarga va nabiralarga) va sud tomonidan belgilangan tartibda huquqiy layoqatsiz deb e’tirof etilgan — ularning qonuniy vakillari pensiya oluvchilar hisoblanadigan fuqarolarga tayinlangan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyalarini to‘lash uchun fuqaroning tirik ekanligini tasdiqlaydigan hujjat pensiya oluvchi uchun va pensiya tayinlangan fuqaro uchun taqdim etiladi. Bunday hujjat O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi, xorijiy davlatning notariusi yoxud vakolatli organi (mansabdar shaxsi) tomonidan beriladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasini to‘lash O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘xtatib turiladi (to‘xtatiladi). Ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar taqdim etilgandan keyin mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasini to‘lash O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tiklanadi (qayta tiklanadi). Pensiya jamg‘armasi bo‘limi pensiya oluvchi doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga ketgandan keyin uning pensiya hujjatlar yig‘majildini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparatiga beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasini shaxsga u doimiy yashaydigan xorijiy davlatning bankidagi yoki boshqa moliya-kredit muassasasidagi hisob raqamiga o‘tkazishni xorijiy valyutada amalga oshiradi, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparatining xorijiy valyutadagi xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi

mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatidagi nogironlik pensiyasini o‘tkazish chet elga jo‘nab ketishdan oldin pensiya to‘langan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi⁵⁷. Chet elga o‘tkaziladigan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatidagi nogironlik pensiyasi summasi, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o‘zgacha hol belgilanmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining pensiya haqidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qayta hisoblab chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya ijro etuvchi apparati O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki orqali chet elga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida tayinlangan pensiyalar summasining o‘z vaqtida konvertatsiya qilinishi va jo‘natilishini ta’minlaydi.

3.Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibi

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini tayinlashni so‘rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:

- pensiya tayinlanayotgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi tug’ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport;
- oila a’zosining vafot etgan boquvchi bilan qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (nikoh to’g’risidagi guvohnoma, nikoh bekor qilinganligi to’g’risidagi guvohnoma, u bo’lmagan taqdirda — fuqarolik holati dalolatnomalaridagi yozuvdan ko’chirma, vakolatli tashkilotlarning yoki xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarining ma’lumotnomasi);
- boquvchining vafot etganligi to’g’risidagi guvohnoma yoki uning bedarak yo‘qolganligi to’g’risida sudning qarori;
- vafot etgan boquvchining ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
- vafot etgan boquvchining jamg’arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005 yil 1 yanvardan keyin);
- vafot etgan boquvchining ish haqi to’g’risidagi ma’lumotnomasi.

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining qaramog’idagi oila a’zolari tarkibi to’g’risidagi ma’lumotnomasi;

ta’lim muassasasining vafot etgan boquvchining oila a’zolari 16 — 18 yoshdagisi o’quvchilar hisoblanishi to’g’risidagi ma’lumotnomasi;

fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining ota-onalari, turmush o’rtog’i, buvasi, buvisi, akasi (ukasi) yoki opasi (singlisi) vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralariga, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta’tilda bo’lish huquqini beradigan yoshga

⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

to'lunga qadar boqish bilan bandligini va ishlamayotganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi;

baxtsiz hodisa va sog'liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to'g'risidagi hujjat yoki agar boquvchining vafoti mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa — boshqa rasmiy hujjat;

a) tegishli organ tomonidan berilgan harbiy xizmatni, partizan otryadlari va qo'shilmalarda bo'lganlikni, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilganlikni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

b) tegishli organ tomonidan berilgan, idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va kon-qutqaruv qismlaridagi xizmatni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

v) band bo'lgan shaxsga O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan berilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langanligini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

g) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasasi tibbiy-maslahat komissiyasi (keyingi o'rnlarda TMK deb yuritiladi) tomonidan berilgan ariza beruvchining bolasi 16 yoshgacha nogiron bola deb e'tirof etilishini tasdiqlaydigan tibbiyat xulosasi yoki Tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (keyingi o'rnlarda TMEK deb yuritiladi) tomonidan berilgan parvarish ostidagi shaxs I guruh nogironi deb tan olinishini tasdiqlaydigan nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomaning tegishli qismi;

d) davolash-profilaktika muassasasining xulosasi asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan keksalarga qarab turilgan vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

e) oliv ta'lim muassasalarida (shu jumladan o'qish harbiy xizmatga tenglashtiriladigan harbiy ta'lim muassasalarida, shuningdek partiya muktabalarida), aspiranturada (stajyorlar-tadqiqotchilar-izlanuvchilar institutida), doktoranturada (katta ilmiy xodimlar — izlanuvchilar institutida) va klinik ordinaturada kunduzgi o'qishni, shu jumladan chet elda o'qishni tasdiqlaydigan diplom yoki ma'lumotnoma;

j) bolani parvarish qilish bo'yicha ta'til berilganligi va ta'tildan qaytilganligi to'g'risidagi buyruqlarning nusxalari ilova qilingan holda ayol kishi bola tug'ilgandan boshlab u uch yoshga to'lzungacha bo'lgan davrda mehnat munosabatlarda bo'lgan tashkilot (tashkilotlar) tomonidan berilgan bola uch yoshga to'lunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

z) ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslar, praporshchiklar, michmanlar va muddatdan tashqari xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo'limgan joylarda erlari bilan yashagan vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma;

^{z'} O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat

safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda bo'lgan vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnomasi;

i) ariza beruvchi urush qatnashchisi yoki unga tenglashtirilgan shaxs hisoblanishini tasdiqlaydigan hujjat;

k) davolash-profilaktika muassasasining ariza beruvchi gipofizar nanizm bemori (liliput) yoxud disproportsional pakana ekanligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

l) familiya, ism, ota ismi o'zgartirilganligi to'g'risidagi hujjat;

m) TMEKning nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomasining tegishli qismi — mehnatda yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida I va II guruhlar nogironi bo'lgan vaqt stajga hisoblanadigan hollarda;

n) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan nogiron bola 8 yoshga to'lgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnomasi, shuningdek bola 8 yoshgacha nogiron bola deb e'tirof etilishini tasdiqlaydigan TMK tomonidan berilgan tibbiyot xulosasi, yoki TMK tomonidan berilgan nogironlikni belgilash uchun asos hisoblanadigan kasallik bo'yicha davolash-profilaktika muassasasida hisobda turganlik to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

o) oqlov hukmi yoki ish to'xtatilganligi to'g'risida sudning ajrimi (qarori) yoki prokuror (tergovchi)ning ish to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori, shuningdek oldini olish chorasi sifatida shaxsni tergov izolyatoriyada (turmada) qamoqda saqlash, qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish shaklida jazoni o'tash davri to'g'risida tergov organlari yoki ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi, shuningdek reabilitatsiya to'g'risidagi hujjatlar (sud organlari, prokuratura organlari, surishtiruv va tergov organlarining oqlov hukmi chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi yoki reabilitatsiya qiluvchi asoslar bo'yicha jinoyat ishi to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori (ajrimi);

p) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuman (shahar) Bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazining shaxsni ishsiz deb e'tirof etish to'g'risidagi taqdimnomasi.

Boquvchi-pensioner vafot etgan taqdirda ushbu bandda ko'rsatilgan zarur hujjatlar taqdim etilishi kerak, vafot etganning pensiyaga oid hujjatlar yig'majildida mavjud bo'lgan hujjatlar bundan mustasno.

Pensiya jamg'armasi bo'limi arizaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqi nogironlik oqibatida beriladigan oilaning katta yoshdagи a'zosiga TMEKdan olingan nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomaning tegishli qismini ilova qiladi.

Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxs tomonidan pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limi ushbu hujjatlarni tegishli tashkilotlardan talab qilish yuzasidan yordam ko'rsatadi.

Pensiya ustama haq (qo'shimcha) belgilash huquqi mayjud bo'lgan taqdirda pensiya tayinlash to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) ariza beruvchi I yoki II guruh urush nogironi ekanligini tasdiqlaydigan hujjat;

b) I guruh nogironlikni belgilash to'g'risida TMEKning nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomasining tegishli qismi;

v) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan ariza beruvchi yashash joyi bo'yicha bir o'zi yashashi (ro'yxatdan o'tkazilganligi) to'g'risidagi ma'lumotnomasi, shuningdek II guruh nogironlikni belgilash to'g'risida TMEKning nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomasining tegishli qismi;

g) ariza beruvchining urush qatnashchisi yoki unga tenglashtirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydigan hujjat;

d) ariza beruvchining 1941 — 1945 yillardagi urush davrida front ortida ishlaganligini va harbiy majburiyatlarni bajarganligini tasdiqlaydigan hujjat;

e) tegishli organ tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining o'limi harbiy xizmat majburiyatlarini yoki ichki ishlar organlarida xizmatni bajarish bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydigan ma'lumotnomasi, shuningdek vafot etgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki vafot etgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimi bilan tuzilgan er-xotin(lar) nikohi to'g'risidagi guvohnoma;

j) «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi hujjat;

z) faxriy unvon berilganligi to'g'risidagi guvohnoma.

Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirish va taqdim etish masalalari bo'yicha tushuntirishlar va ma'lumotnomalar berishi shart. Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilishda pensiya tayinlanayotgan shaxsning pasporti (istiqomat uchun berilgan guvohnoma) taqdim etilishi kerak. Pasporti bo'limgan voyaga etmagan bolalarga nisbatan tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma taqdim etiladi. Qonuniy vakilning arizasiga tuman (shahar) hokiminining vasiylik yoki homiylikni tayinlash to'g'risidagi qarori ilova qilinadi. Ota-onada yoki qonuniy vakil pasportni taqdim etadi. Ariza beruvchining urush ishtirokchisi ekanligini tasdiqlovchi hujjat sifatida 1941 — 1945 yillardagi urush qatnashchisining guvohnomasi, baynalmilalchi jangchilarga beriladigan imtiyoz olish huquqi haqidagi guvohnoma, shuningdek, ularning urush ishtirokchisiga tenglashtirilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qabul qilinadi.

1941 — 1945 yillardagi urush va boshqa urushlar davrida harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tagan, shuningdek O'zbekiston Respublikasini himoya qilishda ishtirok etgan harbiy xizmatchilar «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 28-moddasi [«**ej** bandiga](#) muvofiq pensiyalarga ustama pul olishga haqli shaxslar kiritiladi.

Quyidagilar urush qatnashchilariga tenglashtiriladilar:

- 1941 yilning 22 iyunidan 1954 yilning 31 dekabrigacha bo'lgan davrda qiruvchi batalonlar, vzvodlar va xalqni himoya qiluvchi otryadlar tarkibida sobiq SSSR hududida jangovar harakatlarda ishtirok etgan shaxslar;
- 1941 — 1945 yillardagi urush davrida partizan otryadlari va qo'shilmalarida yoki yashirin ishlarda bo'lgan shaxslar;

- 1941 — 1945 yillardagi urush davrida harakatdagi armiya tarkibida yoki harakatlar ketayotgan joylarda xizmatni o'tagan sobiq SSSRning Ichki ishlar vazirligi organlari va Davlat xavfsizligi qo'mitasi organlarining boshliqlar hamda oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;
- 1941 — 1945 yillardagi urush davrida harakatdagi armiya va flotlar tarkibidagi qismlar hamda bo'linmalarda balog'at yoshiga etgunga qadar polk o'g'illari va yungalar sifatida yurgan shaxslar;
- 1941 — 1945 yillardagi urush davrida temir yo'llarning front yaqinidagi uchastkalarida, mudofaa chizig'i inshootlarida ishlagan, harbiy-dengiz bazalari, aerodromlar hamda harbiy harakatlar ketayotgan joylardagi boshqa harbiy ob'ektlar qurilishi ishlarida qatnashgan xodimlar;
- harakatdagi armiya tarkibida ishlagan yollanma xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;
- 1941 — 1945 yillardagi urush davrida fashist kontslagerlari (getto va zo'rlik bilan ushlab turiladigan boshqa joylar)da bo'lgan (tutqunlar, shu jumladan, bolalar) shaxslar;
- Leningrad shahri qamali davrida shaharning korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida mehnat qilgan va «Leningrad mudofaasi uchun» medali hamda «Qamaldagi Leningrad fuqarosiga» nishoni bilan taqdirlangan shaxslar;
- 1956 yilning 24 oktyabridan 1956 yilning 10 noyabrigacha bo'lgan davrda Vengriya hududidagi jangovar harakatlar davrida harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilar;
- harbiy harakatlar ketayotgan mamlakatlarda o'z baynalmilal burchlarini ado etgan, tinchlik o'rnatuvchi kuchlar tarkibida ishtirok etgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar.

Fuqarolarning boquvchisini yo'qotganlik pensiya olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolari vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlar va oila a'zolari, agar ular marhumning to'liq boquvida bo'lgan yoki undan yordam olib turgan bo'lsalar, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'inining manbai hisoblangan bo'lsa, marhumning qaramog'ida turgan deb hisoblanadilar.

Marhumning biron turdag'i pensiya olayotgan oila a'zolari, agar marhumning yordami ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'inining manbai hisoblangan bo'lsa boquvchisini yo'qotganlik pensiyasiga o'tish huquqiga egalar va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi ular boquvchining qaramog'ida turgan turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadilar⁵⁸:

- bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to'lman bo'lsa yoki 16 yoshdan katta bo'lsa ham 16 yoshga to'lmasdan nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo'lmasa;

- ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan yoki nogiron bo'lsalar;

- yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er(xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa;

- buva va buvi agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa.

O'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga etmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar. O'gay o'g'il va o'gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar. O'gay ota va o'gay ona, agar vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) 18 yoshga to'lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo'lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Basharti, boquvchi vafot etgan kunga qadar unga nogironlik pensiyasi tayinlanishi uchun zarur ish stajiga ega bo'lgan bo'lsa, umumiy kasallik yoki ish bilan bog'liq bo'lman mayiblanish oqibatida vafot etgan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanadi.

*Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak*⁵⁹:

• pensiya tayinlanayotgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport;

• oila a'zosining vafot etgan boquvchi bilan qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (nikoh to'g'risidagi guvohnoma, nikoh bekor qilinganligi to'g'risidagi guvohnoma, u bo'lman taqdirda — fuqarolik holati dalolatnomalaridagi yozuvdan ko'chirma, vakolatli tashkilotlarning yoki xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarining ma'lumotnomasi);

• boquvchining vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma yoki uning bedarak yo'qolganligi to'g'risida sudning qarori;

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

- vafot etgan boquvchining ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
 - vafot etgan boquvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005 yil 1 yanvardan keyin);
 - vafot etgan boquvchining ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.
- Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi⁶⁰:*
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining qaramog‘idagi oila a’zolari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;
 - ta’lim muassasasining vafot etgan boquvchining oila a’zolari 16 — 18 yoshdagи o‘quvchilar hisoblanishi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;
 - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining ota-onalari, turmush o‘rtog‘i, buvasi, buvisi, akasi (ukasi) yoki opasi (singlisi) vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralariga, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta’tilda bo‘lish huquqini beradigan yoshga to‘lgunga qadar boqish bilan bandligini va ishlamayotganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi;
 - baxtsiz hodisa va sog‘liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to‘g‘risidagi hujjat yoki agar boquvchining vafoti mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa — boshqa rasmiy hujjat;
 - shuningdek qonunchilikda belgilangan vafot etgan boquvchining nomiga rasmiylashtirilgan (yozilgan) hujjatlar.

Boquvchi-pensioner vafot etgan taqdirda ushbu bandda ko‘rsatilgan zarur hujjatlar taqdim etilishi kerak, vafot etganning pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildida mavjud bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno.

Boshqa mamlakatlardan ko‘chib kelgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining oilalariga, basharti, boquvchi O‘zbekiston Respublikasida ishlamagan bo‘lsa, pensiyalar quyidagi hollarda tayinlanadi:

- a) boshqa mamlakatlarda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olgan oilalarga boquvchisining ish stajidan qat’i nazar;
- b) pensiya olmagan oilalarga basharti, boquvchi ishslash to‘xtatilgan kunga qadar tegishli stajga ega bo‘lgan bo‘lsa, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan taqdirda esa boquvchining ish stajidan qat’i nazar.

Umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini to‘liq tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega boquvchisini yo‘qotgan oila a’zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasining tayanch miqdori:

- oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a’zosiga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

ota-onasidan judo bo‘lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg‘iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida belgilanadi. Bunda agar ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi miqdori har ikkala ota-onaning umumiy ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi miqdoridan ko‘p bo‘lsa, u holda, chin etim maqomini saqlab qolgan holda, murojaat etganning xohishi bo‘yicha ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan pensiyaning eng ko‘p miqdori tayinlanadi.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Yoshga doir pensiya ta’mnoti tizimidagi isloxtatlarni izohlab bering.
2. Nogironlik pensiya ta’mnotidagi asosiy muammolar nimalarda o’z aksini topadi deb uylaysiz?
3. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini tayinlash mexanizmini iizohlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
6. Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G‘aznachilik. Darslik. T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.
7. Qosimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 448 b.
8. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’mnoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
9. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник- М.: «Dashkov i K», 2009. – 576 стр.
10. Федотов Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник.- 2е изд.– М.: «Dashkov i K», 2010. – 396 стр.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulot maqsadi tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotlar respublikamizdagi ilg'or korxona va tashkilotlarda o'tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida tinglovchilar kadrlarni innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanishi, korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish, O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanishi to'g'risida amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1 - amaliy mashg'ulot: Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati.

Dars shakli baxs-munozara. Ishning maqsadi tinglovchilarda pensiya ta'minoti modellari, pensiya ta'minotining ahamiyati va mohiyatini hamda ushbu tizimdagagi ijtimoiy siyosatning mazmunini muhokama etish va ko'nikma hosil etishdan iborat.

Ishni bajarish uchun quyidagi masalalar muhokama etiladi:

1. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda pensiya ta'minotining o'rni.
2. Davlat pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari.
3. Davlat pensiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari.

❖ Muhokama uchun savollar

Tayanch so'zlar: Ijtimoiy siyosat, passiv ijtimoiy siyosat, aktiv ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot, davlat pensiyalari, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy himoya, davlat moliyasi, pensiya qonunchiligi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

6. Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G‘aznachilik. Darslik. T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.

7. Qosimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 448 b.

8. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’mnoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.

9. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник- М.: «Dashkov i K», 2009. – 576 стр.

10. Федотов Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник.- 2е изд.– М.: «Dashkov i K», 2010. – 396 стр.

11. Карчевский В.В. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды– М.: «Вузовский учебник», 2011. – 224 стр.

Internet saytlari.

1. www.lex.uz (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi);
2. www.treasury.uz (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi);
3. www.gov.uz (O’zbekiston Respublikasining Hukumat portali);
4. www.mf.uz (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
5. www.stat.uz (O’zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
6. www.soliq.uz (O’zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasi);
7. www.xalqbank.uz (O’zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki);
8. www.mehnat.uz (O’zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi);
9. www.pfru.uz (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi);
10. www.norma.uz (Norma axborot-huquqiy portalı).

2-amaliy mashg’ulot: O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi davlat pensiyalarini va nafaqalarini to’lovchi jamg’arma sifatida.

Dars shakli: Debat usuli. Ishning maqsadi O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi faoliyatidagi muammolarni ilgari surish va muhokama etish.

Quyidagi masalalar o'rtaga tashlanadi:

1. Davlat pensiya ta'minotini boshqaruv organlari, ularning vazifalari va vakolatlari
- 2.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyati, uning huquqlari va vazifalari
3. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini moliyalashtirish manbalari
4. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining shakllanish va ishlatalish amaliyoti tahlili

Tayanch so'zlar: byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, davlat pensiya ta'minoti tizimi, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug'urta, nogironlik pensiyalari, nogironlik guruhlari, pensiya, pensiya miqdori

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M.Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.
6. Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. Darslik. T.: "Sano-standart", 2014. – 272 b.
7. Qosimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 448 b.
8. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: "Tamaddun", 2015. – 108 b.
9. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник- М.: «Dashkov i K», 2009. – 576 стр.
10. Федотов Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник.- 2е изд.– М.: «Dashkov i K», 2010. – 396 стр.
11. Карчевский В.В. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды– М.: «Вузовский учебник», 2011. – 224 стр.

Internet saytlari.

1. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi);
2. www.treasury.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G’aznachiligi);
3. www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali);
4. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
5. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
6. www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasi);
7. www.xalqbank.uz (O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki);
8. www.mehnat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi);
9. www.pfru.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi);
10. www.norma.uz (Norma axborot-huquqiy portali).

3-amaliy mashg’ulot: Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafalarni hisoblash va to’lash tartibi.

Dars shakli: Debat usuli. Ishning maqsadi Davlat pensiyalari turlari bo'yicha (yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalar, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar) ularni tayinlash va to'lash tizimidagi asosiy muammolarni muhokama etish.

Quyidagi masalalar o'rtaga tashlanadi:

1. Yoshga doir pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi
2. Nogironlik pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi
3. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi
4. Davlat ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tatibi

Tayanch so'zlar: byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, davlat pensiya ta'minoti tizimi, pensiya, pensiya miqdori, nogironlik pensiyalar, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalar, yoshga doir pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M.Taqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
6. Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. Darslik. T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.
7. Qosimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 448 b.
8. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
9. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник- М.: «Dashkov i K», 2009. – 576 стр.
- 10.Федотов Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник.-2е изд.– М.: «Dashkov i K», 2010. – 396 стр.
11. Карчевский В.В. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды– М.: «Вузовский учебник», 2011. – 224 стр.

Internet saytlari.

1. www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi);
2. www.treasury.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi);
3. www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali);
4. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
5. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi).
6. www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi);
7. www.xalqbank.uz (O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki);
8. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi);
9. www.pfru.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi);
10. www.norma.uz (Norma axborot-huquqiy portalı).

**V. KEYSALAR BANKI
NAMUNA**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar” o'quv kursining
“Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va
mohiyati” mavzusi bo'yicha tayyorlangan**

KEYS- STADI

Keys: “Xorijiy mamlakatlar pensiya ta'minotidagi islohotlar”

Toshkent – 2018

Kirish

Xorijiy mamlakatlar pensiya fondlari aktivlari kanadaliklar uchun daromad manbai hisoblansa, jahon iqtisodiyotida mazkur fondlar aktivlari investitsion kapital sifatida e'tirof etiladi. Kanada pensiya ta'minoti tizimi Kanada moliya tizimi jami kapitalining qariyb 15 foiz, yoki 1,5 trln. ulushiga egalik qildi. Kanada pensiya ta'minoti tizimida faoliyat olib borayotgan pensiya fondlari, xususan yirik pensiya fondlari hisoblangan katta sakkizlik pensiya fondlari mamlakat ichki iqtisodiyotida pensiya fondlari investitsion kapitalining 3/2 qismiga egalik qilib, ular 1 trln.dan ziyod investitsion mablag'ga ega bo'lgan fondlar hisoblanadi.⁶¹ Mazkur fondlarning mamlakat iqtisodiyotiga uzoq muddatli investitsiyalarni kiritish strategiyasini amalgamoshirilishida o'rni beqiyos hisoblanib, ular investitsion bozorda ham muhim ahamiyat kasb etadilar.

Katta sakkizlik fondlariga quyidagilar kiradi: the Canada Pension Plan Investment Board (CPPIB), Caisse de dépôt et placement du Québec (CDPQ), the Ontario Teachers' Pension Plan (OTPP), the British Columbia Investment Management Corporation (bcIMC), the Public Sector Pension Investment Board (PSPIB), the Alberta Investment Management Corporation (AIMCo), Ontario Municipal Employees Retirement System (OMERS) va the Healthcare of Ontario Pension Plan (HOOPP). Katta sakkizlik qatoriga kirgan ushbu fondlarning investitsion aktivlari hajmi 64 mlrd. dollardan 265 mlrd. dollargacha bo'lgan miqdorda shakllangan. Ushbu fondlarning barchasi dunyodagi katta pensiya fondlari 100 taligi va ularning uchtasi katta 20 talik qatoriga kiradi.⁶²

Tavsiya etilgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- Kanada pensiya fondlarining moliyaviy holatini hisoblash uslubiyatini o'zlashtirish darajasini tekshirish.

VAZIYAT

Pensiya fondlarining amalga oshirayotgan moliyaviy siyosatiga nazar soladigan bo'lsak, ularning egalik qilayotgan investitsion aktivlari hajmi va ulardan foydalanish jarayonidagi mamlakatdagi boshqa moliyaviy institutlar bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati namoyon bo'ladi. Investtsion dasturlarni moliyalashtirishda Kanadadagi katta sakkizlik pensiya fondlari mamlakatdagi yirik banklar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bu esa o'z navbatida mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari mamlakat miqqosida fuqarolarga nisbatan turli pensiya dasturlari xizmatlarini taklif etadilar. Shu bilan bir qatorda ular ish beruvchi va ishchi hodimlarga nisbatan turli imtiyozlarni joriy etish orqali aholi o'rtasida pensiya sug'urtasi badallarini to'lashni rag'batlantirgan tarzda katta salmoqdagi moliyaviy aktivlarga egalik qilib kelmoqdalar.

⁶¹ Kanada davlat pensiya ta'minoti tizimi va moliya tizimi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida

⁶² Consulting Group, "The Top 10: Investing for Canada on the World Stage," February 2016.

2008 yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan so'ng katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari aktivlari hajmida 2009 yilga kelib pasayish holati kuzatildi.

Mazkur holat rivojlangan mamlakatlarda vujudga kelgan ishsizlik, iqtisodiy beqarorlik va o'z o'rnida pensiya fondlariga sug'urta badallari oqimining qisqarishi bilan bir qatorda ularning xarajatlarining ortib ketishi bilan ifodalanadi.

Vaziyatda keltirilgan holat bo'yicha sizningcha qanday yo'l tutishi kerak?

SAVOLLAR VA TOPShIRIQLAR:

1. Kanadada pensiya ta'minoti mablag'lariga moliyaviy inqiroz qay darajada ta'sir qilgan?
2. Kanadada pensiya fondidagi mablag'lar qanchani tashkil qilgan?
3. Kanada pensiya fondi mablag'larini qaytadan shakllantirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?
4. Kanada pensiya fondi xarajatlarni qisqartirish kerakmi yoki sug'urta badalini stavkasini oshirish kerakmi?
5. Siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?



**AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA-BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH
BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR**
Talabalarga yo'riqnomा

Ish bosqich-lari	Maslahatlar va tavsiyalar
Keys bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. "Kanada pensiya fondlarining moliyaviy siyosati" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
Berilgan vaziyat bilan tanishish	Maъlumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Vaziyatning har bir bandini sinchkovlik bilan o'rganib, ularga pensiya qonunchiligi asosida baho bering. Kanada pensiya fondlarining moliyaviy siyosatining har bir elementiga diqqatingizni jalg qiling. Ushbu vaziyatning har bir holatiga pensiya qonunchiligidan javob toping.
Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichiklarga diqqatingizni jalg qiling. Kanada pensiya fondlarining moliyaviy siyosatiga doir pensiya qonunchiligini sinchkovlik bilan tahlil qiling va vaziyatning har bir bandiga doir o'z fikringizni shakllantiring. Vaziyatga doir fikrlaringizni soliq qonunchiligi bilan asoslang va o'zingizga ishonch hosil qiling. O'zingizni soliq maslahatchisi sifatida his qilib, vaziyatda keltirilgan xodimga amaliy yordam ko'rsata olishingizni va olgan bilimlaringiz orqali kimningdir muammosini hal qilayotganingizga ishonch hosil qiling.
Muammoli vaziyatni echish usul va vosita-larini tan-lash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida Kanada pensiya fondlarining moliyaviy holatini hisoblash uslubiyatidan foydalanib, qo'yilgan savollarga javob bering va topshiriqlarni bajarishga kirishing. Muammoni echish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning echimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq echimini toping. Keys bilan ishslash natijalarini yozma shaklda keltiring va xodimga to'ri yo'l ko'rsating. Vaziyatda keltirilgan savol va topshiriqlarning javoblarini asoslab bering.

Keys bilan ishslash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari
(mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

**Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun
baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

Talabalar Ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obъekti aniqlangan mak. 0,5 ball	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 0,5 ball	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan mak. 0,5 ball	Jami mak. 1,5 ball

**Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash
mezonlari va ko'rsatkichlari**

Talabalar Ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obъekti aniqlangan mak. 0,5 ball	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 0,5 ball	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan mak. 0,8 ball	Jami mak. 1,8 ball

1,8-1,5 ball – айло, 1,4- 1,2 ball – yaxshi, 1,1- 1,0 ball – qoniqarli

O'quv-uslubiy materiallar




ForexAW.com

Echish ketma-ketligi

1. Kanada pensiya fondlarining moliyaviy holati tahlil qilinadi, muammo va uni echish ketma-ketligi, asosiy vazifalari bilan tanishiladi.
2. Ushbu vaziyatni oldini olish maqsadida pensiya fondlari o'zlari egalik qilayotgan aktivlar ustidan yillik nazoratni o'rnatiladi.
3. Pensiya fondlari daromadlari va xarajatlari, jumladan investitsion kapitalning maqsadli yo'naltirilishini kuchli nazorat ostiga oladilar.
4. Keysdagi holatlarni aniqlashtiriladi.
5. Kanada pensiya qonunchiligi asosida moliyaviy inqiroz holatidan chiqish kerak bo'lган vazifalar ketma-ketligi ko'rsatiladi.


1-ilova.

**Kanada katta sakkizlik pensiya fondlarining investitsion kapitali hajmi
Kanada doll. trln.**



2-ilova.

**Katta sakkizlik pensiya fondlari aktivlari tarkibi
Jami investitsion aktivlarga nisbatan foizda**




3-ilova.

Kanada pensiya fondlarining katta hajmdagi investitsion aktivlarini ko'chmas multk, infrastruktura obъektlari va davlat miqyosidagi investitsion dasturlarga yo'naltirishiga sabab, 2008 yilda yuz bergen jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hisoblanadi. ular ushbu faoliyat orqali o'z daromadlari likvidliliqi darajasini ortishiga erishdilar. So'nggi 10 yil mobaynida Kanada pensiya fondlarining o'rtacha rivojlanish ko'rsatkichi 6 foizdan kam surъatlarda bo'lindi. So'nggi uch yilda mazkur ko'rsatkich 8 foizni qayd etdi.

Kanada pensiya fondlari yirik banklar bilan hamkorlikda qimmatli qog'ozlar bozorida aktivlarni sotib olish, ularni qayta sotib olish faoliyatini amalga oshirib kelmoqdalar. Bu esa o'z navbatida pensiya fondlarining o'rnatilgan daromad darajasi likvidliliqi oshirish dastagi bo'lib xizmat qilmoqda. 2015 yil mobaynida kanada pensiya fondlari jami aktivlarining 15-30 foizi miqdoridagi qismini qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki ularni qayta sotib olish, investitsion dasturlarni qayta moliyalashtirish faoliyatiga yo'naltirdilar (3-rasm).

3-rasm. Kanada pensiya fondlari va banklarining qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish va investitsion dasturlarni qayta moliyalashtirish faoliyatiga yo'naltirigan xarajatlari dinamikasi



— Kanada pensiya fondlarining qayta sotib olish, qayta moliyalash faoliyatiga yo'naltirigan xarajatlari
— Kanada banklarining qayta sotib olish, qayta moliyalash faoliyatiga yo'naltirigan xarajatlari

Kanada pensiya fondlarining moliyaviy aktivlarni boshqarish va ularni investitsion dasturlarga yo'naltirish strategiyasi to'g'ri va maqsadli tarzda amalga oshirilib kelinayotganligi sababli, yuqori rivojlanish ko'rsatkichiga erishib kelmoqdalar. Jahon amaliyotga nazar soladigan bo'lsak, so'nggi o'n yil mobaynida mazkur ko'rsatkich boshqa rivojlangan mamlakatlarda 4 foizdan ortmaganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bugungi kunda Kanada pensiya fondlari uzoq muddatli investitsion dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilma obъektlariga yirik investitsiyalar kiritish bilan shug'ullanib kelmoqdalar.

Auditoriyada bajarish uchun 1-amaliy topshiriq: Xorijiy davlatlarda sezilarli darajada iqtisodiy va demografik o'zgarishlar yuz berayotganligi pensiya ta'xminoti qamrovi miqyosiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli bu mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshining qanday belgilanishi muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan jahonning bir qator mamlakatlarida pensiyaga chiqish yoshi va o'rtacha pensiya miqdorlarini aks ettiruvchi jadval tayyorlang va xulosa yozing.

Jahon mamlakatlarida pensiyaga chiqish yoshi hamda o'rtacha pensiya miqdorlari

Mamlakat	Pensiya yoshi (erkak/ayol)	Pensiya miqdori (\$)
Daniya		
Norvegiya		
Ispaniya		
...		

Auditoriyada bajarish uchun 2-amaliy topshiriq: Xorijiy davlatlarda pensiya ta'xminotining holatlarini bu mamlakatlarda pensiya dasturlariga YaIMning qancha qismi yo'naltirilishi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan jahonning bir qator mamlakatlarida pensiya ta'xminoti tizimiga davlat xarajatlarining ulushini aks ettiruvchi jadval tayyorlang va xulosa yozing.

Jahon mamlakatlarida pensiya ta'xminoti tizimiga davlat xarajatlari (YaIMga nisbatan foizda)

Nº	Mamlakat	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2030 y.	2040 y.	2050 y.
1.	Avstriya						
2.	Belgiya						
3.	Chexiya						
4.	Daniya						
5.	Estoniya						
6.	Finlyandiya						
7.	Frantsiya						
8.	Germaniya						
9.	Gretsiya						
10.	Vengriya						
11.	...						

Auditoriyada bajarish uchun 3-amaliy topshiriq: Pensiya ta'xminoti tizimining rivojlanishini quyidagi jadvalni to'ldirish orqali tahlil qiling va xulosa yozing.

Pensiya ta'xminoti tizimining rivojlanishi

Pensiya ta'xminotining Turi	Davr	Mamlakatlar	Jarayon
	1889	Prussiya	
	1891	Daniya	
	1889	Yangi Zelandiya	

Taqsimlanuvchi pensiya tizimi	1908	Buyuk Britaniya	
	1910	Frantsiya	
	1913	Shvetsiya	
	1919	Italiya	
	1919	Gollandiya	
	1924	Chili	
	1927	Kanada	
	1935	AQSh	
	1954	Yaponiya	

Auditoriyada bajarish uchun 4-amaliy topshiriq: Xorijiy davlatlarda sezilarli darajada iqtisodiy va demografik o'zgarishlar yuz berayotganligi pensiya ta'xminoti qamrovi miqyosiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli bu mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshining qanday belgilanishi muhim hisoblanadi. Jahonning bir qator mamlakatlarida pensiyaga chiqish yoshi va o'rtacha pensiya miqdorlarini aks ettiruvchi jadval tayyorlang va xulosa yozing.

Jahon mamlakatlarida pensiyaga chiqish yoshi hamda o'rtacha pensiya miqdorlari

Mamlakat	Pensiya yoshi (erkak/ayol)	Pensiya miqdori (\$)
Daniya		
Norvegiya		
Ispaniya		
...		

Guruqlar uchun topshiriqlar

1-guruh

1. Jahonda pensiya sug'urtasini shakllanishiga qanday zaruriyat tug'ildi?
2. "Nodalat pensiya ta'xminoti" tushunchasiga klaster tuzing.

2-guruh.

3. Xorijiy davlatlarda xarbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlarining tarkibidan bo'lgan shaxslarining, sudyalarning va prokuratura organlari harbiy unvonlarga ega bo'lgan fuqarolarining pensiya ta'xminotini tushuntiring.
4. "Davlat pensiya ta'xminoti" tushunchasiga klaster tuzing.

3-guruh.

1. Xorijiy davlatlarning ijtimoiy ta'xminotida pensiya ta'xminotining o'rni va ahamiyatini izohlang.
2. "Aralash pensiya ta'xminoti» tushunchasiga klaster tuzing

2.4. Nazorat topshiriqlari va mustaqil ta'lim yuzasidan ko'rsatmalar Nazorat topshiriqlari

1. Xorijiy davlatlarda ijtimoiy siyosat yo'nalishlari va ularni amalga oshirishga mas'ul ijtimoiy institutlar haqida gapirib bering?
2. Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari modellari qaysilar?
3. Xorijiy davlatlarda davlat va nodavlat pensiya tizimlarining farqini aytib bering?
4. Majburiy va ixtiyoriy pensiya ta'xminoti nima?
5. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari pensiya ta'xminoti tizimlarining o'ziga hos xususiyatlari va pensiya tizimlaridagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari qaysilar?

Xorijiy davlatlar pensiya tizimlarini tashkil etish va fuqarolarning pensiya ta'xminotini amalga oshirishdagi ilg'or tajribalar va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari haqida gapirib bering.

Mustaqil bajarish uchun 1-topshiriq: Milliy pensiya tizimlarini tavsiflovchi mezonlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi va talabalarning tanloviga ko'ra boshqa xorijiy mamlakat pensiya tizimlarining qiyosiy tahlilini amalga oshirib, tahlil natijalarini quyida taklif qilinayotgan jadvalda aks ettiring:

Topshiriqni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasida qaror topgan pensiya tizimini o'rghanish bilan birga, biror xorijiy mamlakat pensiya tizimi bilan tanishib chiqish talab etiladi, shu sababli ushbu topshiriqni guruhlarga bo'linib bajarish tavsiya etiladi.

1-guruh uchun topshiriq:

Tartibga solish sohasi	Pensiyalarni tayinlash va to'lash shartlari	
Mezonlar turlari	-pensiya yoshi, sh.j. ayollar va erkaklar uchun; -sug'urta stoji, sh.j. ayollar va erkaklar uchun; -ishlovchi pensionerlarga pensiyalarini to'lash tartibi; -muddatidan oldin pensiyaga chiqish tartibi.	
Mamlakat	O'zbekiston	Xorijiy mamlakat

2-guruh uchun topshiriq:

Tartibga solish sohasi	Pensiya miqdorini hisoblash tartibi	
Mezonlar turlari	-pensiya ta'xminotining kafolatlangan me'yorlari (pensiyalarning eng kam miqdori, sh.j. sug'urtaviy va ijtimoiy pensiyalar bo'yicha); -o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha ish haqi miqdoriga nisbati; -ish haqi miqdorini hozirgi kun darajasiga tenglashtirish tartiblari; -pensiyani hisoblash va sug'urta badallarini undirishda qabul qilinadigan ish haqining yuqori darajasi.	
Mamlakat	O'zbekiston	Xorijiy mamlakat

3-guruh uchun topshiriq:

Tartibga solish sohasi	Moliyaviy jihatdan taъminlanishi	
Mezonlar turlari	<p>-asosiy ijtimoiy subъektlarning (ish beruvchilar, ishlovchilar, davlat) pensiya tizimini moliyaviy jihatdan taъminlash bo'yicha majburiyatlari;</p> <p>-ijtimoiy pensiyalarga xarajatlar miqyosi;</p> <p>-taqsimlanadigan, jamg'arib boriladigan va aralash pensiya tizimlarida moliyaviy taъminot manbalarining tarkibi va tuzilishi;</p> <p>-o'rta va uzoq istiqbolda pensiya tizimi xarajatlarining YaIMdagi ulushi.</p>	
Mamlakat	O'zbekiston	Xorijiy mamlakat

4-guruh uchun topshiriq:

Tartibga solish sohasi	Pensiya tizimlarini shakllantirish uchun sharoitlar va uning qiymati	
Mezonlar turlari	<p>-mamlakatning iqtisodiy va demografik rivojlanish istiqbollariga bog'liq ravishda pensiya tizimlarini shakllantirish bosqichlari;</p> <p>-pensiya sug'urtasi to'lovchilar bilan pensionerlar sonining nisbati;</p> <p>-moliyaviy institutlarni yaratish bosqichlari;</p> <p>-sug'urta rezervlarini shakllantirish darajasi.</p>	
Mamlakat	O'zbekiston	Xorijiy mamlakat

TEST SAVOLLARI

№	Test topshirig'i	A-javob	B-javob	V-javob	G-javob
1.	2017 yil 1 iyuldan boshlab ishlamaydigan fuqarolarga O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida pensiyalar va nafaqalarni to'lash qaysi tashkilot tomonidan amalga oshirilishi belgilandi?	*Xalq banki	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	Fuqarolar yashash hududlariga yaqin bo'lgan pensiya va ijtimoiy nafaqani oluvchi fuqaro tanloviga asosan tijorat banklari tomonidan	"O'zbekiston pochtasi" AJ
2.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining tarkibi kimning qarori bilan tasdiqlanadi?	*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qachon qabul qilindi?	* 2017 yil 13 mart, PQ-2826-son Qarori	2017 yil 6 may, PQ-2960- son Qaori	2017 yil 24 may, PQ-3001-son	2017 yil 10 iyul, PQ-5052
4.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining majlislari qanday muddatlarda o'tkaziladi?	*Yil choragida kamida bir marta	Yil choragida kamida ikki marta	Har oyda kamida bir marta	Har oyda kamida ikki marta

5.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining majlislarida ovozlar teng bo'lган taqdirda qanday qaror qabul qilinadi?	*Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi	Qayta ovoz beriladi	Kuzatuv kengashining keyigi ko'rib chiqilishiga qoldiriladi	Qaror bayonnomasi tuzilib, O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga hal etuvchi ovozni berish uchun taqdimot qilinadi
6.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashi majlisi, agar unda kengash aъzolarining qancha qismi qatnashsa huquqiy vakolatlari bo'ladi (kvorumga ega bo'ladi)?	*Kamida uchdan ikki qismi	Kamida uchdan bir qismi	Barchasi qatnashsa	Ikkidan bir qismi
7.	O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya taъminoti to'g'risida" gi qonuni qachon qabul qilingan?	*1993 yil 3 sentyabr	2004 yil 2 dekabr	1994 yil 14 oktyabr	1998 yil 19 fevral
8.	2017 yilda fuqarolarning Pesiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badali stavkasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping	*8,0%	7,5 %	1,6%	25%
9.	Quyidagilardan qaysi biri byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori vakolatiga kirmaydi?	*Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalarini tasdiqlash	Belgilangan mehnatga haq to'lash fondi va xodimlarning soni doirasida ijro etuvchi apparatning shtatlar jadvaliga o'zgartirishlar kiritadi va uni tasdiqlaydi, Jamg'armaning tarkibiy boshqarmalari to'g'risidagi nizomni	Tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatiga rahbarlik qiladi	Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga va boshqa moliyaviy vositalarga joylashtiradi

			tasdiqlaydi		
10.	Quyida keltirilganlarning qaysi biri byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi funktsiyalariga kirmaydi?	*Kam taъminlangan va bolali oilalar uchun nafaqa to'lovlarini to'g'ri tayinlanishi ustidan nazorat olib borish	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashish, fuqarolarning pensiya taъminoti masalalari bo'yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribalarni o'rghanish	Xalq bankida ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini hamda boshqa to'lovlarining o'z vaqtida to'lanishi monitoringini olib boradi	Ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya taъminoti masalalari bo'yicha xabardor qilish
11.	Quyidagilardan qaysi biri byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari manbalariga kirmaydi?	*Fuqarolarning hisoblangan ish haqlariga nisbatan 24,8% (2017 yil holatida) miqdoridagi ajratmalar	Jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari	Mehnatda mayib bo'lganlik oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarini to'lashga xarajatlarni to'lash uchun regressiv talablar bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'lar	O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar
12.	Kelgusi yilga manbalar va foydalanish yo'nalishlari bo'yicha byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari prognozлari kim tomonidan ishlab chiqiladi?	*Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati tomonidan	O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisи	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	O'zbekiston Respublikasi Hisob Palasati
13.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar tushishining va yig'ilishining to'liqligi yuzasidan nazoratni kim olib boradi?	*Davlat soliq xizmati organlari	Jamg'armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari	Jamg'armaning ijro etuvchi apparati	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

14.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalari kimning hujjatlari bilan tasdiqlanadi	*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan	O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining hujjatlari bilan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan	Jamg'armaning ijro etuvchi apparatining hujjatlari bilan
15.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlari kim tomonidan lavozimga tayinlanadilar?	*Jamg'arma ijro etuvchi direktorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining qaroriga muvofiq lavozimga tayinlanadilar	Jamg'arma Kuzatuvchi kengashining taqdimnomasi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadilar	Jamg'arma Kuzatuvchi kengashining taqdimnomasi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadilar	Jamg'arma ijro etuvchi direktorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadilar
16.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparatiga har oyda hududlar bo'yicha to'langan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'g'risidagi tezkor axborotni kim taqdim etadi?	*Jamg'armaning hududiy boshqarmalari	Davlat soliq xizmati organlari	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi
17.	Pensiylar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlnarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?	*Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan	O'zbekiston Respublikasi Xisob palatasi tomonidan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
18.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlar	*2017 yil 14 fevral	2017 yil 7 fevralda	2017 yil 10 martda	2017 yil 10 yanvarda

	strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qachon qabul qilindi?				
19.	Quyidagilardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tarkibini tashkil etmaydi?	* Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish	Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish	Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish	Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish
20.	O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi asosiy yo'nalishi qanday nomlanadi?	*Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar	Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari	Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari
21.	O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari o'z ichiga nechta ustuvor yo'nalishlarni qamrab oldi?	*5 ta	3 ta	4 ta	7 ta
22.	Harakatlar strategiyasini amalga oshirish dasturida belgilangan vazifalar doirasida 1941–1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari, nafaqaxo'rlar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va	*Davlat byudjeti mablag'lari	Bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	Halqaro kreditlar va homiylik mablag'lari

	aholining boshqa nochor qatlamlaridan kamida 35 ming nafarining sanatoriy muassasalarida bepul davolanishini tashkil qilish qanday mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi belgilandi?				
23.	“O’zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg’armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qachon qabul qilindi?	* 2016 yil 28 dekabr, PF-4906-son	2017 yil 24 may, PF-2826-son	2016 yil 18noyabr, PF-2027-son	2017 yil 10 mart, PF-3001-son
24.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi xarajatlarining asosiy yo’nalishlari noto’g’ri ko’rsatilgan javob	*2 yoshgacha bolali ishlamaydigan onalarga nafaqlar	Fuqarolarga tayinlanadigan pensiyalar	Bolalikdan nogironlarga, davlat pensiya ta’minoti huquqiga ega bo’lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqlar	Dafn marosimlari uchun nafaqlar
25.	O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromad manbalari ichida eng yuqori ulushga ega bo’lgan daromad turi	*Mulk shaklidan qa’sti nazar, yuridik shaxs maqomida bo’lgan xo’jalik subъektlarining ish haqiga nisbatan o’rnatilgan yagona ijtimoiy to’lovdan tushumlar	Korxona, tashkilot va muassasalar tovar(ish, xizmat) larining realizatsiyasi hajmidan ajratmalar	Davlat byudjetidan dotatsiyalar	Fuqarolarning ish haqisidan ijtimoiy sug’urta ajratmalari
26.	Maxsus ish staji nima?	*imtiyozli pensiya ta’minoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi	umumiy mehnat faoliyatining davomiyligi	umumiy pensiya ta’minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati	mahsus ishlarda ishlagan davr

27.	Pensiya jamg'armasining mablag'laridan qanday maqsadlar uchun foydalanilmaydi?	*Ikki yoshgacha bolali onalarga nafaqalar	dafn etish marosimi uchun nafaqalar	ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash	nogironlik nafaqasi
28.	Pensiya miqdori nimalardan shakllanmaydi?	*yuqori sug'urta badali to'langanlik uchun yakka tartibdagi koeffetsentdan	pensiyaning bazaviy miqdoridan	ish staji uchun pensiya oshirilishidan	pensiyaga ustama haqlardan
29.	Amaldagi qonunchilikka asosan "Pensiya" deganda nima tushuniladi?	*Uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va meъyorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi	Xalq xo'jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozli pensiya taъminoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi	Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi	Shaxsning pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqi
30.	Pensiya tayinlangandan boshlab umrbod to'lanadigan pensiyalarning turi	*Yoshga doir pensiyalar	Nogironlik pensiyalari	Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari	Pensiyalar umrbod tayinlanmaydi
31.	O'zbekiston Respublikasida ish hajmining kamayishi natijasida shtatlarning qisqarishi tufayli ishdan bo'shatilgan va ishsiz deb topilgan shaxslarning pensiyaga chiqish yoshlari va stajlari qanday belgilangan?	*Erkaklar - 58 yoshda va ish staji 25 yildan kam bo'limganda, ayollar - 53 yoshda va ish staji 20 yildan kam bo'limganda	Erkaklar - 57 yoshda va ish staji 25 yildan kam bo'limganda, ayollar - 52 yoshda va ish staji 20 yildan kam bo'limganda	Erkaklar - 56 yoshda va ish staji 23 yildan kam bo'limganda, ayollar - 52 yoshda va ish staji 18 yildan kam bo'limganda	Erkaklar - 58 yoshda va ish staji 20 yildan kam bo'limganda, ayollar - 53 yoshda va ish staji 15 yildan kam bo'limganda

32.	O'zbekiston Respublikasida umumiylasosda yoshga doir pensiya olish huquqiga kim va qachon ega bo'ladi?	* Erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lsa, ayollar - 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lsa	Erkaklar – 63 yoshga to'lganda va ish staji kamida 28 yil bo'lsa, ayollar - 58 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lsa	Erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish staji kamida 30 yil bo'lsa, ayollar - 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lsa	Erkaklar – 65 yoshga to'lganda va ish staji kamida 35 yil bo'lsa, ayollar - 60 yoshga to'lganda va ish staji kamida 30 yil bo'lsa
33.	Dafn marosimlari uchun nafaqalar qaysi manbadan to'lanadi?	*Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan	Davlat byudjetidan	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimidan	Bandlikka ko'maklashuv jamg'armasidan
34.	Fuqarolar qachon jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olishni so'rabburojaat qilishlari mumkin?	*Pensiya olish huquqi paydo bo'lgandan so'ng istalgan paytda	Asosiy ishlab turgan ishidan bo'shashi bilan istalgan paytda	Pensiya olish huquqini beruvchi zarur ish stajiga ega bo'lgandan so'ng	Pensiya olish istagi paydo bo'lishi bilan istalgan paytda
35.	Davlat pensiyalarining bir necha turini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga pensiya qanday tayinlanadi?	*Fuqaroning tanloviiga ko'ra bitta pensiya tayinlanadi	Pensiyaning eng ko'p miqdordagisi tayinlanadi	Pensiyalarning o'rtachasi tayinlanadi	Hamma turi barobar tayinlanadi
36.	O'zbekiston Respublikasida yoshga doir pensiyani hisoblashda qaysi davr ish haqlari inobatga olinadi?	*oxirgi 10 yillikning uzluksiz 5 yilligi	oxirgi 5 yillik	oxirgi 10 yillik	butun ishlagan davrning istalgan 5 yili
37.	Qanday toifadagi ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda (100 foiz) to'lanadi?	*Fuqarolar yig'inlari va mahallalarning raislariga	III-guruh nogironlariga	Ko'p bolali oilalarga ega bo'lgan pensionerlarga	To'liq bo'lmagan ish staji bilan pensiya tayinlangan va keyinchalik ishga joylashgan shaxslarga

38.	Yoshga doir pensiya tayinlangandan keyin ishlangan vaqt pensiya tayinlash uchun stajga qo'shib hisoblanadimi?	*Hisoblanmaydi	Hisoblanadi	Pensiya tayinlangandan keyin ishlangan vaqtning 2/3 qismi hisoblanadi	Pensiya tayinlangandan keyin ishlangan vaqtning 1/3 qismi hisoblanadi
39.	2017 yilning 1 avgust holatida O'zbekiston Respublikasi hududida eng kam yoshga doir pensiyalar miqdori oyiga necha pulni tashkil etadi?	*292940 so'm	254730 so'm	149775 so'm	179755 so'm
40.	2017 yilning 1 avgust holatida O'zbekiston Respublikasi hududida zarur ish stajiga ega bo'lмаган keksa yoshdag'i va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan eng kam nafaqa oyiga necha pulni tashkil etadi?	*179755 so'm	254730 so'm	156310 so'm	292940 so'm
41.	2017 yilning 1 avgust holatida O'zbekiston Respublikasi hududida bolalikdan nogironlarga beriladigan eng kam nafaqa oyiga necha pulni tashkil etadi?	*292940 so'm	254730 so'm	149775 so'm	179755 so'm
42.	O'zbekiston Respublikasida ikki yoshgacha bola parvarishi uchun onalarga beriladigan nafaqa agar tayinlanadigan bo'lsa qancha miqdorda beriladi?	*eng kam ish haқining ikki barobari miqdorida	eng kam ish haқining bir barobari miqdorida	eng kam ish haқining bir yarim barobari miqdorida	eng kam ish haқining uch barobari miqdorida
43.	O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonuni қachon қabul қilindi?	*2016 yil 26 dekabr	2017 yil 10 mart	2016 yil 18noyabrъ	2017 yil 2 fevralъ

44.	O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tartibda ijtimoiy xizmatlarga muhtoj hamda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari deb topilgan shaxslar tarkibiga kimlar kiritilgan?	*Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar	Bollari bilan birgalikda hayot kechirayotgan keksa yoshdagи shahslar	III- guruh nogironlari	Beva ayollar (beva erlar)
45.	O'zbekiston Respublikasi "Nuroniy" jamg'armasining barcha xodimlari - pensionerlarga pensiyalar kanday mablag'lar hisobiga to'lanadi?	* O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashқari Pensiya jamg'armasi	O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti	O'zbekiston Respublikasi "Nuroniy" jamg'armasi mablag'lari	Bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi
46.	O'zbekiston Respublikasi "Nuroniy" jamg'armasining barcha xodimlari – pensionerlari ishlab turgan davrida o'z pensiyalarining necha foizi to'lanadi?	*100%	50%	70%	80%
47.	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuқarolarning shahsiy hisobi kim tomonidan yuritiladi?	*Xalқ banki	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	O'zbekiston Respublikasi Davlat Solik Qumitasi
48.	Bolali oilalarga nafaқa, bola parvarishi bo'yicha nafaқa va moddiy yordam қachondan boshlab to'lanadi	*Ariza beruvchining o'zini o'zi boshkarish organiga murojaat қilgan oyning keyingi oyidan boshlab to'lanadi	Ariza beruvchining o'zini o'zi boshkarish organiga murojaat қilgan oyidan boshlab to'lanadi	Ariza beruvchining o'zini o'zi boshkarish organiga murojaat қilgan kunidan boshlab to'lanadi	Ariza beruvchining ishsizlik maқomini olgan kunidan boshlab to'lanadi

49.	Yoshga doir pensiyani tayinlash uchun talab қилинадиган eng kam mehnat staji	*7 yil	3 yil	20 yil	25 yil
50.	Umumiy asosda ishlaydigan pensionerlar pensiyasining necha foizini olishadi?	*50%	70%	45%	100%
51.	Fuқaro pensiya yoshiga etganda pensiya tayinlanishini so'rab kimga murojat kildi?	*Byudjetdan tashқari Pensiya jamg'armasiga	Bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasiga	Oxirgi marta ishlagan ish joyiga	Tuman va shaxar xokimliklariga
52.	Pensiya miқdori nimalardan tarkib topadi?	*Pensyaning tayanch miқdoridan, ish stoji uchun pensyaning oshirilishidan, pensiyaga қo'shiladigan ustama ҳақlardan	Ish stoji uchun xisoblangan pensyaning tayanch miқdoridan va pensiyaga қo'shiladigan ustama ҳақlardan	Pensyaning tayanch miқdoridan, pensiyaga chiқib ishlab turgan davrida қushimcha mexnat stajidan	Faқatgina pensyaning tayanch miқdoridan
53.	Quyidagi ijtimoiy nafaқalardan қaysi biri byudjetdan tashқari Pensiya jamg'armasi mablag'lari xisobidan moliyalashtiriladi?	*Dafn marosimlari uchun nafaқalar	O'n to'rt yoshgacha bolali oilalar uchun nafaқalar	Ihsizlik nafaқalari	Ikki yoshgacha bolali onalar uchun nafaқalar
54.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Keksalarni ijtimoiy ximoya қilish va moddiy қo'llab-кuvvatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha қo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2015 yil 14 apreldagi PF-4715-sod Farmoniga muvofiq yoshi 75 ga to'lgan va undan oshgan fuқarolar	*ularga tayinlangan, to'langan va aniklangan ortikcha to'langan pensiya va nafaқalar miқdori 2015 yil davomida xisobdan chиkarilishi belgilandi	xar oyda eng kam ish ҳақining 100 foizi miқdorida қo'shimcha to'lov to'lash belgilandi	ularga tayinlangan pensiyalarga ustama ҳақlar to'lanishi belgilab berildi	ularga 2015-2016 yil davomida eng kam pensyaning 50% miқdorida қo'shimcha to'lovlar amalga oshirilishi belgilab berildi

	uchun қандай имтиёз белгиланди?				
55.	Quyida keltirilgan mamlakatlarning қaysi birida ayollar va erkaklarning yoshga doir pensiyaga chiқish yoshlari teng xisoblanmaydi?	*Moldova	Yaponiya	Shvetsiya	Kanada
56.	Qariyalar va nogironlarning internat uylarida yashovchi yolg'iz urush nogironi bo'lган pensionerlarga pensiya қанча миқдорда to'ланади?	*Pensiya bilan ular taъminoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi fark, biroқ tayinlangan pensiyaning kamida 20 foizi to'ланади	To'lanmaydi	Pensiya bilan ular taъminoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi fark, biroқ tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi to'ланади	Pensiya bilan ular taъminoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi fark, biroқ tayinlangan pensiyaning kamida 50 foizi to'ланади
57.	O'zbekiston Respublikasining "Fuқарolarning davlat pensiya taъminoti to'g'risida"gi қонуни неча bob va moddadan iborat?	*9 bob, 67-modda	10 bob, 74 modda	11 bob, 74 modda	8 bob, 67 modda
58.	Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish xukуki to'g'risidagi guvoxnomma bunday to'lovlarни oluvchiga ariza necha ish kuni ichida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda beriladi?	*O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashқari Pensiya jamg'armasining tuman (shaxar) bo'limiga kelib tushgan kundan eъtiboran besh ish kuni ichida	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashқari Pensiya jamg'armasining tuman (shaxar) bo'limiga kelib tushgan kundan eъtiboran o'n ish kuni ichida	Xalқ bankining tuman (shaxar) bo'limiga kelib tushgan kundan eъtiboran uch ish kuni ichida	Xalқ bankining tuman (shaxar) bo'limiga kelib tushgan kundan eъtiboran yigirma to'rt ish kuni ichida
59.	O'zbekiston Respublikasining "Fuқarolarning davlat pensiya taъminoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq pensiyalarni to'lashga xarajatlarni koplash tartibi to'g'risida"gi Nizom қachon kabul қilingan?	*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 23 dekabry, 357-son қарoriga asosan tasdiқlangan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son қарoriga asosan tasdiқlangan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 14 oktyabry, 63-son қарoriga asosan tasdiқlangan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 8 sentyabry, 252-son қарoriga asosan

					tasdiqlangan
60.	Tumanlararo, tuman (shaxar) va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mexnat ekspert komissiyalari raxbarlari kim tomonidan lavozimga tayinlanadi?	*Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi boshlig'ining taqdimnomasi bo'yicha Jamg'arma ijro etuvchi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi	Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi boshlig'ining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi	Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi boshlig'ining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi	Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi
61.	O'zbekiston Respublikasining "Chet elda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xamda ish vaqtini xisobga olib bo'lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lash tartibini, shuningdek ularning pensiyani xisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini xisobga olish tartibi to'g'risida"gi Nizom қachon қabul qilingan?	*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil 22 fevral, 46-sont қaroriga asosan tasdiqlangan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 23 dekabr, 357-sont қaroriga asosan tasdiqlangan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2015 yil 19 oktyabr, 297-sont қaroriga asosan tasdiqlangan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 14 oktyabr, 63-sont қaroriga asosan tasdiqlangan
62.	Quyidagilardan kaysi biri byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori vakolatiga kirmaydi?	*Byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi, uning xududiy boshkarmalari va tuman (shaxar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalarini tasdiqlash	Belgilangan mexnatga haq to'lash fondi va xodimlarning soni doirasida ijro etuvchi apparatning shtatlar jadvaliga o'zgartirishlar kiritadi va uni tasdiqlaydi,	Tibbiy-mexnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatiga raxbarlik kildi	Jamg'armaning vaqtinchalik bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga va boshqa moliyaviy vositalarga joylashtiradi

			Jamg'armaning tarkibiy boshqarmalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi		
63.	Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mexnat ekspertizasi xizmatlari ta'xminoti қандай mablag'lari xisobiga amalga oshiriladi?	*O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti	Byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasi	O'zbekiston Respublikasi Mexnat vazirligining jamlanma xarajatlari smetasida ko'rsatib o'tilgan mablag'lari doirasida	Vazirlar Maxkamasining rezerv fondi
64.	Majburiy ajratmalar, badallar va Jamg'armaga boshqa to'lovlarning o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun xisoblangan jarimlar, penyalar summasining necha foizi byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasi xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga kelib tushadi?	*5%	10%	15%	50%
65.	Byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasi Jamg'arma va Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasini қандай manbalar xisobiga shakllantirishi mumkin?	*Mexnatda mayib bo'lganlik yoki xodim mexnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq kasb kasalligi okibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarni to'lashga xarajatlarni to'lash uchun regressiv talablar bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning konunchilik bilan belgilangan foizi	Tasdiqlangan xarajatlar smetasining 5% miqdoridagi mablag'lar xisobidan	Byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasining xisobvaraqlarida pensiyalar, ijtimoiy nafakalar va kompensatsion to'lovlar bo'yicha ortgan pul mablag'larining 10 %	Byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasining xisobvaraqlarida pensiyalar, ijtimoiy nafakalar va kompensatsion to'lovlar bo'yicha ortgan pul mablag'larining 15 %

66.	Quyida keltirilgan toifadagi ishlovchi pensionerlar ning қaysi biriga pensiyalar to'liq miqdorda (100 foiz) to'lanmaydi?	*Fuқarolarning o'zini o'zi boshkarish organlarida diniy maъrifat va maъnaviy-axlokiy tarbiya bo'yicha maslaxatchi lavozimlarida ishlovchi pensioner erkaklarga	I va II gurux nogironlari	Fuқarolar yig'inlari va maxallalarning raislariga	Chernobil xalokatidan ziyon ko'rgan fuқarolar
67.	Boқuvchisini yo'котган taқdirda tayinlangan pensiyalarni to'lashga xarajatlarni to'lash uchun regressiv talablar (daъvolar) bo'yicha ish beruvchilar va fuқarolardan қonunchilikga muvofiq undiriladigan mablag'larning necha foizi byudjetdan tashқari Pensiya jamg'armasi xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga kelib tushadi?	*15%	10%	5%	25%
68.	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuқarolarning shaxsiy xisobini yuritishga doir xамда shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvaraқlariga taallukli maъlumotlar қaerda shakllantiriladi va saqlanadi?	*Xalқ bankingning yagona maъlumotlar elektron bazasida	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashқari Pensiya jamg'armasi yagona maъlumotlar elektron bazasida	"O'zarxiv" Agentligi yagona maъlumotlar elektron bazasida	Davlat Solik Qumitasi yagona maъlumotlar elektron bazasida
69.	Yakka tartibdagи tadbirkor va oilaviy tadbirkorlik subъekti oila aъzolari tomonidan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari қanday muddatlarda to'lanadi?	*Har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay	Har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15-kunidan kechiktirmay	Har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 10-kunidan kechiktirmay	xar oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 30-kunidan kechiktirmay
70.	Yakka tartibdagи tadbirkor oilaviy tadbirkorlik subъektining xar bir aъzosi, shuningdek mexnat shartnomasi bo'yicha yakka tartibdagи tadbirkor	*Eng kam ish ҳaқining 50 foizi	Eng kam ish ҳaқining 100 foizi	Eng kam ish ҳaқining 75 foizi	Eng kam ish ҳaқining 25 foizi

	tomonidan yollangan xar bir xodim uchun Pensiya jamg'armasiga xar oyda қанча miqdorida sug'urta badali to'laydi				
71.	Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvaraklariga tartib raqami berish қanday maъlumotlar asosida amalga oshiriladi	*Fuқarolarning pasportidagi maъlumotlar asosida	Xalқ bankining unikal tartibli raqamlari asosida	Davlat solik inspeksiyalari tomonidan ro'yxatga olingan identifikatsion raqamlar asosida	Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi unikal raqami asosida
72.	Fuқarolarning pasportidagi maъlumotlar o'zgargan taqdirda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvarag'i tartib raqami қanday o'zgartiriladi?	*O'zgarishsiz қoladi va yangi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvarag'i ochish talab etilmaydi	Yashash joyidagi Xalқ banki bo'limga murojat etilib, yangi maъlumotlar asosida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvarag'i tartib raqami olinadi	Davlat solik inspeksiyalari tomonidan ro'yxatga olingan identifikatsion raqamlar asosida Xalқ banki bo'limga murojat etilib, yangi maъlumotlar asosida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvarag'i tartib raqami olinadi	Avval ochilgan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvarag'i yo'k қilinib, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvarag'i ochiladi
73.	Dexkon xo'jaligi aъzosi tomonidan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari қanday muddatlarda to'lanadi?	*Hisobot yilining 1 oktyabrigacha to'lanadi	Har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay	Har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15-kunidan kechiktirmay	Hisobot yilining 30 dekabrigacha to'lanadi
74.	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida xisobga olinayotganda fuқarolarga Xalқ banki қanday muddatga doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvaraklari ochadi?	*Umrbod muddatga	Yoshga doir pensiya yoshiga etib borgan muddatga	Pensiya bilan tayinlash xукукiga yoxud doimiy yoki vaqtinchalik chet elga ko'chib ketgan muddatga	Butun ish faoliyatini davom ettirish muddatigacha
75.	Quyidagilardan қaysi biri jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lарidan foydalanish yo'nalishlariga kirmaydi?	*Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaқa to'lovlarini amalga oshirish	Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovleri to'lash	Mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish	Mablag'larni moliyaviy vositalarga joylashtirish
76.	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lарini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi kim tomonidan	*O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bilan	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini

	belgilanadi?	Markaziy banki tomonidan	kelishilgan xolda Xalq banki tomonidan	kelishilgan xolda Xalq banki tomonidan	moliyaviy vositalarga joylashtirishga yo'l kuyilmaydi
77.	Fuқaroning jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish xукуқини tasdiқlovchi jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi fuқaroga kim tomonidan beriladi?	*Xalq banki	Asosiy mexnat faoliyati amalga oshirilayotgan muassasa (tashkilot, korxona)	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashқari Pensiya jamg'armasi	Davlat Solik Qumitasi
78.	Quyidagi keltirilgan iboralardan қaysi biri noto'g'ri?	*Fuқaroning jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish xукуқinи tasdiқlovchi jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi fuқaroga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya xisobvaraғi ochilganidan keyin asosiy ish faoliyatini amalga oshiradigan tashkilot (korxona, muassasa) tomonidan beriladi	Fuқaro vafot etgan taқdirda, shaxsiy jamfarib boriladigan pensiya xisobvaraғida jamfarilgan mablaflar merosga o'tadi va merosxo'rғa bir yo'la to'la xajmda to'lanadi	Fuқaro O'zbekiston Respublikasi xududidan tashқariga doimiy yashash joyiga chiқib ketayotgan bo'lsa, shaxsiy jamfarib boriladigan pensiya xisobvaraғida jamfarilgan mablaflar bir yo'la to'la xajmda to'lanadi	Jamfarib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuқarolar pensiya to'lovleri oluvchi sifatida jamfarib boriladigan pensiya to'lovlarini davlat pensiyasini olish xукуқi юзага kelgan taқdirda olish xукуқiga ega
